

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

L.S. ZOYIROV., S.K.QOSIMOVA

**INTELLEKTUAL MULK VA
NOMODDIY AKTIVLARNI
BAHOLASH**

*O‘zbekiston Respublikasi oliy va
o‘rta maxsus ta‘lim vazirligi tomonidan
o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent
“IQTISOD-MOLIYA”
2019

UO‘K 005.336.4(075.8)
KBK 67.404.3

Taqrizchilar: *i.f.n., dots.* **N.S.Ismailova;**
i.f.n., dots. **K.Z.Xomitov**

Z 73 Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash: O‘quv qo‘llanma /
L.S. Zoyirov, S.K. Qosimova; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019. – 176 b.

“Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash” fani bo‘yicha yaratilgan ushbu o‘quv qo‘llanma 5231500-“Baholash ishi” ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ta‘lim oluvchi talabalarda nstitute al mulk va nomoddiy aktivlarning har qanday turi, ularning qiymati, narxi kategoriyalari, ularni nstitute al mulk bozori va nstitute al mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorida shakllanishi va baholanishiga, boshqarilishiga, undagi qiymat va narx muhiti shakllanishiga doir ilmiy g‘oyalar, nazariy qarash va atamalar, tushunchalar hamda nstitute al mulk va nomoddiy aktivlar qiymatini baholashning asosiy yondashuvlari, usullari, baholash natijalarini muvofiqlashtirish boyicha yaxlit tizimlashtirilgan zaruriy bilim, amaliy ko‘nikma va malaka asoslarini shakllantirishga bag‘ishlangan.

Toshkent moliya nstitute O‘quv-uslubiy kengashi tomonidan 5231500 – “Baholash ishi” bakalavriat ta‘lim yo‘nalishi uchun “Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash” fanidan o‘quv qo‘llanma sifatida tavsiya etilgan.

UO‘K 005.336.4(075.8)
KBK 67.404.3

ISBN 978-9943-13-839-1

© L.S. Zoyirov, S.K. Qosimova, 2019
© “IQTISOD-MOLIYA”, 2019

KIRISH

Har bir mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikka erishish uchun intellektual mulk muhofazasining mustahkam tizimiga ega bo'lishi lozim. Intellektual mulk muhofazasi ixtirochilar va ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning yangiliklaridan foydalanish uchun sohaga investitsiyalarni jalb qilishni taqozo etadi. Bugungi kunda butun dunyoda intellektual mulk obyektlarini tarkiblarga ajratish, obyektlarga huquqiy rejim berish, huquq egalari manfaatlarini himoya qilish tizimini soddalashtirish orqali kodifikatsiya jarayoni olib borilayotgani ko'zga tashlanmoqda. Shunday ekan, intellektual mulkning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, davlat organlari va manfaatdor tashkilotlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash, eng asosiysi jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlod orasida sohaga oid nazariy, huquqiy bilimlarni tizimli targ'ib qilish dolzarb vazifalardan biridir.

Mazkur o'quv qo'llanmaning asosiy maqsadi – iqtisodiyot fanining mustaqil yo'nalishi sifatida intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholashning nazariy, uslubiy va amaliy yondashuvlarini shakllantirishdan iborat. Unda, bir tomondan bozor iqtisodiyotining rivojlangan mamlakatlarda intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash amaliyotida keng qo'llanilayotgan usullar va yondashuvlari bayon etilgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, respublikada joriy etilgan intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash faoliyati tartibotining o'ziga xos xususiyatlari hisobga olingan.

Ushbu o'quv qo'llanma baholash faoliyatining muhim yo'nalishi – bozor munosabatlari rivojlanishi sharoitida intellektual mulk va nomoddiy aktivlarning alohida turlarining qiymatini baholash yondashuvlarini o'z ichiga oluvchi O'zbekistonda yaratilgan dastlabki o'quv-amaliy qo'llanmalardan bo'lib, baholash faoliyatining intellektual

mulk va nomoddiy aktivlar qiymatini baholash sohasida malakali baholovchilarni tayyorlashga ko'maklashadi.

Mazkur o'quv qo'llanmani tayyorlashda intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash faoliyati sohasida chet ellik olimlar, jumladan A.Bruking, G.Smith, D.Martin, V.Volnest – Russet, V.YU. Bashkinskas, S.A. Nikolayeva, M.YU. Skapenker, A.N. Koziryev, F. Modilyani, M.Miller, S.F. Gorlenko, T.V. Grigoreva, B.A. Lobach, Gmoshinskiy, G.V. Bromberg, V.YU. Xin, N.V. Linnik, S.A. Smirnova va boshqalar tomonidan chop etilgan ilmiy va amaliy ishlanmalardan foydalanildi.

1-MAVZU: INTELLEKTUAL MULK VA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASHNING ASOSIY TUSHUNCHALARI


1.1. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar tushunchasi va mazmuni, tasnifi va tavsifi

Intellektual mulk tushunchasining kelib chiqishi XVIII asr oxiri Fransiya qonunchiligi bilan bog'liq. Mualliflik va patent huquqiga mulkdor sifatida yondashuv an'anasi Fransiyada vujudga kelgan hamda o'zining asosiga ya'ni rivojlanishini fransuz faylasuflari mehnati natijasida olgan tabiiy huquq nazariyasiga tayangan. Ushbu nazariyaga muvofiq har qanday ijodiy natijalar yaratuvchisi (ijodkori) huquqi ijodiy faoliyatning tabiatidan vujudga keluvchi hamda ushbu huquq davlat tomonidan tan olinishi va olinmasligidan qat'i nazar mavjud bo'luvchi uning ajralmas tabiiy huquqi bo'lib hisoblanadi.

Patent va mualliflik huquqining vatani Angliyadir. Aynan shu yerda ilk bor 1623-yilda Patent qonuni ("Monopollar maqomi") va 1710-yilda Mualliflik qonuni ("Qirolicha Anna maqomi") qabul qilingan. Keyinchalik "intellektual mulk" tushunchasiga birlashtirilgan adabiyot va sanoat mulki tushunchalari paydo bo'ldi. 1883-yilda hozirgi kunda ham ushbu turdagi mulk muhofazasi sohasida universal ko'p qirrali bitim sanoat mulki muhofazasi bo'yicha Parij konvensiyasi imzolangan. Oradan uch yil o'tib, ya'ni 1886-yili adabiy va badiiy asarlarni muhofaza qilish to'g'risidagi Bern konvensiyasi kuchga kirdi. Ayniqsa, bunda buyuk fransuz adibi Viktor Gyugo boshchiligidagi guruh va uning Xalqaro adabiyot va san'at assotsiatsiyasi muhim o'rin tutdi. 1891-yilda esa belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish uchun Madrid bitimi imzolandi. Shundan so'ng 1893-yili Parij va Bern konvensiyalari bo'limlarining o'zaro birlashishi intellektual mulk muhofazasi bo'yicha Birlashgan xalqaro byuro tashkilotining yaratilishiga olib keldi.


Biroq, intellektual mulk atamasi vujudga kelishi bilanoq unga bo‘lgan munosabat bir xil bo‘lmagan. Olimlar-huquqshunoslar ushbu atamani noaniq va ilmiy emas deb hisoblaydilar, chunki mualliflik asarlari hamda texnik yangiliklar hisoblangan nomoddiy obyektlar va moddiy buyumlar huquqiy tartibini tenglashtirib bo‘lmaydi. Haqiqatdan ham bir tarafdin ijodiy natijalar yaratuvchisiga erkin begonalashtirilishi mumkin bo‘lgan undan foydalanish huquqi tegishli. Ushbu huquq mulkiy huquqqa oid va haqiqatdan ham moddiy buyumga bo‘lgan mulk huquqiga o‘xshash. To‘g‘ri bunda, ularning jiddiy farqlarini esda saqlash lozim.

“Intellektual mulk” tushunchasi so‘ngra 1967-yil 14-iyuldagi “Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT)ni tashkil etish to‘g‘risida”gi Stokgolm konvensiyasida ilgari surilgan. Mazkur konvensiya intellektual mulkning huquqiy maqomini belgilash bilan birga, uning tarkibi, ya’ni obyektlarini (1- rasm) ham aniqladi hamda BIMT faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini ko‘rsatib berdi.



1-rasm. Intellektual mulk obyektlari

Shunday qilib, intellektual mulk – bu insonning ijodiy faoliyati natijalariga bo‘lgan huquqidir. Quyidagi 2-rasmda intellektual mulkning asosiy turlarini ko‘rishimiz mumkin.



2-rasm. Intellektual mulkning asosiy turlari

“Intellekt” – lotincha so‘z bo‘lib “aql” ma’nosini bildiradi. Intellektual faoliyat natijalari ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bu ko‘p hollarda aqliy mehnat kishilari – yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar, injener texnik xodim va boshqalar faoliyatining mahsullaridir. Bu mahsullar o‘zining yangiligi yoki o‘ziga xosligi, takrorlanmas belgilariga ega bo‘ladi. Huquq fanida bu mahsullarning ko‘pchiligi g‘oyaviy - nomoddiy ko‘rinishda bo‘lishligi qayd etiladi. Shu sababli ham ularga nisbatan odatdagi ashyo, moddiy obyektga nisbatan qo‘llaniladigan huquq me‘yorlarini qo‘llab bo‘lmaydi. Bu mahsullar fuqarolik qonunlari bilan qo‘riqlanishi uchun quyidagi shartlarga javob berishi kerak:

✚ haqiqatda ijod mahsuli bo‘lishi, ya’ni original (o‘ziga xos) bo‘lishi;

✚ betakror bo‘lishi va biror-bir obyektiv shaklda ifoda etilishi. Intellektual faoliyat natijasini yaratgan ijodkor yaratgan mahsuli uchun intellektual mulk huquqiga ega bo‘ladi.

Intellektual mulk obyektlari fuqarolik huquqining boshqa obyektlari - ashyolar, qimmatbaho qog'ozlardan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:

✚ intellektual faoliyat natijalari ko'p hollarda moddiy ko'rinishda emas balki, g'oya bilan axborot shaklida namoyon bo'ladi;

✚ g'oya, bilim shaklidagi intellektual mulk obyektiga odatda moddiy ashyoga egalik qilganday egalik qilish mumkin emas;

✚ bunday obyektlardan bir vaqtning o'zida cheksiz doiradagi shaxslar foydalanishi mumkin;

✚ intellektual mulk huquqi obyektlariga mulk huquqining bemuddat ekanligi haqidagi qoida qo'llanilmaydi;

✚ qonunda belgilangan muddatlar o'tishi bilan intellektual mulk sohibining ma'lum intellektual mulkiga nisbatan huquqlari bekor bo'ladi va bu obyektlar umuminsoniy boylikka aylanadi, har kim undan ma'lum shartlar asosida tekin va ruxsatsiz foydalanishga haqli bo'ladi;

✚ intellektual mulk obyektlariga nisbatan mulk huquqini himoya qilishda vijdonan da'voni qo'llash imkoniyati amalda mavjud emas;

✚ intellektual mulk huquqi obyektlariga nisbatan odatdagi mulk huquqi emas, mutloq huquqlar haqidagi qoidalar qo'llaniladi;

✚ intellektual mulk huquqining amal qilishi, ayni vaqtda ma'lum hudud bilan chegaralangan bo'ladi. Ixtiroga berilgan O'zbekiston Respublikasi Patent idorasini patenti bilan ixtiro davlatimiz hududida amal qiladi.

Ko'pgina intellektual mulk obyektlariga nisbatan ularning mualliflar shaxsiy huquqlari mavjud bo'lib, bu obyektlardan foydalanuvchilarda bu shaxsiy huquqlarga rioya qilishlari lozim.

Intellektual mulk obyekti bo'lib (keyingi o'rinlarda IMO deb yuritiladi) - jismoniy yoki yuridik shaxsning intellektual faoliyatning natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga bo'lgan mutlaq huquqi hisoblanadi¹.

¹ O'zbekiston Respublikasi Mulkini baholash 13-son "Intellektual mulk obyektlari qiymatini baholash" milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

IMOGa yoki nomoddiy aktivlarga bo'lgan huquqlarni sotib olish bo'yicha qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tuzilgan litsenziya, mualliflik yoki boshqa shartnomalar bilan muhofazalangan boshqa Nomoddiy aktivlar va IMOlAr ham baholash obyektlariga kiritilishi mumkin. Baholash obyektlari qiymati ularga bo'lgan mulkiy huquqlar, ularga boshqa shaxslar talablarining yuklanishi va cheklashlarni hisobga olgan holda aniqlanadi.

Nomoddiy aktiv tushunchasiga turli davrda faoliyat ko'rsatgan olimlar turlicha izoh berganlar masalan, xorij iqtisodchi-olimlaridan B.Nidlz, X.Anderson va D.Kolduellar: "nomoddiy aktivlar – jismoniy ko'rinishga ega bo'lmagan, sotib olinayotgan aktivlar tarkibida kapital qo'yilmalarni tashkil etuvchi asosiy aktivlar", deb qaraydilar.

R.Entoni esa nomoddiy aktivlarni "yakka tartibda sotiluvchi aktivlar va korxonalar bilan birga sotiluvchi aktivlar", deb e'tirof etadi. Yakka tartibda aks ettiriluvchi aktivlar barcha huquqlarni o'zida namoyon etsada, mahsulotlar belgilari, uning xilma-xilligi korxonaning umumiy qiymatiga qo'shiladi.

Prof. A.Sheremet nomoddiy aktivlarga umumiy holda quyidagicha ta'rif beradi: "...moddiy qiymatga ega bo'lmagan yuridik va boshqa huquqiy munosabatlarni o'zida namoyon etuvchi, o'z egasiga ma'lum vaqt davomida foyda (daromad) keltiruvchi, foydalanuvchilar uchun qulayliklarni yaratuvchi aktivlardir".

Yuqoridagi iqtisodchi olimlarning bergan ta'riflaridan kelib chiqib nomoddiy aktivlar - tashkilot tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yohud ma'muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo'lmagan identifikatsiyalanuvchi mol-mulk obyektlaridir deb izohlasak bo'ladi.


Har qanday aktiv kabi, nomoddiy aktivlar obyekti ham tashkilotning nazorati ostida bo'lishi, iqtisodiy foyda keltirishi, xuddi alohida hisobga olish obyekti sifatida bir xilda identifikatsiyalanishi kerak. Nomoddiy aktivni nazorat qilish korxonalar mazkur aktivdan iqtisodiy foyda olish huquqiga va boshqalarning ushbu aktivdan foydalanish imkoniyatiga

ega bo'lgan hollardagina o'rinli bo'ladi. Agar korxonaning unga oid huquqlari yuridik jihatdan himoyalangan va majburan sud tartibida amalga oshirilishi mumkin bo'lgan hollardagina korxonada nomoddiy aktivdan foydalanishni nazorat qilib boradi.

Nomoddiy aktivlarning qiymati uzoq muddatli huquqlarda yoki ularning o'z egalari beradigan afzalliklaridan iboratdir. Nomoddiy aktivlarga patentlar, mualliflik huquqlari, savdo markalari, litsenziyalar, nou-xau, firma bahosini (gudvill) kiritishimiz mumkin.

Xodimlarning qo'shimcha iqtisodiy manfaatlar olishiga imkon beradigan, malakasini oshirish xarajatlari nomoddiy aktivlar sifatida tan olinishi mumkin emas, chunki korxonada ishlashni davom ettirish-ettirmasligini to'liq darajada nazorat qila olmaydi. Xodimlarning malakasini oshirish xarajatlari davrning joriy xarajatlari bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq nomoddiy aktivlarning asosiy turlari aniqlangan. Baholash nuqtayi nazaridan nomoddiy aktivlarga: moddiy-ashyoviy shaklga ega bo'lmagan, yoki ularning moddiy-ashyoviy shakli ulardan xo'jalik faoliyatida foydalanish uchun muhim ahamiyatga ega bo'lmagan; daromad keltirishga qodir bo'lgan; ulardan uzoq (bir yildan ortiq) davr mobaynida foydalanish maqsadida xarid qilingan aktivlarni kiritish mumkin. Nomoddiy aktivlarni to'rt asosiy guruhga bo'lish mumkin (3-rasm):



3-rasm. Nomoddiy aktivlar

Mulkiy huquqlar - yer uchastkalari, tabiiy resurslar, suv obyektlaridan foydalanish huquqi. Belgilangan shakldagi hujjatlar bunday huquqlarning tasdig'i bo'lib xizmat qiladi.

Kechiktirilgan yoki muddati cho'zilgan xarajatlar - tashkiliy xarajatlar (ta'sis hujjatlarini tuzganlik, firmani ro'yxatga olish bo'yicha xizmatlar ko'rsatganlik uchun huquqshunoslarga qalam haqi va h.k.) ko'rinishida namoyon etilgan chiqimlar, lekin barcha ushbu xarajatlar korxonani tashkil etishda amalga oshiriladi.

Firmaning narxi (gudvil) deganda uning ishbilarmonlik nufuzining qiymati tushuniladi. Gudvil faqat ortiqcha foyda mavjud bo'lgan hollarda ishtirok etadi va u faoliyat ko'rsatib turgan korxonadan ajratilishi mumkin emas.

Nomoddiy aktivlar ko'pincha ayrim materiallar tashuvchilarda, masalan, kompakt disklar yoki tasmada saqlanadi. Obyektning moddiy yoki nomoddiy aktivlar sirasiga kiritilishi qaysi bir element - moddiy yoki nomoddiy - muhim bo'lib hisoblanishi to'g'risidagi mulohazalar asosida amalga oshiriladi. Masalan, dastgohni boshqarish uchun dasturiy ta'minot asosiy vositalar tarkibida hisobga olinishi kerak. Materiallar tashuvchisi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lmagan joylarda, u odatda, nomoddiy aktiv sifatida hisobga olinadi. Kompyuterning undan ajralmaydigan operatsion dasturi kompyuter bilan yagona majmuada asosiy vositalar obyekti sifatida hisobga olinadi.

Nomoddiy aktivlarning eng ko'p tarqalgan turlariga batafsilroq to'xtalamiz.

Patent uning tutib turuvchisiga mazkur patent tomonidan qamrab olingan predmet, jarayon yoki faoliyat turidan foydalanish, ishlab chiqarish, sotish va nazorat qilish imkonini beruvchi qonunga muvofiq olingan huquq hisoblanadi.

Patentlar ma'lum vaqt oralig'iga, ilmiy texnika yangiliklarini ishlab chiquvchi yoki tatbiq etuvchi korxonalarga muayyan vaqt mobaynida ushbu faoliyat turi natijalaridan monopoli daromad olish imkonini berish maqsadida beriladi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi (IV bo'lim.

Intellektual mulk), O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonuni va Tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilish sohasidagi boshqa normativ hujjatlar bilan tartibga solinadi.

O'zbekiston tovar belgilarini huquqiy muhofazasiga tegishli bo'lgan quyidagi xalqaro shartnoma va bitimlar ishtirokchisi hisoblanadi:

- ✦ BIMT ta'sis etgan konvensiyalar;
- ✦ Sanoat mulkini muhofaza qilish bo'yicha Parij konvensiyasi;
- ✦ Belgilarni xalqaro ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi Madrid bitimiga doir Bayonnoma;
- ✦ Tovar belgilari bo'yicha qonunlar to'g'risidagi shartnomalar (TLT shartnomasi);
- ✦ Belgilarni ro'yxatdan o'tkazish uchun tovarlar va xizmatlarning Xalqaro tasnifi to'g'risidagi Nitssa bitimi.

Tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisi bu bir yuridik va jismoniy shaxslar tovarlari va xizmatlarini boshqa yuridik va jismoniy shaxslarning shu turdagi tovarlaridan farqlash uchun xizmat qiladigan, belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan belgilardir.

Tovar belgisi – ushbu tovardan foydalanishga mutlaq huquq kimga tegishli ekanligini, foyda olish va sifatsiz tovar yetkazib berilgani uchun zararni qoplash majburiyatini belgilab beradigan tovar mulkining alohida ramzi. Bu endi mualliflik belgisi ham emas, sotilayotgan tovarning xarakteri to'g'risidagi ma'lumot ham emas, tovar egasining intellektual mulki bo'lgan mavhumlashgan belgidir.

Tovar belgilari yakka tartibdagi va jamoaviy bo'lishi mumkin:

✦ alohida yuridik yoki jismoniy shaxsga tegishli tovar belgisi yakka tartibdagi belgi hisoblanadi.

✦ yuridik va jismoniy shaxslar birlashmasining ular tomonidan ishlab chiqariladigan va realizatsiya qilinadigan, bir xil sifatga yoki boshqa umumiy tavsiflarga ega bo'lgan tovarlarini belgilash uchun mo'ljallangan tovar belgisi jamoaviy belgi hisoblanadi.

Tasvirlar, so'zlar, muayyan shakl tarzidagi belgilar va boshqa belgilar yoki ularning istalgan bir rangdagi yoki turli rangdagi jamlama

ifodasi tovar belgilari sifatida ro'yxatdan o'tkazilishi mumkin. So'zli belgilarga so'zlar, so'z birikmalari, gaplar, tilning boshqa birliklari, shuningdek ularning birikmalari kiradi. So'zli tovar belgilari ancha ommabop, ular boshqa belgilar turlariga qaraganda ko'proq farqlash qobiliyatiga ega hisoblanadi. Ular ham eshitish, ham ko'rish orqali idrok etiladi, bu esa iste'molchiga ancha qulay. Tovar belgilari sifatida yaxlit ma'noli iboralardan, shuningdek sun'iy hosil bo'lgan (fantaziyali) so'zlardan foydalaniladi.

Tasviriy belgilarga jonli mavjudotlar, predmetlar, tabiiy va boshqa obyektlar tasvirlari va shuningdek chiziqlar, dog'lar, har qanday figuralarning tekislikdagi kompozitsiyalari kiradi.

Hajmli belgilarga uch o'lchamli obyektlar, figuralar va chiziqlar, figuralarning kombinatsiyalari kiradi.

Jamlama belgilarga turli xarakterdagi kombinatsiyalar kiradi: tasviriy, so'zli, muayyan shakldagi hajmli va boshqalar. Jamlama belgilarning turlari ichimliklar, dori preparatlari uchun etiketkalar, konfet, pechenelar uchun o'rama qog'ozlar va boshqalar hisoblanadi.

Boshqa belgilarga raqamli, harfiy, tovushli, yorug'likdan iborat bo'lgan, hidli va boshqa belgilar kiradi. Raqamli belgilarga raqamli ramzlarning kombinatsiyalari kiradi.

O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovarlarning kelib chiqish joylarining nomlari to'g'risida"gi qonuniga binoan tovar belgisining egasi litsenziya shartnomasi bo'yicha boshqa shaxsga tovar belgisidan foydalanish huquqini berishi mumkin. Tovar belgisiga tannarx huquq, berilishi ham mumkin. Bunda litsenziya shartnomasida litsenziatning tovarlari sifati litsenziyalari, u nazorat qilib turmoqchi bo'lgan tovarlari sifatidan past bo'lmasligi to'g'risidagi shart keltirilishi kerak.

Franchayzing - bir korxonadan boshqasiga unga tegishli bo'lgan aktivlardan, shu jumladan nomoddiy aktivlardan, xuddi savdo markalari va nomlari kabi foydalanishga oid huquqlarining berilishi, qolaversa, bu kabi berishning majburiy sharti bo'lib, ushbu aktivlardan bevosita o'z maqsadi bo'yicha foydalanish va taqdim etiladigan

xizmatlarga (tovarlarga) bo'lgan ma'lum bir sifat standartlariga rioya qilinishi hisoblanadi.

Korxonaning franchayzing huquqlarini olishga oid boshlang'ich xarajatlar kapitallashtiriladi va ular berilgan muddat davomida amortizatsiyalanadi.

Franchayzing huquqlari xaridorining ularning sotuvchisiga bo'lgan joriy to'lovlari (masalan, reklama, texnik va boshqa xil qo'llab-quvvatlash uchun) kapitallashtirilmaydi, balki joriy xarajatlarga kiritiladi.

Franchayzing huquqlariga egalik qilish iqtisodiy tomondan foydasiz bo'lib chiqqan vaziyatlarda ushbu huquqlarga oid xarajatlarning aynan aktiv qiymatining yo'qotilishi (asosiy vositalarga o'xshab) sifatida hisobdan chiqarilishi kerak.

Dasturiy ta'minot. Kompyuterlar uchun dasturiy ta'minotning barpo qilish xarajatlarini hisobga olishda eng muhim masala qaysi xarajatlar kapitallashtiriladi, qaysilari yo'qligida hisoblanadi. Milliy standartlarda bunga javob yo'qligi sababli xalqaro standartlarga murojaat qilamiz. Buxgalteriya hisobi xalqaro amaliyotida kompaniyalarning ichki foydalanish uchun dasturiy ta'minotni ishlab chiqish xarajatlari (ya'ni, realizatsiya qilish uchun mo'ljallanmagan), yuqoridagiga ko'ra, ular yuzaga kelishining borishiga qarab joriy davr xarajatlariga kiritiladi. Sotish yoki ijara uchun mo'ljallangan dasturiy mahsulotni barpo qilishga oid texnik imkoniyatni belgilashga oid barcha xarajatlar tatbiq qilish va ishlab chiqish xarajatlari hisoblanadi, ular yuzaga kelishiga qarab joriy davr xarajatlari tarkibiga kiritiladi. Dasturiy mahsulotning birinchi ko'chirma nusxasini barpo qilishga oid xarajatlar esa kapitallashtirilishi kerak. Ushbu xarajatlar o'z ichiga dasturiy mahsulotning yozilishi va testdan o'tkazilishiga oid xarajatlarni oladi. Kompaniyalarning dasturiy mahsulotga bo'lgan o'z huquqlarini rasmiylashtirish va himoyalash bo'yicha xarajatlari ham kapitallashtiriladi.

Mualliflik huquqlari ilm-fan, adabiyot va san'at sohasidagi asarlar mualliflarining o'z asarlarini ko'paytirishga oid qonun bilan kafolatlangan huquqlari hisoblanadi.

Mualliflik huquqlari oldi-sotdi yoki boshqa shaxsga vaqtinchalik berish obyekti bo'lib hisoblanadi. "Mualliflik huquqlari" NAlar boshlang'ich qiymati haqiqatda amalga oshirilgan xarajatlar bo'yicha aniqlanadi, amortizatsiya esa uning yuridik amal qilish muddatiga, muvofiq yo kompaniyaning faoliyati muddatiga, ularning qaysi biri qisqaroq bo'lishiga qarab, amalga oshiriladi.

Tashkiliy xarajatlar - korxonada faoliyatini tashkil qilish bilan bog'liq xarajatlar (yuridik rasmiylashtirish va maslahatlar, ro'yxatdan o'tkazish, tarjimon, devonxona xizmatlari va hokazo). Ushbu xarajatlar kapitallashtirilishi mumkin, ularni kapitallashtirish uchun asos bo'lib ularning bir necha davrga tatbiq etilishi va kelgusida foyda olishga imkon berishi hisoblanadi.

Tashkiliy xarajatlar odatda ixtiyoriy tanlangan, 5 yildan oshmaydigan qisqa muddatga amortizatsiyalanadi. Shuni ta'kidlash lozimki, ko'p mamlakatlarda tashkiliy xarajatlar uzoq muddatli nomoddiy aktivlarga kiritilmaydi, balki uning kelib tushishiga qarab darhol sotishdan tushgan tushum hisobidan qoplanadi.

Gudvil yoki firmaning bahosi, korxonani sotib olish vaqtida yuzaga keladi va o'zida sotib olinayotgan korxonada uchun to'lanayotgan narx bilan uning sof (majburiyatlar chegirilgan holdagi) aktivlarining baholash (bozor) qiymati o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

Gudvilning yuzaga kelish sabablari juda ham turli-tuman bo'lishi mumkin. Ular orasidan eng tavsiflilari qatorida, odatda, g'oyatda samarali reklama siyosati, alohida ta'sirchan sotish tizimi, raqobatchilardan ustun turuvchi boshqaruvchilar komandasining mavjudligi, kompaniya ishining qulay yoki imtiyozli me'yoriy-huquqiy rejimi va soliqqa tortish shartlari, raqobatchilar foydalana olmaydigan ishlab chiqarish sirlaridan foydalanish, xodimlarni kasbga tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga oid noyob dasturni amalga oshirish, mahsulot yetkazib beruvchilar bilan barqaror, samarali va ishonchli aloqalarning mavjudligi va ko'pgina boshqa omillarni keltiradilar. Ushbu omillarning sanab o'tilishi gudvil korxonaning butun faoliyati davomida amal qilishi, biroq faqat uning sotilishi chog'idagina aks ettirilishi to'g'risida guvohlik beradi, chunki faqat shu holatdagina

uni obyektiv axborot firma sotib olinayotgan narx asosida baholash imkoniyati mavjud bo'ladi.

Intellektual mulk obyektlarini tasdiqlovchi hujjatlar: patent, litsenziyalar, guvohnomalar, mulkiy huquqlarni korxonaning ustav sarmoyalariga o'tkazish haqidagi ta'sis hujjatlari, korxonada va intellektual mulk obyektlarining ishlab chiquvchilari o'rtasidagi shartnomalar yoki mualliflik shartnomalari, intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar bepul topshirilishida qabul qilish-topshirish dalolatnomalarini tekshirish zarur. Ushbu mulkdan nomoddiy aktiv sifatida foydalanuvchi korxonada uni foydalanishga topshirish va hisobga olish haqidagi dalolatnoma bo'lishi kerak. Patentni to'liq o'tkazish bo'yicha rasmiy ro'yxatga olinmagan shartnomalar, shuningdek rasmiy ro'yxatga olinmagan litsenziya shartnomalari haqiqiy emas deb tan olinadi. Mazkur mulkni ustav sarmoyasiga ulush sifatida kiritishda ta'sis shartnomasi bilan bir qatorda bir vaqtning o'zida huquqni o'tkazish to'g'risida litsenziya shartnomasi tuzilishi lozim. Intellektual mulkka bo'lgan huquq ekspertizasi o'tkazilganidan so'ng bevosita baholash hisob-kitoblariga kirishish mumkin.

1.2. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari

Patentli texnologiyalar va boshqa intellektual mulk obyektlarining qiymatini baholash ko'pgina kitoblar va maqolalarda muhokama qilingan bo'lsada, lekin hamon amaliyotda shunday vaziyatlar bo'ladiki, bunday baholashni chuqur o'rganish zarur bo'lib qoladi. Shu bilan birga, bunday baholashda juda murakkab masalalar bo'lib, ko'plab muammolar hali ham o'z yechimini topishga ulgurmagan. Ushbu qismda intellektual mulkni baholash jarayonida ta'sir etadigan omillar ko'rib chiqiladi, intellektual mulkni baholashda duch kelinadigan muammolar aniqlanadi.

Intellektual mulkni baholash jarayonida ("intellektual mulk" atamasi, asosan, texnologik aktivlarga nisbatan ishlatiladi), shuni ta'kidlash mumkinki, fundamental texnologiya boshqa

texnologiyalarning asosi bo'lib xizmat qiladi yoki u mavjud bo'lgan texnologiyani rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu yerda baholash texnologiyani o'ziga xos xususiyatlari e'tiborga olinadi va shu sababli sifatli baholash deb tasniflanadi. Biroq, texnologiya tayinlangan paytda to'lanishi kerak bo'lgan to'lov, texnologiya litsenziyalangan paytda to'lanishi kerak bo'lgan royalti va kompaniya tomonidan boshqaruvchi aktiv sifatida texnologiyani sotib olayotgan vaqtda pul mablag'lari bilan bog'liq bo'lgan vaziyatlar mavjud bo'ladiki, bunday vaziyatlarda texnologiyaning qiymatini pul miqdori jihatidan baholab ko'rsatilishi lozim. Intellektual mulkni bunday pul qiymati asosida baholashni **miqdoriy baholash** deb atash mumkin.

Shunday qilib, "baholash" atamasi kamida ikkita natijaga ega: sifatli va miqdoriy. Biz bundan keyin e'tiborimizni miqdoriy baholashga qaratamiz hamda uning mohiyatini aniqlab, bu borada duch kelinadigan muammolar qanday hal qilinishi haqida batafsil to'xtalamiz. Shuni ta'kidlash joizki, hatto miqdoriy baholash amalga oshirilsa ham, texnologiyani sifat jihatdan baholash natijalariga ham katta e'tibor beriladi. Masalan, agar fundamental texnologiya va takomillashtirish texnologiyasi to'g'risida gap ketganda, ular ikkovining miqdoriy baholash natijalari doimo farqlanishi kerak. Shuningdek, sifat jihatidan va miqdor jihatdan baholash natijalarini bir-biri bilan bog'lashda intellektual mulkning sifatli xususiyatlarini qanday qilib miqdoriy baholash bilan bog'lab aniqlash mumkinligi borasida yangi murakkab masala paydo bo'ladi.

Turli hisobotlarda miqdoriy baholash usullari allaqachon aniqlangan bo'lsada, biz intellektual mulkni miqdoriy baholash usullarini qisqa va lo'nda tarzda umumlashtirib o'tamiz.

Quyida keltirilgan uchta asosiy yondashuv intellektual mulk qiymatini baholashda qo'llaniladigan yondashuvlar hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar shuningdek, ko'chmas mulk qiymatini baholashga ham tegishlidir:

- a. Xarajat yondashuvi;
- b. Qiyosiy yondashuv;
- v. Daromad yondashuvi.

Yuqoridagilarga qo‘shimcha o‘laroq, “Real Opsion yondashuvi” ham boshqa hisobotlarda joriy qilinadi. Ushbu yondashuv kelajakda aktivni ekspluatatsiya qilishning turli xil potensial shakllari mavjudligi va aktivning egasi (yoki aktivning potensial egasi) bunday shakllardan birini tanlash huquqiga ega ekanligiga asoslanadi. Ushbu tushunchaga muvofiq, aktiv egasi uchun intellektual mulkning kelajakdagi turli variantlardagi qiymatlari baholanadi. Patentli texnologiyalar bog‘liq bo‘lgan variantlar 2 xil hisoblanadi: uni sotib olish yoki sotib olmaslikdir. Moliya nazariyasida aktivning kelajakdagi qiymatini sotib olish varianti “Call option” (koll opsion) deyiladi.

“Real Opsion yondashuvi” ning bir afzalligi, bu maxsus formula asosida baholanayotgan obyekt qiymatini baholash mumkin, deb hisoblanadi.

Ushbu yondashuvning salbiy jihati shundaki, samarali baholashni ta‘minlash uchun asosiy aktivning qiymati bo‘yicha maxsus to‘plangan ma‘lumotlarni (boshqacha aytganda, patentlangan texnologiyalarning o‘zini bozor bahosini) talab qiladi. Aksariyat hollarda bu masala bo‘yicha maxsus konsalting firmasining xizmatidan foydalaniladi. Ushbu murakkabliklarni hisobga olgan holda, ushbu baholash usulidan baholash amaliyotida kamdan kam foydalaniladi.

Yuqorida qayd etilgan xarajat, qiyosiy va daromad yondashuvlari maxsus ma‘lumotlarni to‘plashni talab etmaydi va odatda mavjud bo‘lgan ma‘lumotlardan foydalanib, amalda qo‘llash mumkin bo‘lgan natijalarni beradi. Tabiiyki, uch xil yondashuv asosida baholash uchun zarur bo‘lgan ma‘lumotlar mavjud bo‘lmasligi holatlari ham bo‘lib turadi. Ana shunday holatlarda ham baholovchi o‘z taxminlari va prognozlariga asoslangan holda ma‘lumotni shakllantirib, kerakli natijaga erishishi mumkin.

Har qanday holatda ham, ushbu uch baholash uslublarini (yondashuvlarni) amalda tatbiq etish jarayonida ularning afzalliklari va kamchiliklari to‘g‘risida aniq tasavvurga ega bo‘lish muhim hisoblanadi.

Qayd etilgan uch yondashuvlarning mazmuni quyida qisqacha berilgan.

Xarajat yondashuvi. Ushbu yondashuv aktivni (masalan, texnologiyani) sotib olish yoki ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan xarajatlar orqali qiymatni aniqlash usullariga asoslanadi. Xarajat yondashuvi doirasida "Tarixiy xarajat yondashuvi" deb nomlangan usul mavjud bo'lib, bu o'tgan vaqt mobaynida aktivga qancha pul sarflanganligi nuqtayi nazaridan aktivning qiymatini o'tgan davrda qilingan xarajatlar talabi asosida baholaydi. Xarajat yondashuviga kiruvchi boshqa usul esa, "Almashtirish (o'zgartirish) bo'yicha xarajat yondashuvi" deb nomlanib, ushbu usulda ishlab chiqilgan yoki sotib olingan texnologiyani "agar almashtirish uchun mablag' kerak bo'lsa, bugun qancha pul talab qilinadi", degan nazariy xarajatlar talablari asosida qiymat hisoblab chiqiladi.

"Tarixiy xarajat yondashuvi" obyektini sotib olish yoki yaratish uchun "hozirgi kunga qadar" talab qilingan xarajatlar asosida baholashni amalga oshirsa, aksincha, "Almashtirish (o'zgartirish) bo'yicha xarajat yondashuvi" hozirgi vaqtda mavjud bo'lgan obyektga ekvivalentini qayta sotib olish uchun talab qilinishi mumkin bo'lgan xarajatlar asosida baholashni nazarda tutadi. Birinchi usul obyekt qiymatini baholashda o'tgan davrda hisoblangan xarajatlarga va ikkinchi usul esa, hozirgi vaqtda qabul qilingan xarajatlarga asoslanib bir-biridan farqlansa, ularning o'xshashlik tomoni bu ikki usulda ham aktivni baholash uchun asos sifatida sotib olish xarajatlaridan foydalaniladi. Aktivni sotib olish qiymatiga asoslangan holda baholash aktivning egasi (yoki potensial egasi)ning xohishiga ko'ra amalga oshiriladi, chunki talab qilinadigan xarajatlar baholash qiymatida aks ettiriladi.

Ammo, xarajat yondashuvining bu yerda salbiy tavsifga ega bo'lishi u aktivning barcha jihatlarini to'liq ochib bermaydi (to'liq baholamaydi), chunki bu yerda ko'rsatilgan qiymat aktivning passiv qiymati bo'lib, ushbu aktivning kelajakda keltirishi mumkin bo'lgan daromadini, ya'ni ijobiy qiymatni aks ettirmaydi.

Xarajat yondashuvi asosida aktivlar qiymatini baholash usullaridan amaliyotda qo'llanilgan holatlar quyidagi misollarda keltirilgan:

✦ mahsulotni sotish narxini mahsulot tannarxi va narxlash usuli qo'shilmasida aniqlash;

✚qurilish ishlari uchun shartnoma to'lovini belgilash;

✚tashqi manbalaridan dasturiy ta'minot ishlab chiqish uchun rivojlanish bosqichlari soniga qarab belgilanadigan to'lovini belgilash.

Qiyosiy yondashuvda baholayotgan obyekt qiymati aslida sotiladigan (bitimlarda ifodalangan) obyekt qiymati bilan taqqoslanadi va bitim baholarini ushbu obyektning baholash uchun asos sifatida ishlatiladi.

Taqqoslanayotgan hollardagi bitimning bahosi – bu baholash obyektiga qiyoslanayotgan aktivning hozirgi paytdagi sotish qiymati hisoblanadi va shundan kelib chiqib, baholanayotgan obyektning eng ehtimoli ko'proq bo'lgan qiymati, deb hisoblanadi. Buning sababi, aktivning bozorda sotish narxi uning baholangan qiymatida aks etadi, ya'ni sotib olish uchun sarflangan xarajatlarni hisobga olgan holda, aktivning kelajakda keltiradigan potensial daromadlarini va boshqa qo'shimcha omillarni hisoblagandagi baholash natijasi, deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, aktivning aslida ushbu narx bo'yicha savdo qilinishi narxning ushbu obyektning kafolatlangan qiymatini aks ettiruvchi dalillar sifatida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda qiyosiy yondashuv aktivlarning qiymati haqqoniy baholanganligi sababli, iqtisodiy bitimlarni amalga oshirishda eng xavfsiz hisoblanadi.

Qiyosiy yondashuv asosida aktivlar qiymatini baholash usullaridan amaliyotda qo'llanilgan holatlar quyidagi misollarda keltirilgan:

✚Yaponiya hududida yer uchastkasini baholash;

✚bir muntazam tashkil qilinadigan mahsulotning narxini belgilash (masalan, PET-idish ichimliklari);

✚Patent uchun royalti stavkasini belgilash va h.k.

Shunday bir holatni qiyosiy yondashuv sifatida tasniflash mumkin, ya'ni, baholanayotgan texnologiyadan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotni ushbu texnologiyadan foydalanmasdan turib ishlab chiqarilgan mahsulot bilan taqqoslanadi va bunda mahsulot narxi va daromadlilik darajasi jihatidan qiyoslash yo'li bilan baholanadi. Ushbu yondashuv texnologiyadan foydalanish yoki undan foydalanmaslik jihatidan taqqoslashda kuzatilgan farqlarga olib kelishi mumkinligini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv baholanayotgan

kompaniyaning qimmatli qog'ozlar narxiga va daromadlilik darajasiga qo'shimcha sifatida taqqoslanadigan qiymatga asoslangan holda, korxonalar qiymati va biznes qiymati jihatidan solishtirganda foydalidir. Ushbu yondashuvdan shuningdek, ushbu kompaniyani taqqoslash mumkin bo'lgan kompaniyalar uchun ROE ("return on investment" investitsiyalarning rentabelligi) va boshqa investitsion ko'rsatkichlarga asoslanib, turli kompaniyadan turli xil ko'rsatkichlar bo'yicha, masalan, foyda va rentabellik darajasini aniqlash orqali baholay olganda qo'llanilishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, intellektual mulkning o'zini bitim narxini belgilash qiyin bo'lgan sharoitda, lekin solishtirish mumkin bo'lgan kompaniyalar mavjud bo'lsa, siz ushbu taqqoslanayotgan kompaniyalarning qiyosiy tahlillarini o'tkazishingiz va texnologiyani baholash uchun amaliy foydalanilish mumkin bo'lgan ma'lumotlarni olishingiz mumkin va hokazo. Shu nuqtayi nazardan, ushbu yondashuvni xarajat yondashuvi, degandan ko'ra "Biznes ko'rsatkichi yondashuvi" deb nomlash mumkin.

Xarajat yondashuvining afzallik tomoni shundan iboratki, bu yondashuv asosidagi baholash natijalarini ishonchli deb hisoblash mumkin, chunki yuqorida qayd etib o'tganimizdek, bunday baholash hozirda mavjud aktivlarning baholash qiymatlariga va texnologiyani qo'llash orqali erishilgan haqiqiy iqtisodiy foydalarga (masalan, daromadlilik darajasidagi farqlarga) va hokazolarga asoslanadi. Biroq, odatda, texnologiya yoki boshqa intellektual mulkni baholashda mos kelishi mumkin bo'lgan taqqoslash uchun kam ma'lumotlar bo'lishi yoki ma'lumotlarning yetishmasligi kuzatiladi va bu esa, ushbu yondashuvning jiddiy kamchiligi hisoblanadi. Taqqoslash uchun ma'lumotlarni yetishmasligining sababi, texnologiyaga doir bitimlar bilan bog'liq ma'lumotlar va shu kabi axborotlar ko'pincha tomonlar o'rtasida maxfiy axborot sifatida ko'rib chiqiladi va tashqi tashkilotlarga oshkor qilinmaydi.

Bu biznes indeksining yondashuviga ham to'g'ri keladi, chunki har qanday sohadagi baholanayotgan biznes subyektiga o'xshash bo'lgan kompaniyalarni topish juda qiyin bo'lishi mumkin. Ushbu sabablarga

ko'ra, qiyosiy yondashuv odatda baholash natijalari ishonchli deb bo'lsada, amaliyotga tatbiq qilish qiyin hisoblanadi.

Daromad yondashuvidan foydalanib aktivning qiymatini baholashda tadbirkorlik faoliyati kabi maqsadlar uchun ishlatish yo'li bilan aktivdan kutilgan daromadlar darajasiga qarab baholanadi. "Daromad" tushunchasiga tushum (sotuvlar), turli xil foyda kabi tushunchalar yaqin bo'lib, shu bilan birga, kirimni ifodalovchi atama sifatida eng ko'p qo'llaniladigan "pul oqimlari" kabi tushunchani ham anglatadi. Daromad tushunchasi ko'plab misollarda, shu jumladan, soliq to'lagandan keyingi sof foyda, yalpi tushum va operatsion foyda kabilarda ham ishlatilishi mumkin, ammo odatiy baholash amaliyotida pul oqimi aniq daromad sifatida ishlatiladi.

Buning sababi, pul oqimlari ko'rinishidagi daromad konsepsiyasi diskontlash konsepsiyasi bilan eng mos keladi va diskontlashning ma'nosi, kelajakdagi daromadni diskont stavkasi orqali joriy qiymatga keltirish hisoblanadi. Hisob-kitoblarni amalga oshirishda daromad kompaniyaga tushgan paytni (momentini) hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi. Daromad buxgalteriya hisobi bo'yicha hisoblab chiqilgan yilga nisbatan emas, balki kompaniyaga pul oqimlarining haqiqiy kelib tushgan davriga ko'ra hisoblanganda, kompaniya daromadining joriy qiymati aniqroq va haqqoniy tarzda hisoblab chiqish mumkin bo'ladi.

Bir necha yillar mobaynida kumulyatsiya qilingan (yig'ilgan) soliq to'lagandan keyingi daromadlar odatda, o'sha davr uchun kumulyatsiya qilingan pul oqimlariga deyarli teng miqdor hosil qilib, farqi unchalik bilinmasada, lekin bu farqlar yilma-yil taqqoslanganda juda katta bo'ladi. Buning sababi, daromad kompaniyaning haqiqiy pul oqimini aks ettirmaydi, lekin kompaniyaning haqiqiy ish faoliyatini to'g'ri tushunish uchun qo'llaniladigan buxgalteriya qoidalariga muvofiq hisoblab chiqiladi. Buxgalteriya qoidalariga rioya qilish paytida daromad miqdori tegishli pul oqimi miqdoridan chetga chiqishga intiladi.

Daromad yondashuvi asosida aktivlar qiymatini baholash usullaridan amaliyotda qo'llanilgan holatlar quyidagi misollarda keltirilgan:

- ✚ Aksiya bahosini yoki ulushning bozor qiymatini baholash;
- ✚ M & A-da sotib olinadigan kompaniyaning baholanishi;
- ✚ AQSH tomonidan vakolatlangan ko'plab davlatlardagi yer uchastkasini yoki boshqa mol-mulkni baholash.

Daromad yondashuvi aktivning ijobiy qiymatiga yoki daromad keltirish qobiliyatiga yo'naltirilgan. Bu iqtisodiy jihatdan eng maqbul baholash usuli hisoblanib, aktivlarni sotib olish jarayonida tuzilgan bitimlarni baholash jarayonida haqqoniy asosni yaratishga imkoniyat beradi.

Yuqorida tavsiflangan uchta baholash yondashuvlarining o'ziga xos afzalligi va kamchiliklari mavjud. Quyidagi bo'limlarda ayrim tushunchalar yuqorida qayd etib o'tilgan bo'lishiga qaramasdan, har bir yondashuvning yutuq va kamchiliklari batafsil bayon etilgan.

Xarajat yondashuvida, xususan "Tarixiy xarajat yondashuvida", natijalarni baholash jarayoni kim tomonidan amalga oshirilsa ham baribir bir xil, o'xshash natijalar olinadi, chunki avval amalga oshirilgan xarajatlarga doir ma'lumotlar obyektiv materiallardan olinganligi sabab bo'ladi. Obyektiv ma'lumotlardan olinganligi sababli, baholash natijalari ham subyektiv bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi.

Faraz qiliylik, biror shaxs xarajat yondashuvi usullari asosida aniqlangan biror qiymatga teng aktivni masalan, texnologiyani sotmoqchi. Texnologiyani sotish narxi sotuvchiga maqbul bo'ldi. Biroq, aktivning egasi (yoki aktivni sotib oluvchi) ushbu belgilangan qiymatni qoplashni oqlaydigan imtiyozlarni olish imkoniyatiga ega bo'lishiga kafolat yo'q. Texnologiyaning huquqiy vorisi yoki uning potensial sotib oluvchisi nuqtayi nazaridan, aktivni sotib olish uchun talab qilinadigan haq, haqiqatan ham, aktivning iqtisodiy qiymatiga mos kelishiga shubha tug'dirishi mumkin. Potensial vakolatli shaxs aktiv (masalan, texnologiya), uning sotib olish narxini oqlaydigan qiymatni (ya'ni, daromadni) yaratishini tasdiqlay olmas ekan, bu yondashuv asosida olingan natijalarni e'tirozsiz qabul qila olmaydi. Xarajat yondashuvida

aktivning daromad keltirishi hisobga olinmaydi va shuning uchun aktivning qiymati ifodalangan bitimning muvaffaqiyatli yakunlanishini ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelinadi. Bu yondashuvning juda katta kamchiligi hisoblanadi.

Qiyosiy yondashuv dalillarga asoslangan, haqiqatda aktivlar sotilishi kerak bo'lgan qiymatni ifodalaydi. Yondashuvning ushbu tavsifi bu usullar yordamida hosil qilingan qiymat xavfsizlik va ishonchlilik taassurotini beradi. Aktivning egasi ushbu aktivni sotib olib, uchinchi tomonga o'zi to'lagan narxda sotishi mumkinligiga ishonch hosil qilishi mumkin. Bu ushbu baholash yondashuvining afzalligi hisoblanadi.

Biroq, xususan, texnologik aktiv bo'lsa, solishtirish mumkin bo'lgan texnologiyaga doir bitimlar haqida kam ma'lumot bo'ladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, texnologiyalarga doir bitimlarga qo'shimcha tomonlar o'rtasida axborotni oshkor qilmaslik shartnomalari tuziladi va bunday bitimlarning mazmuni, shu jumladan bitim narxi va boshqa shartlar - odatda uchinchi tomonlarga oshkor qilinmaydi. Shuning uchun ham, qiyosiy yondashuv usuli siz xohlagan paytingizda ham qo'llay olmaydigan usul bo'lib hisoblanadi. Baholanayotgan kompaniyani ko'rsatkichlari bo'yicha taqqoslanadigan boshqa kompaniya topilmasa, biznes-indeksni topishda xuddi shu holat yuzaga keladi, ya'ni ushbu yondashuvdan foydalana olmaymiz. Baholanayotgan kompaniya bilan solishtirish mumkin bo'lgan, (masalan, muayyan texnologiyaning mavjudligi yoki yo'qligi bundan mustasno) barcha jihatlarida aynan o'xshash bo'lgan kompaniyalar topilishi deyarli mumkin emas. Qiyoslash uchun o'xshash aktiv yoki kompaniyaning topilmasligi ushbu yondashuv bilan bog'liq asosiy muammo hisoblanadi.

Ushbu yondashuv, xarajat yondashuvining kamchiligini bartaraf etishi bilan foydali hisoblanadi. Xususan, daromad yondashuvi potensial daromadiga qarab texnologik aktiv qiymatini baholaydi. Ushbu yondashuv qo'llanilganda, aktivning potensial huquqiy egasi, ushbu baholash usuli yordamida olingan natijalar asosida ikkilanmay shartnoma tuzadi.

Ushbu yondashuv bilan bog‘liq muammo kelajakdagi daromadlarni prognoz qilishni talab qiladi. Taxminlarga asoslangan baholash natijalari kutilgandek amalga oshirilishiga hech qanday kafolat yo‘qligi, bu albatta muammodir. Yana bir muammo shundaki, prognoz qilinayotgan daromad baholovchining subyektiv qarashlariga bog‘liq bo‘lgan taxminlarni belgilashni talab qiladi. Baholash natijalarining obyektivligini ta‘minlashning oson bo‘lmasligi ushbu daromad yondashuvining kamchiligi hisoblanadi.

Baholashning ushbu yondashuvini qo‘llaganda baholash natijalarining obyektivligini ta‘minlash uchun foydali bo‘lgan turli xil ma‘lumotlarni to‘plash bo‘yicha qat‘iy harakatlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

4-rasmda yuqorida tavsiflangan har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklari haqida qisqacha ma‘lumot berilgan.

Miqdoriy baholash usullarining asosiy afzalliklari va kamchiliklari
(1) Xarajat yondashuvi Baholash uchun obyektiv ma‘lumotlardan foydalaniladi, ammo texnologiyaning daromad keltirish qobiliyati hisobga olinmaydi.
(2) Qiyosiy yondashuv Baholash natijalari bitimlar asosida kafolatlanadi, ammo ma‘lumotlarning yetishmasligi yoki topilmasligi mumkin.
(3) Daromad yondashuvi Texnologiyaning daromad keltirish qobiliyati hisobga olinadi, ammo kelgusi daromadlarni prognozlash juda mushkul hamda ko‘pincha subyektiv qarorni anglatadi.

4-rasm. Miqdoriy baholash usullarining asosiy afzalliklari va kamchiliklari²

² Dr. Yasuyuki ISHII. Valuation of Intellectual Property. Japan Patent Office Asia - Pacific Industrial Property Center, Japan Institute for Promoting Invention and Innovation 22-p, ©2017

Uchta baholash yondashuvlari orasida aktivlarni baholash uchun xalqaro standart sifatida murakkab kelgusi bashoratlarni talab qilinishiga qaramay, daromad yondashuvidan keng foydalaniladi.

Daromad yondashuvi Global Standart Baholash metodi deb ham ataladi. Hozirgi kunga kelib, ushbu yondashuv aktivlarni standart baholash yondashuvi sifatida keng qo'llanilib, fundamental baholash usuli sifatida ham mavjuddir.

Shuni e'tiborga olish kerakki, baholashning o'zi, sifat jihatdan baholanadimi yoki miqdor jihatdanmi, bor yo'g'i insonning subyektiv harakati hisoblanadi. Boshqacha aytganda, baholash natijalarida mutlaq obyektivlikni izlash mutlaqo ma'nosizdir.

Masalan, faraz qilaylik, bir PET-idish ichimligi 130 iyenaga sotiladi. Yaponiyada ichimlikning umumiy qiymatiga ko'ra uning narxi belgilanadi, deb ishoniladi. Biroq, bu tushunmovchilik. Masalan, boshqa misolimizda, ichimlik suvi olish qiyin bo'lgan juda katta cho'lli mamlakatda o'sha PET-idish ichimligini 130 iyena sotilishi haqiqatda shubhali. Negaki, yuqori talab va kam ta'minlanganlik sharoitida, PET-idish ichimligi hatto 1000 iyenaga sotilishi ham mumkin. Yana bir misolda beysbol o'yinining ajoyib nazoratchisi (pitcheri) hech qachon Butan qirolligida million dollarlik beysbolchi bo'la olmaydi, chunki u yerda millatning qadr-qimmatini Yalpi Milliy baxt indeksiga asoslanib o'lchanadi. Bu yerda faqat milliy boylikning turli darajalari emas, balki baholashning asosini tashkil etuvchi subyektivlik tuyg'usi (qiymatlar tuyg'usi) ham bor.

Baholashning predmeti bir xil mahsulot yoki xizmat bo'lsa ham, baholash natijalari baholovchi tomonidan qo'llaniladigan subyektivlik va taxminlar, atrof-muhit sharoitlari va baholash uchun zarur shart-sharoitlarining o'zgarishiga qarab turli xil bo'lishi mumkin.

U holda, baholash usuli yordamida texnologiya va boshqa aktivlar qiymatini baholash shart emas ekanda? Yo'q, unday emas.

Baholash natijalari bo'yicha "kelishuv"(konsensus) ni shakllantirish asosan har xil baholash uslublarini qo'llash, imkoni boricha ixtiyoriylikni minimallashtirishga imkon beradigan obyektiv axborot to'plash va baholash natijalariga qiziqqan manfaatdor tomonlarning

2005-yilda Trust Business Actga kiritilgan o'zgartirish natijasida Yaponiyada intellektual mulk obyektlariga intellektual mulk kiritilganidan so'ng, bir qancha kompaniyalar o'zlarini ishonchli korxonalar operatorlari sifatida ro'yxatdan o'tkazishdi va intellektual mulk bo'yicha ishonch egalari orqali intellektual mulkni tugatish xizmatini taqdim etdilar. Biroq, bu kompaniyalarning barchasi AQSHda paydo bo'ladigan kredit muammolari tufayli bankrot bo'lgan. Hozirda intellektual mulkka asoslangan fondlarni jalb qilish bo'yicha ish olib borayotgan kompaniyalar yo'q.

Yuqorida aytib o'tilganidek, investitsiya faoliyati amalga oshirilganda, investitsiyalashtiriladigan intellektual mulkning iqtisodiy qiymatini baholash va shu asosda qo'lga kiritilgan baholash qiymatidan foydalanib, investitsiyalar hajmini aniqlash kerak. Shunga qaramay, intellektual mulk investitsiyalarni moliyaviy maqsadlarda qanday amalga oshirilayotganligi jihatidan AQSH va Yaponiya o'rtasida jiddiy farq borligini ta'kidlash lozim.

Yaponiyada ko'pchilik investitsiya qarorlari intellektual mulkning o'zlari uchun qadrlanadi; yoki intellektual mulkka asoslangan korxonalar kelajakda olinadigan daromadlar uchun qadrlanadi. AQSHda deyarli barcha sarmoyalar intellektual mulk sohasidagi royalti kreditlarida amalga oshiriladi. Royaltidagi kreditlarga investitsiyalar royalti daromadlarining kutilgandagi investitsiyalarni nazarda tutadi, bu yerda kutilayotgan intellektual mulkning o'tgan davrda litsenziyalanganligi va royalti daromadlarini ishlab chiqarishning yaxshi ko'rsatkichi bo'lganligi sababli oqlanadi; yoki litsenziyalash va royalti daromadini ko'paytirish ehtimoli juda katta. Intellektual mulkning

litsenziyalash bo'yicha yaxshi rekordi mavjud bo'lgan hollarda, royalti miqdori bo'yicha tarixiy ma'lumotlar mavjud bo'lishi kerak. Intellektual mulk litsenziyalash ehtimoli yuqori bo'lgan hollarda potentsial royalti miqdori darajasini taxmin qilish osonroq bo'lishi kerak.

Aksincha, agar Yaponiyada bo'lgan intellektual mulkning kelajakda ishlash qobiliyatiga investitsiyalar kiritilgan bo'lsa, intellektual mulkka asoslangan biznesning kelajakdagi holatini taxmin qilish kerak.

Boshqacha aytganda, AQSH va Yaponiya o'rtasidagi farq, birinchi mamlakat asosan intellektual mulk aktivlariga ("aktiv moliyalashtirish" deb nomlanadi) investitsiya qiladi, ikkinchisi asosan biznes faoliyatini ("loyiha moliyasi" deb nomlanadi) investitsiyalashtiradi.

Agar royalti krediti bilan qo'llab-quvvatlanadigan aktivlarni moliyalashtiradigan investitsiyalar bo'lsa, litsenzion kompaniyani o'z biznesining barqarorligi bilan birga to'lashga rozi bo'lgan mavjud litsenziat kompaniyasining kredit layoqatini e'tiborga olish kifoya qiladi. Boshqa tomondan, loyiha moliyalashtiriladigan investitsiyalar uchun kompaniyaning kelajakdagi istiqbollari, raqobatchilarning tendensiyalari, texnologik afzalliklar va shu kabi masalalar yuzasidan yanada murakkab ish qilish talab etiladi. Bu yerda ko'rib chiqiladigan narsa intellektual mulkning oddiy baholanishidan ko'ra turlicha baholanishi ahamiyatga ega.

2.6. IMODan moliyaviy kafolat sifatida foydalanish

1995-yil oktabr oyida Iqtisodiyot, Savdo va Sanoat Vazirligi (bundan keyin Xalqaro Savdo va Sanoat Vazirligi) "Intellektual mulk huquqining kafolatli bahosi uchun baholash jamiyati hisoboti"ni e'lon qildi. Yaponiya iqtisodiyotining rivojlanishi qo'shma korxonalar va boshqa yangi kompaniyalarni rivojlantirish uchun juda muhim edi, biroq AQSHda ko'rinib turganidek, Yaponiyada hech qanday o'xshash sarmoyadorlar yo'q edi qo'shma korxonalar faoliyati mutlaqo yetarli emas edi.

Shu asosda, korxonalar kompaniyalarini va boshqa tashabbuslarni moliyalashtirish uchun Yaponiya uchun noyob bo'lgan bank kreditlaridan foydalanish kerakligi ta'kidlandi. Biroq, boshlang'ich

korxonalar odatda moliyalashtirishni ta'minlash uchun moliya muassasalari tomonidan talab qilinadigan binolar, yer va quruqlik kabi yetarli moddiy aktivlarga ega emasdilar. Ushbu vaziyatni hal qilish uchun hisobotda yangi texnologiyalar va boshqa nomoddiy aktivlar moddiy aktivlardan ko'ra garov sifatida foydalanish kerakligini ko'rsatdi. Yaponiyada intellektual mulk huquqlariga kafolat berilgan kreditlar xususiy sektorning moliya institutlari va boshqa subyektlar tomonidan taqdim etilgan bo'lsa, ushbu moliya hisoboti 1995-yilga kelib ijtimoiy ma'qullanishiga erishilgan deb hisoblanishi mumkin.

IMO kafolatlangan kreditning namunasi 1995-yil 12-iyunda Yaponiya taraqqiyot banki (Yaponiya rivojlanish banki: YTB) tomonidan taqdim etilgan. Dasturiy ta'minotni rivojlantirish bilan shug'ullanadigan Kyoto kompaniyasini tashkil qiluvchi "Design Automation"ga 5 yilga 100 million yen miqdorida moliyaviy mablag' ajratdi. Bu eng qadimgi IMO 1995-yil va undan keyin e'lon qilingan materiallarda ko'rsatilgan kreditlar bo'yicha garov evaziga berilgan kredit. Ushbu ish bo'yicha xabarnoma bank tomonidan shu yilning o'zida yana to'rtta yangi moliyaviy kreditni amalga oshirishni rejalashtirayotganligini va bu moliya tizimini rivojlantirishga qaratilgan faol majburiyatni nazarda tutganligini ta'kidladi.

O'shandan beri bir nechta moliyaviy tashkilotlar IMO kafolatlangan kreditlarni taqdim etdi, ularning ko'pchiligi YTB tomonidan hisobga olinadi. 2007-yilgacha YTB korporatsiya va boshqa shirkatlarga moliyaviy ko'mak ko'rsatish orqali Yaponiyada IMO kafolatlangan kreditlarni joriy qildi. 1995-yilda boshlangan mazkur moliya tizimi orqali YTB 2007-yil iyulgacha 18 milliard yendan ortiq qariyb 300 ta kredit operatsiyasini amalga oshirdi.

YTB 1996-yilda "Hyakujushi" banki bilan moliyalashtirishni boshlagan boshqa xususiy moliya muassasalari bilan birgalikda tajriba olib bordi. Ko'pgina faoliyatlar 2004-yilda va undan keyin faollashdi. Balki, bu birgalikda moliyalash ishlari natijasida, Yaponiyada IMO kafolatlangan kreditlar bo'yicha nou-xau Yaponiya banklari va boshqa subyektlar tomonidan amalga oshirilishiga sabab bo'ldi.

Intellektual mulk huquqi garov sifatida kafolatlangan bo'lsa ham, moliyaviy tashkilotlarning intellektual mulk huquqlarini kafolatlash qobiliyatiga ishonchini to'liq to'lashda qiyinchiliklarga duch kelayotgan

ko'rinadi. 2004-yil mobaynida YTB qarz oluvchilarning qarzdorlik kafolatlarini olish va qarz oluvchilar ro'yxatga olinganida ma'lum kapital olishni ta'minlash yo'li bilan ushbu umuman past daromadli moliya tizimining samaradorligini oshirishga harakat qila boshladi. 2007-yil dekabr oyi oxiriga kelib YTB veb-saytida jami 4,3 milliard yenga teng 87 ta ish moliyalashtirildi.

Keyinchalik, 1999-yilda kichik va o'rta korxonalar uchun Yaponiya Moliya Korporatsiyasining, 2001-yilda Fuji Bank va Aozora Bank kabi boshqa yirik moliya muassasalari tomonidan e'lon qilingan boshqa bank kreditlari ham ommaviylashtirildi. 2005-yildan boshlab, o'tmishda bo'lgani kabi, YTB bilan birgalikda moliyalash orqali emas, balki mustaqil ravishda moliyalashni boshlagan mintaqaviy banklarga tarqaldi. Bundan tashqari, hukumatga qarashli moliyaviy institutlar, jumladan, "Shoko Chukin Bank" va Yaponiya moliya korporatsiyasi tomonidan kreditlar ajratilganligi qayd etildi.

Ushbu moliyaviy institutlar tomonidan taqdim etilgan kreditlarga ko'pincha qo'shma va boshqa kichik va o'rta kompaniyalar talabgor bo'lgan.

Bir nechta istisnolardan tashqari, moliyalashtiriladigan loyihalar asosan 10 million yuandan va 100 mln gacha bo'lgan. Bir muhim voqea JustSystemsga Tokio-Mitsubishi UFJ, Hyakujushi Bank, Resona Bank, Owa Bank va Kansai Urban Banking Corporation tomonidan birgalikda kafolatlangan mualliflik huquqi kafolatlangan edi. Ushbu qarz 5,8 milliard yenni tashkil etgan. Kafolat sifatida ta'minlangan intellektual mulk "xfy" yangi mahsulot bo'lib, bir ekranga bir nechta hujjat, rasm va boshqalarni, shuningdek, uy dasturiy ta'minotini, "ATOK" kanali-kanji konversion dasturini va boshqalarni ko'rsatadi. Qo'shimcha qiymati ushbu aktivlardan litsenziyalangan daromadlarni hisobga olgan holda hisoblab chiqilgan. Ushbu umumiy moliyalashning qiziqarli jihati, IM kafolatlangan kreditni JustSystems kabi mashhur dasturiy ta'minotni ishlab chiqaruvchi kompaniya tomonidan foydalanilganligi va bu tizim butun dunyo bo'ylab tarqalib ketganligi tarqalganligida.

E'lon qilinganlar orasida moliyalashtirishning eng katta miqdori 2003-yil sentabr oyida UFJ Bank (hozirgi Tokio-Mitsubishi UFJ Banki), Summitom Mitsui Banking Korporatsiya, Aozora Bank va Sumitomo Trust va Banking Company kompaniyalari bo'lgan

Arysta LifeScience korporatsiyasi 2001-yilda tashkil etilgan va keskin o'zgargan qo'shma kompaniya bo'lib yillik o'sishi taxminan 23,5 mlrd iyenni va sarmoyasi taxminan 77,8 milliard iyenni tashkil etadi. Kompaniya hozirgi kunda keng qamrovli tarzda farmatsevtika, kosmetika va kimyoviy moddalar ishlab chiqaradigan ko'p tarmoqli kompaniya hisoblanadi ammo uning mahsuloti o'sha paytda kimyoviy moddalar bilan chegaralangan, agroximikatlar, qishloq xo'jaligi materiallari va hasharotlar, mikroorganizmlar va boshqalar bilan kurashuvchi mahsulotlarni ishlab chiqaradigan kompaniya bo'lgan. Kompaniyaning asosiy o'sayotgan sohasi o'sha paytda hasharotlar bilan kurashuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'lgan. Ushbu shirkat birgalikda moliyalashtirish vaqtida o'nlab patentga talabnoma topshirgan va noma'lum patentlangan yoki patentga layoqatli ixtirolarning qaysi biri garov sifatida ta'minlanganligi aniq bo'lmagan. 35,5 milliard iyennning kafolat qiymati faqat patentda e'tirof etilgan.

Moliya muassasalari, ehtimol kompaniyaning potentsial qiymatini kutish uchun moliyaviy qarorlar qabul qilgan bo'lishi mumkin biznesning o'zi yoki boshqacha qilib aytganda, kelajakda naqd pul oqimining hosil bo'lishi kutilgan. Asosan, bu holda kredit qarorining asosi qarz oluvchining biznesining qiymati bo'lgan. Aslida YTB tomonidan chiqarilgan "Sanoat mulki huquqi kafolatini ko'rib chiqish (Uchinchi nashr)" moliyaviy siyosati moliyaviy masalalarni e'tiborga olib, uni moliyalashtirishga qaratilgan bir kompaniyaning garovga qobiliyatini emas, balki biznes bilan shug'ullanadigan ish qobiliyatini kompaniyani egallagan intellektual mulk huquqini o'z ichiga oladi. Ko'pchilik taxmin qilishicha moliyaviy qarorlar YTB ga o'xshash siyosatlar doirasida amalga oshirilgan holatlardir. Bu holat qarz beruvchi tomonidan yuzaga keladigan real qiyinchiliklarni faqatgina kafolatga tayanib berishini ko'rsatadi⁶.

Tayanch iboralar

Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari. Intellektual mulk bozorini shakllanishi xususiyatlari va

⁶ Dr. Yasuyuki ISHII. Valuation of Intellectual Property. Japan Patent Office Asia - Pacific Industrial Property Center, Japan Institute for Promoting Invention and Innovation 6-8-p, ©2017

shartlari. Intellektual mulk bozori obyektlari va subyektlari. Intellektual mulk obyektlari bilan tijorat operatsiyalari

Nazariy bilimni tekshirish uchun savollar

1. Nomoddiy aktivlarni baholash qanday vaziyatlarda yuzaga keladi?

2. Mualliflik huquqi subyektlari tomonidan qanday mualliflik huquqi obyektlari ajratilishi mumkin.

3. «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonun nechanchi yilda qabul qilingan?

4. Patentlarni litsenziya daromadlarining manbasi sifatidagi ahamiyati deganda nimani tushunasiz?

Testlar:

1. Korxonaning ishbilarmonlik nufuzi nima o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi?

a) korxonaning sotuv narxi va sof aktivlari qiymati o'rtasidagi farq;

b) korxonaning sotuv narxi va majburiyatlari o'rtasidagi farq;

c) korxonaning majburiyatlari va sof aktivlari qiymati o'rtasidagi farq.

2. Foydalanish uchun olingan nomoddiy aktivlar foydalanuvchi tashkilotning hisobga olinadi.

a) balansda

b) balansdan tashqari hisobda

c) qabul qilish va topshirish dalolatnomasida

3. Sanoat namunasi patentining amal qilish muddati

a) patent egasining iltimosiga ko'ra 5 yil muddatga uzaytirilishi mumkin;

b) ish beruvchining arizasiga muvofiq 3 yil muddatga uzaytiriladi;

c) sanoat namunasi patentining amal qilish muddati cheksiz.

4. Turdosh huquqlarning subyekti kimlar?

a) Ijrochi va fonogramma ishlab chiquvchilar;

b) fonogramma ishlab chiquvchilar;

- c) loyihani moliyalashtiruvchilar.
5. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining nechanchi bo‘limi intellektual mulkka bag‘ishlangan?
- a) IV bo‘lim.
b) V bo‘lim.
c) IIV bo‘lim.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Tovar belgilari, xizmat ko‘rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to‘g‘risida”gi qonuni nechanchi yili qabul qilingan?
- a) 2000-yil 30-avgust;
b) 2001-yil 30-avgust;
c) 1999-yil 30-avgust.
7. O‘zbekiston Respublikasining “Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to‘g‘risida”gi qonuni nechanchi yili qabul qilingan?
- a) 1994-yil 6-may;
b) 1994-yil 16-may;
c) 1994-yil 10-may.
8. O‘zbekiston Respublikasining “EHM uchun dasturlarning huquqiy muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni nechanchi yili qabul qilingan?
- a) 1994-yil 6-may;
b) 1994-yil 16-may;
c) 1994-yil 10-may.
9. O‘zbekiston Respublikasining “Selektiya yutuqlari to‘g‘risida”gi qonuni nechanchi yili qabul qilingan?
- a) 1994-yil 30-avgust;
b) 1994-yil 16-may;
c) 1994-yil 10-iyun.
10. O‘zbekiston Respublikasining “Integral mikrosxema topologiyasining huquqiy muhofazasi to‘g‘risida”gi qonuni nechanchi yili qabul qilingan?
- a) 2001-yil 12-may;
b) 2001-yil 16-may;
c) 2001-yil 10-may.
11. O‘zbekiston Respublikasining “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to‘g‘risida”gi qonuni nechanchi yili qabul qilingan?

- a) 2006-yil 20-iyun
- b) 2001-yil 20-iyun;
- c) 2001-yil 10-may.

12. “Butunjahon intellektual mulk tashkilotini tashkil etish to‘g‘risida”gi Stokgolm konventsiyasi nechanchi yili qabul qilingan?

- a) 1967-yil 14-iyul;
- b) 1968-yil 14-iyul;
- c) 1970-yil 14-iyul.

13. Gudvill deganda nimani tushunasiz?

a) korxonani xarid qilish chog‘ida yuzaga keladi va sotib olinayotgan korxonaga uchun haq hamda uning sof (majburiyatlarini chegirgan holdagi) aktivlarining baholovchi (bozor) qiymati o‘rtasidagi farq.

b) ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi buyumlar va xalq iste‘moli tovarlarining tashqi qiyofasini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlaridan foydalanish huquqi.

c) yangi xo‘jalik yurituvchi subyektning barpo etish xarajatlari, ya‘ni ishni boshlash xarajatlari.

14. Patent bu

a) korxonaga tomonidan muayyan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun foydalaniladigan, qonun bilan himoyalangan guvoohnoma hisoblanadi.

b) ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati davomida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir.

c) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo‘yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig‘indisi.

15. Nou-xau deganda nimani tushunasiz?

a) ishlab chiqarish-xo‘jalik faoliyati davomida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir.

b) ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi buyumlar va xalq iste‘moli tovarlarining tashqi qiyofasini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlaridan foydalanish huquqi.

c) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo‘yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig‘indisi.

3-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK VA NOMODDIY AKTIVLARNING BAHOLASH OBYEKTINI IDENTIFIKATSIYA QILISH

3.1. Intellektual mulk obyektlari va nomoddiy aktivlarni baholashda identifikatsiya qilish tushunchasi

Intellektual mulk obyekti va nomoddiy aktivlarni baholashda identifikatsiya qilish tushunchasi deganda - baholash obyektini identifikatsiya qilishda baholovchi taqdim etilgan hujjatlarning baholash obyekti va unga bo'lgan huquqlarning haqiqiy holatiga muvofiqligini aniqlaydi. Shuningdek, baholash jarayonida vujudga kelishi mumkin bo'lgan farazlar va cheklovchi shartlar tahlili amalga oshiriladi. Baholash obyektini identifikatsiya qilish baholovchi tomonidan buyurtmachi va (yoki) uning vakili taqdim etgan hujjatlar asosida baholash obyektini ko'zdan kechirish, o'lchash, fotosuratga olish (zarur holda), uning amalda mavjudligi va holatini tekshirish, obyekt nomi, tashkiliy-huquqiy shakli, joylashgan yeri, jismoniy tarkibi, texnik tavsifini va baholash obyektining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi boshqa ma'lumotlarni o'z ichiga olgan tavsifini o'rganish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Baholash obyektini identifikatsiya qilish quyidagilarni nazarda tutadi:

- ✚ baholash obyekti va unga bo'lgan huquqlarni belgilovchi hujjatlarning mavjudligi faktini aniqlash;
- ✚ baholash obyektiga bo'lgan mulkiy huquqlarning turini aniqlash;
- ✚ baholash obyektidan foydalanishning maqsadlarini, usullarini va boshqa muhim faktlarini aniqlash;
- ✚ foydalanish boshlanadigan sanani aniqlash.

Baholash obyektini identifikatsiya qilish yakunlari bo'yicha baholash tashkiloti tomonidan buyurtmachi bilan hamkorlikda baholash obyektining identifikatsiya varaqasi (boshlang'ich ma'lumotlar varaqasi)

tuziladi va tasdiqlanadi.

Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar qiymati baholash obyektiga bo'lgan huquqlarni identifikatsiya qilishda baholovchi mulkiy huquqlarga qonuniy egalik qilinishini tasdiqlovchi hujjatlarning mavjudligiga ishonch hosil qilishi lozim. Bunday hujjatlarga quyidagilar kiradi:

- ✚ muhofaza qiluvchi hujjatlar (patentlar, guvohnomalar);
- ✚ litsenziya shartnomalari, huquqlarni boshqaga o'tkazish shartnomalari, kompleks tadbirkorlik litsenziyasi (franshizing) shartnomalari;
- ✚ boshqa tashkilotlar yoki tashkilotning bo'linmalari tomonidan baholash obyektini yaratishga buyurtma (moliyalashtirish) shartnomalari;
- ✚ xizmat vazifasi sifatida tashkilotning o'zida baholash obyektini yaratishga buyurtmalar;
- ✚ tashkilot va baholash obyektining ishlab chiquvchilari o'rtasidagi kontraktlar va mualliflik litsenziya shartnomalari;
- ✚ baholash obyektiga bo'lgan huquqlarni pulli yoki bepul topshirishdagi qabul qilish-topshirish dalolatnomalari;
- ✚ tashkilotlarni qayta tashkil qilish, bankrot deb e'lon qilish, xususiy lashtirishda IMO va NMAlar bo'yicha davlat hokimiyati organlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlar;
- ✚ mulkiy huquqlarni identifikatsiya qilish bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlar.

Mazkur bosqichda buyurtmachi baholovchi bilan birgalikda baholash uchun identifikatsiya varaqasini (boshlang'ich ma'lumotlar varaqasini) to'ldiradi. Identifikatsiya varaqasi quyidagilardan iborat bo'lishi lozim:

- ✚ baholash obyektining, u qaysi IMO (NMA)ga mansubligi ko'rsatilgan, to'liq nomi to'g'risidagi axborot;
- ✚ baholanayotgan huquqlar to'g'risidagi axborot;
- ✚ huquq egalari va ishlab chiquvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar;

✚ baholash obyektining huquqiy muhofazasi to'g'risidagi axborot, muhofaza qiluvchi hujjat va uning amal qilish muddati ko'rsatilgan holda, agarda bunday hujjat mavjud bo'lsa;

✚ baholash obyektidan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish boshlanadigan muddatlar to'g'risidagi axborot;

✚ baholash obyektining ishlab chiqarishga tayyorligi darajasi, uning foydaliligini belgilovchi texnik-iqtisodiy tavsiflari to'g'risidagi axborot;

✚ yaratilishida baholash obyektidan foydalaniladigan, texnik, iste'mol, ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlardan iborat bo'lgan mahsulotlar, xizmatlarning tavsiflari;

✚ baholanayotgan NMA va IMOdan foydalanishdan olinadigan tushum, tannarx, daromadning haqiqiy ko'rsatkichlari, agarda mavjud bo'lsa;

✚ baholash obyektiga bo'lgan huquqlarni topshirish bo'yicha litsenziya shartnomalari mavjudligi (mavjud emasligi) to'g'risidagi axborot;

✚ baholash obyektiga bo'lgan huquqlarni yaratishga (qo'lga kiritishga) sarflangan xarajatlar to'g'risidagi axborot;

✚ tushumning rejalashtirilayotgan ko'rsatkichlari, tannarx, daromad, ishlab chiqarishga tayyor holatga keltirish xarajatlari, soliq solish to'g'risidagi hamda baholashni o'tkazish uchun ahamiyatli bo'lgan baholash obyektidan ishlab chiqarishda foydalanish xususiyatlarini tavsiflovchi boshqa axborot.

Baholash obyektining xususiyatiga qarab mazkur axborot to'ldirilishi mumkin. Identifikatsiya varaqasi belgilangan tartibda buyurtmachi va baholovchi tashkilot tomonidan tasdiqlanadi.


Buyurtmachi bilan kelishgan holda, baholash obyektini (uning tarkibiy qismlarini) identifikatsiya qilish baholash obyektini faoliyatining xususiyati va (yoki) asosiy vositalar birligining miqdoridan kelib chiqqan holda cheklangan xususiyat kasb etishi mumkin.

Baholash obyektini identifikatsiya qilishning cheklangan xususiyati baholash haqida vazifada cheklovchi shartlar bilan bir qatorda ko'rsatiladi. Taqdim etilgan hujjatlar bilan baholash obyektini va unga bo'lgan mulkiy huquqlarning amaldagi holati o'rtasida tafovutlar

aniqlangan taqdirda, baholovchi bu haqda buyurtmachiga va (yoki) hujjatlarni taqdim etgan shaxsga xabar berishi va ularga tegishli tuzatishlar kiritishni talab qilishi shart. Buyurtmachi va (yoki) hujjatlarni taqdim etgan shaxs ularni baholovchining talablari bilan muvofiq holatga keltirishni rad etgan yoki ularga zaruriy tuzatishlarni kiritish mumkin bo'lmagan holda, baholovchi baholashni amalga oshirishdan bosh tortishi yoki baholashni baholash obyektining amaldagi holatidan kelib chiqib, taqdim etilgan hujjatlar va baholash obyektining holati o'rtasida tafovut mavjudligini baholash to'g'risidagi hisobotda aks ettirgan holda amalga oshirishi mumkin.

3.2. Axborotni yig'ish va tahlil qilish

Intellektual mulk va nomoddiy aktiv qiymatini baholash uchun zarur axborot bazasini tayyorlash juda zarur. Baholash jarayonida foydalaniladigan axborot ishonchlilik, aniqlik va tizimlilik talablariga javob berishi lozim⁷. Shu bilan birga, u baholash maqsadlariga aniq mos kelishi va baholanayotgan mulk faoliyat ko'rsatishining tashqi shart-sharoitlarini kompleks tarzda hisobga olishi kerak. Axborot yig'ish va tashkil etishning yo'llari 6-rasmda ko'rsatilgan.



6-rasm. Axborot yig'ish va tashkil etishning yo'llari⁸

⁷ Н.Ф. Чеботарев. Оценка стоимости бизнеса. Учебник. «Дашков и К», Москва-2009, с-19.

⁸ Абдурахмонов И. Рыночная стоимость-это стандартная база оценки // Частная собственность.-2003.-№6. с-13.

Axborot yig'ishning xronologik yo'li o'tgan davrdan kelajakka izchil o'tishni nazarda tutadi. Baholash chog'ida mulk obyektining tashkil etilishi tarixidan boshlanishi kerak.

Jurnalistik yo'l materialni muhimrog'idan kamroq muhimiga qarab joylashtirishni nazarda tutadi. Moliyaviy axborotni tahlil qilishda, odatda barcha retrospektiv (ko'p yillik) axborotdan foydalanishdan ma'no yo'q, e'tiborni esa eng muhim nisbat yoki koeffitsiyentlarga qaratish zarur.

Mantiqiy tartib axborotning umumiydan xususiya tomon yoki xususiya umumiyga tomon taqsimlanishini nazarda tutadi. Baholanayotgan mulkni tahlil qilishga kirishishdan avval tarmoqdagi investitsiya muhitini aniqlash imkonini beruvchi axborot sharhini o'tkazish lozim.

Tashqi axborotlar mulk obyektining tarmoqda va umuman iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatishi sharoitlarini tavsiflaydi.


Tashqi axborot hajmi va xususiyati baholash maqsadlariga qarab farq qiladi. Hisobotni tuzishda baholovchi tomonidan yig'ilgan va o'rganilgan axborot bazasi mulk obyektining qiymati haqida yakuniy xulosani berish uchun zarur va yetarli ekanligini ko'rsatish lozim. Axborotni optimal hajmda va baholanayotgan obyektga yo'naltirilgan tarzda berish zarur⁹.

Makroiqtisodiy ko'rsatkichlar mavjud iqtisodiy vaziyat mulk obyektini faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatayotganligi yoki ko'rsatishi haqidagi axborotni o'zida mujassam etishi va tarmoqdagi investitsiya muhitini tavsiflashi lozim. Baholash maqsadlariga qarab makroiqtisodiy sharh baholash haqidagi hisobotning alohida bo'limi sifatida ajratilishi yoki hisobotning umumiy izohida ko'rib chiqilishi mumkin.

Makroiqtisodiy xatar omili bozor iqtisodiyotiga ta'sir ko'rsatuvchi tashqi voqealardan yuzaga keladigan tizimli xatarni hosil qiladi va ushbu xatarga diversifikatsiya (xatarni portfel investitsiyalari yordamida va keng doiradagi qimmatli qog'ozlarni xarid qilish orqali qisqartish) hisobidan barham berishning iloji yo'q.

⁹ С.В.Грибовский и другие. Оценка стоимости недвижимости. Учебник. Москва «Интерреклама» - 2003. С-58.

Xatar - bu aniqlik darajasi bo'lib, u bilan kelajakda kutilayotgan natijalarning erishilajakligi tavsiflanadi. Ta'rifga ko'ra, bashorat qilinayotgan miqdordan har qanday ehtimoliy chetga chiqishlar (+/-) xatarning aks etishi hisoblanadi. Xatar omilining tahlili subyektiv xususiyatga ega. Mulk obyektining kelajakda o'sishiga ishonch uning joriy qiymatini pessimistik prognoz tuzuvchi, tahlilchiga qaraganda yuqori baholaydi. Boshqacha qilib aytganda, kutilayotgan bo'lajak daromadlar eng yaxshi baho atrofida qanchalik keng yoyilsa, investitsiyalar shunchalik xatarli. Xatarlarni baholashdagi farqlar mulk objekti qiymati haqidagi xulosalarning ko'p bo'lishiga olib keladi. Faoliyati yuqori darajadagi xatar bilan bog'liq mulkning joriy qiymati xuddi shunga o'xshash, lekin kam xatar sharoitida faoliyat ko'rsatuvchi mulkning joriy qiymatiga qaraganda past. Makroiqtisodiy xatarning asosiy omillarini 7-rasmda ko'rishimiz mumkin.



7-rasm. Makroiqtisodiy xatarning asosiy omillari¹⁰

Inflatsiya xatari - bu narxlar o'sishi sur'atlarining bashorat qilib bo'lmaydigan o'zgarishi xatari. Sarmoyador narxlarning inflatsion o'zgarishini qoplovchi daromadni olishga intiladi. Yuqori yoki bashorat qilinmaydigan inflatsiya ishlab chiqarish faoliyatining kutilayotgan natijalarini yo'qqa chiqarishi mumkin bo'lib, iqtisodiyotdagi daromadlarning qayta taqsimlanishini ta'minlaydi va tadbirkoriik

¹⁰ Н.Ф.Чеботарев. Оценка стоимости бизнеса. Учебник. «Дашков и К», Москва-2009, с-25.

xatarini oshiradi. Natijada mulkning real qiymati pasayadi.

Baholash jarayonida ko'p yillik, joriy va bo'lajak (bashorat qilinayotgan) ma'lumotlar taqqoslanadi. Mulkning turli yillarda olingan qiymati faqat, agar pul birligining qiymati o'zgarmagan bo'lsa, taqqoslanishi mumkin. Biroq amalda pul birligining qiymati deyarli har yili (odatda, ortish tomonga) o'zgaradi. Narxlar darajasi turli davrlar uchun narxlar o'zaro nisbatining o'lchovi hisoblangan indeks ko'rinishida o'lchanadi.

$$\text{Joriy yildagi narxlar indeksi} = \frac{\text{Joriy yildagi narx}}{\text{Bazaviy (taqqoslanadigan) yildagi narx}} \times 100\% \quad (1.1),$$

Baholash jarayonida, muvaqqat (o'zgarmas) kattalikdan tashqari, nisbiy kattaliklar ham, masalan, diskont stavkasi hisoblab chiqiladi (% da). U ham nominal yoki haqiqiy kattalik sifatida aniqlanishi mumkin. Agar narxlarning inflatsion o'sish sur'atlari mamlakatda 15 foizdan yuqori bo'lsa, qayta hisoblashni Fisher formulasini qo'llash orqali amalga oshirish tavsiya etiladi:

$$R_r = \frac{R_n - i}{i + 1} \quad (1.2),$$

Bu yerda, R_r — daromad (diskont) ning real stavkasi;

R_n — daromad (diskont) ning nominal stavkasi;

i — inflatsiya indeksi.

Asosiy axborot manbalari:

✚ Hukumat dasturlari va prognozlar;

✚ Davriy iqtisodiy matbuot.

Iqtisodiy o'sish sur'atlarining o'zgarishi bilan bog'liq xatar. Bozor iqtisodiyotining siklliligi hisob-kitoblarda iqtisodiy rivojlanishning umumiy holati va iqtisodiy o'sishning yaqin kelajakda kutilayotgan sur'atlarini hisobga olish zaruratini belgilab beradi.

Ishdagi faollik susaygan davrlarda olinadigan foyda miqdori ham pasayadi va bankrot bo'lish ehtimoli oshadi. Iqtisodiyot rivojlanishining umumiy iqtisodiy qonuniyatlarini muayyan korxonani tahlil qilishda va prognozlarni tuzishda hisobga olish zarur. Bunda asosiy axborot manbalari bo'lib hukumat dasturlari va prognozlar, axborot, konsalting

tuzilmalari, hokimiyat va boshqaruv organlarining tahliliy sharhlari, davriy iqtisodiy matbuot xizmat qiladi.

Foiz stavkasi miqdorining o'zgarishi bilan bog'liq xatar. Foiz stavkasining harakati amalga oshirilayotgan makroiqtisodiy tartibga solish chora-tadbirlariga munosabat bildirish hisoblanadi va u investitsion faollikni rag'batlantirishga olib kelishi ham, iqtisodiyotdagi umumiy sarf-xarajatlarning oshishiga to'sqinlik qilishi ham mumkin. Baholash jarayonida diskont stavkalarini, sarmoyalash koeffitsiyentlarini, bozor multiplikatorlarini hisob-kitob qilishda tizimli va tizimsiz xatar omillari o'lchanadi. Ushbu hisob-kitoblarda xatarsiz stavka sifatida, odatda, davlatning uzoq muddatli qimmatli qog'ozlari bo'yicha daromad stavkalari qabul qilinadi

Asosiy axborot manbalari:

- ✚ Axborot, konsalting tuzilmalari;
- ✚ Davriy iqtisodiy matbuot.

Valyuta kursining o'zgarishi bilan bog'liq xatar. Valyutalar kurslari iqtisodiy va siyosiy omillar ta'siri ostida o'zgaradi. Valyuta kursining o'zgarishi mamlakatda chakana narxlarning o'zgarishini aniq aks ettirmaydi, ayni paytda, baholash jarayonida moliyaviy axborotga inflatsion tuzatishlar kiritish, odatda, milliy valyuta kursining o'zgarib turishi bo'yicha amalga oshiriladi.

Muayyan yilga mo'ljallangan sotuvlar hajmlari prognozini tuzishda bashorat qilinayotgan inflatsiya darajasini hisobga oluvchi hisob-kitoblarni amalga oshirish lozim.

Asosiy axborot manbalari:

- ✚ Hukumat dasturlari;
- ✚ Axborot, konsalting tuzilmalari;
- ✚ Davriy iqtisodiy matbuot.

Siyosiy xatar - bu siyosiy voqealar tufayli aktivlarga nisbatan yuzaga kelgan tahdid. Siyosiy xatar omillari, odatda, yirik firmalar yoki tahliliy agentliklar tomonidan amalga oshiriladigan ekspert baholari asosida aniqlanadi.

Asosiy axborot manbalari:

- ✚ Tahliliy sharhlar ma'lumotlari;

✚ Milliy axborot agentliklari.

Ichki axborot baholanayotgan mulk obyekti faoliyatini to'liq hajmda tavsiflashi, mulk obyektining o'ziga xos xususiyatlarini tushunish uchun u haqidagi to'liq va aniq ma'lumotlarni o'zida mujassamlashtirishi lozim.

Baholovchi baholash yondashuvlari va usullarini asosli ravishda tanlash va qo'llash uchun zarur va yetarli bo'lgan hajmda baholash obyekti to'g'risida axborot va bozor haqida axborotni yig'ish va tahlil qilishni amalga oshiradi.

Quyidagilar baholash obyekti haqidagi axborot manbalari hisoblanadi:

✚ buyurtmachi yoki o'zga vakolatli shaxs tomonidan taqdim etiladigan boshlang'ich axborot;

✚ baholash obyekti bilan tanishish jarayonida hamda baholash obyektiga bo'lgan huquq egasi va (yoki) foydalanuvchisi bilan suhbatlashish natijalariga ko'ra olingan axborot;

✚ uchinchi shaxslardan olingan, shuningdek ommaviy axborot vositalari va internet tarmog'ida e'lon qilingan chop etilgan axborot.

Boshlang'ich axborot quyidagi ma'lumotlardan iborat bo'lishi lozim:

✚ baholash obyekti to'g'risida ushbu obyektini bir xilda identifikatsiya qilish imkonini beruvchi, shu jumladan, NMA va IMO biriktirilgan moddiy tashuvchisining tavsifi to'g'risidagi ma'lumot;

✚ baholash obyektining huquq egasi to'g'risidagi ma'lumot;

✚ NMA va IMO ni yaratishga sarflangan xarajatlar to'g'risidagi ma'lumot;

✚ NMA va IMO keltiradigan afzalliklar to'g'risidagi ma'lumot;

✚ NMA va IMO dan foydalanishdan keladigan daromad to'g'risidagi ma'lumot;

✚ baholash obyektidan foydalanishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari to'g'risidagi ma'lumot;

✚ NMA va IMO huquq egasining moliya xo'jalik faoliyati bo'yicha hisobotlari.

Baholash maqsadiga va baholash obyektining xususiyatlariga qarab,

baholovchi boshlang'ich axborot ro'yxatini kengaytirishi yoki baholashni o'tkazish jarayonida kerakli axborotni talab qilib olishi mumkin. Baholovchi qo'shimcha ravishda NMA va IMO mansub bo'lgan bozor/bozor segmenti to'g'risidagi axborotni yig'ishi va tahlil qilishi lozim. Baholashni o'tkazishda baholash obyektlarining xususiyatlari va ulardan foydalanish bilan bog'liq barcha alohida holatlar va cheklovlar aniqlanishi zarur.

Baholash jarayonida foydalanilgan axborotni baholash to'g'risidagi hisobotda oshkor etish shunday amalga oshirilishi lozimki, baholash faoliyati sohasida maxsus bilimlarga ega bo'lmagan hisobotdan foydalanuvchilar baholash jarayoni mantig'ini va baholash obyekti qiymatini aniqlash uchun baholovchi bajargan amallarning ahamiyatini tushunishi lozim. Baholash jarayonida qo'llanilgan axborot oshkor etilishi lozim, maxfiy xususiyatga ega bo'lgan axborot bundan mustasno. Maxfiy axborot baholovchi tomonidan faqat buyurtmachi va mazkur axborotni taqdim etgan shaxslar bilan kelishgan holda yoki sudning tegishli qaroriga binoan oshkor etiladi. Foydalanilayotgan axborotning maxfiylik darajasi buyurtmachi va mazkur axborotni taqdim etuvchi yoki unga bevosita aloqador bo'lgan shaxslar tomonidan belgilanadi. Baholashda foydalanilgan va baholash to'g'risidagi hisobotda keltirilgan axborot manbasiga havola qilingan bo'lishi lozim, bunda mazkur manba yozma yoki og'zaki bo'lishi ahamiyatsiz.

3.3. Qonuniy-me'yoriy hujjatlar tizimi va bazasini shakllantirish

Bugungi kunda butun dunyoda intellektual mulk obyektlarini tarkiblarga ajratish, obyektlarga huquqiy rejim berish, huquq egalari manfaatlarini himoya qilish tizimini soddalashtirish orqali kodifikatsiya jarayoni olib borilayotgani ko'zga tashlanmoqda. Bizningcha, respublikamizda intellektual mulk huquqi bilan bog'liq barcha qonunlarni jamlab, alohida kodeksga kiritish vaqti keldi. Qonunlar sonining ko'pligi ayrim normalarning boshqa qonunlarda takrorlanishi yoki umumiy havola yo'sinidagi normalarning paydo bo'lishiga olib

keladi. Shuningdek, sohaga oid qonunlar ilmiy konsepsiyasi ixchamlashib, kodeksda yaxlit ilmiylikka asoslangan, nazariy jihatdan asoslash mumkin bo'lgan normalar jamlanishi mumkin. Eng asosiysi, huquqni qo'llash amaliyoti yanada jadallashib, normalarni sharhlash va hujjatlarda aks ettirish imkoniyati yanada kengayadi.

Har bir mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy farovonlikka erishish uchun intellektual mulk muhofazasining mustahkam tizimiga ega bo'lishi lozim. Umumiy qoida bo'yicha yuridik shaxsning individuallashtirish vositalari, jismoniy va yuridik shaxslarning mahsulot va xizmatlari ham intellektual faoliyat natijalariga tenglashtiriladi (FKning 97-moddasi, 1-qismi). Individuallashtirish vositalari (firma nomi, tovar va xizmat belgilari, tovar kelib chiqqan joy nomi) turdosh mahsulot va xizmatlarni boshqalaridan farqlash, ularni bir-birlari bilan chalkashtirib yubormaslikka xizmat qiladi.

FKning 97-moddasiga asosan intellektual faoliyat natijalari va ularga tenglashtirilgan individuallashtirish vositalariga nisbatan fuqaroning yoki yuridik shaxsning mutlaq huquqi e'tirof etiladi, tan olinadi. Buning ma'nosi shundaki, mutlaq huquq egasi intellektual faoliyat natijalari va individuallashtirish vositalaridan foydalanish va tasarruf etishda faqat o'zigagina tegishli bo'lgan huquq egasidir. U uchinchi shaxslarga bu obyektlardan foydalanishga ruxsat berishi va taqiqlab qo'yishga o'zigina haqli (yuridik shaxsning firma nomi bundan mustasno bo'lib, uchinchi shaxslarga foydalanish uchun berilishi mumkin emas).

Fuqarolik huquqlarining obyekti sifatida intellektual faoliyat natijalari, xizmat va tijorat siri nomoddiy ne'matlarning tarkibiy qismi hisoblanadi. Ma'lumki, insonning intellektual faoliyati mahsullari, ularni yaratish jarayoni va o'z xususiyatlari bo'yicha odatdagi ashyolardan farq qiladi. Shuning uchun ular fuqarolik huquqiy munosabatlarida o'ziga xos obyekt sifatida qaraladi.

Intellektual faoliyat natijalarini yaratish, ulardan foydalanish, ularni tasarruf etish va huquqiy muhofaza qilishda vujudga keladigan munosabatlar FKning tegishli normalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 6-mayda qabul qilingan "Ixtirolar, foydali

modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi, "Elektron hisoblash mashinalari uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalarining huquqiy himoyasi to'g'risida"gi qonun, 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "Mualliflik va turdosh huquqlari to'g'risida"gi qonun bilan tartibga solinadi. Subyektlarni individuallashtirish vositalaridan foydalanish masalalari O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 30-avgustda qabul qilingan "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi qonunda belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi FKning 98-moddasiga asosan, xizmat va tijorat sirlari ham nomoddiy ne'matlar tarkibiga kiradi. Oshkor etilishi O'zbekiston Respublikasi manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan fan, texnika, ishlab chiqarish va boshqaruv sohasiga doir ma'lumotlar xizmat sirini tashkil etadi.¹¹ Korxonaning tijorat siri deganda, korxonaning ishlab chiqarish, texnologiya axboroti, boshqaruvi, rejalashtirilishi, moliyalashtirilishi, moliyasi va boshqa faoliyati bilan bog'liq bo'lgan hamda e'lon qilish (topshirish, oshkor bo'lib qolishi) uning manfaatlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan, davlat siri bo'lmagan ma'lumotlar tushuniladi.

Xizmat va tijorat sirlari fuqarolik huquqi obyektida himoya qilinishi uchun quyidagi shartlar mavjud bo'lishi lozim:

birinchidan, xizmat yoki tijorat siri bo'lgan ma'lumotlar uchinchi shaxslarga noma'lumligi sababli haqiqiy yoki nisbiy tijorat qiymatiga ega bo'lishi kerak;

ikkinchidan, bu ma'lumotlardan uchinchi shaxslarning xabardor bo'lishga, bahramand bo'lishga qonuniy asoslari bo'lmasligi talab qilinadi;

uchinchidan, sir hisoblangan axborot (ma'lumot) egasi uning maxfiyligini saqlashga doir choralarni ko'rgan bo'lishi zarur. Ushbu shartlardan birortasi mavjud bo'lmasa, xizmat yoki tijorat sirlaridan boshqalarni xabardor bo'lib foydalanganliklari uchun sir egasidan ruxsatsiz fuqarolik huquqiy tartibda javobgarlikka tortilishi uchun asos bo'lolmaydi. Korxonalar va boshqa subyektlarning atrof-muhitni

¹¹1993-yil 7-mayda qabul qilingan "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"gi qonunning 3-moddasi.

ifloslantirayotganligi yoki jamiyatga zarar keltirish mumkin bo'lgan boshqa salbiy faoliyatlari haqidagi ma'lumotlar xizmat yoki tijorat siri hisoblanmaydi. Tijorat sirlari egasi ulardan o'z faoliyatida foydalanishi, shuningdek, boshqalarga foydalanish uchun litsenziya shartnomasi asosida ruxsat berishga, sotishga, boshqacha usullardan tasarruf etishga haqli ravishda jalb qilishni taqozo etadi.

Ma'lumki, fuqarolar va tashkilotlar o'zlariga qonun yoki o'zaro tuzilgan shartnomalar bo'yicha yuklatilgan xizmatlarni yoxud ishlarni amalga oshiradilar. Masalan, pudrat shartnomasiga muvofiq xilma-xil kiyimlar, uy-ro'zg'or ashyolari va boshqa narsalarni tayyorlaydilar, ta'mirlaydilar. Qurilishga oid pudrat shartnomasiga binoan turar-joy qurilishi va boshqa qurilish ishlari amalga oshiriladi. Omonat shartnomasi bo'yicha mulklar omonat saqlanadi. Topshiriq shartnomasi yuzasidan fuqaro va tashkilotlarning turli topshiriqlari amalga oshiriladi. Vositachilik shartnomasi bo'yicha fuqarolarning buyumlari sotish uchun qabul qilinadi va sotiladi, jamoa xo'jaliklari a'zolarining o'zlaridan ortiqcha qishloq xo'jalik mahsulotlari ham sotish uchun qabul qilinib, keyinchalik vositachilik asoslarida sotiladi va hokazo. Ishlarning natijasi moddiy ko'rinishda bo'ladi. Xizmat ko'rsatish tufayli, masalan, repititorlik xizmati tufayli ilm-ma'rifat o'quvchiga singdiriladi, sayyohlik xizmati tufayli-sayyohlarga tegishli xizmat ko'rsatiladi. Xizmatlarning natijasi odatda, g'oyaviy, nomoddiy ko'rinishda bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunlari intellektual faoliyat natijalarini quyidagicha farqlaydi:

- ✚ ixtirolar, foydali model, sanoat namunalari;
- ✚ mualliflik va turdosh huquqlar obyektlari – fan, adabiyot, san'at asarlari, radioeshittirishlari va televideniye ko'rsatuvlari, EHM dasturlari va ma'lumotlar ba'zalari.

Mavjud bo'lgan qonunchilikka ko'ra ixtiro sifatida ko'rsatilgan obyekt basharti, u texnika taraqqiyoti darajasida ma'lum bo'lmasa, ixtiro deb topiladi. Ixtiro ustivorligi sanasiga qadar jahonda ommaga oshkor bo'lmagan ma'lumotlarga ega bo'ladi. Ixtiro basharti, uning san'at, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda qo'llash mumkin bo'lsa, sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi. Qurilmalar,

usullar, moddalar, mikroorganizmlar shtamplari, o'simliklar va hayvonlar hujayralari turlari, ilgaridan ma'lum bo'lgan qurilmalar, usullar, moddalarning mikroorganizmlarning shtamplarining yangi-yangi maqsadlarda qo'llanilishi ixtiro sifatida e'tirof etiladi.¹²

Quyidagilar ixtiro deb e'tirof etilmaydi:

- ✚ ilmiy nazariyalar va matematika nazariyalari;
- ✚ xo'jalikni tashkil etish va boshqarish usullari;
- ✚ shartli belgilar, jadvallar, qoidalar;
- ✚ aqliy operatsiyalar bajarish qoidalari va usullari;
- ✚ integral sxemalarning topologiyalari;
- ✚ o'simlik navlari va hayvon zotlari;
- ✚ jamoat manfaatlari, insonparvarlik va axloq qoidaloriga zid

yechimlar.

Shu qonunning 6-moddasida foydali model haqida tushunchalar berilgan. Foydali model, basharti uning muhim alomatlari majmui texnika taraqqiyoti darajasidan ma'lum bo'lmasa, yangi deb hisoblanadi.

Foydali model, basharti undan foydalanish imkoni amalda bo'lsa, sanoatda qo'llash mumkin deb hisoblanadi. Amalyotbop qilib tayyorlangan ishlab chiqarish vositalari va iste'mol buyumlari shuningdek ularning foydali qismlari modellar jumlasiga kiritiladi. 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "Seleksiya yutuqlari to'g'risida"gi qonunda seleksiya yutug'i deb o'simliklar navi, hayvonot zotlari tushuniladi. Nav deb - o'simlik guruhi bo'lib u nasldan naslga barqaror o'tuvchi, muayyan genetik va genotiplar kombinatsiyalari boshqalardan ajralib turuvchi belgilarga qarab aniqlanadi va ayni bir botanik toqsondagi boshqa o'simliklar guruhidan bir yoki bir necha belgilarda farqlanadi. Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlarini huquqiy muhofazasi davlat organi tomonidan berilgan huquqiy muhofaza yorlig'i berilishi bilan muhofaza qilinadi. Intellektual mulk obyektlarini muhofaza qilish deganda bu obyektlarga nisbatan subyektiv huquqlar sohibini huquqlarning qonuniy jihatdan qo'riqlanishi vujudga keltirish asoslari tushuniladi. 1996-yil 30-avgustda qabul qilingan "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi

¹² 1994-yil 6-mayda qabul qilingan "Ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunning 5-moddasi.

qonunning 1-moddasida mualliflik huquqi turdosh huquqlarga tushuncha berilgan. Unga ko'ra qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

✚“muallif” - ijodiy mehnat bilan asar yaratgan jismoniy shaxs;

✚“yozuv” - ovozlar va tasvirlarning texnikaviy vositalar yordamida qayta-qayta idrok etish, takrorlash yoki uzatish imkonini beradigan biror-bir moddiy shakldagi mujassami;

✚“ijrochi” - aktyor, qo'shiqchi, musiqachi, raqqos yoki rol ijro etadigan, o'qiydigan, musiqa asbobini chaladigan yoxud adabiyot yoki san'at asarini boshqa bir tarzda ijro etadigan shaxs shuningdek, rejissyor, drijyor;

✚“e'lon qilish” - ommaviy oqilona talab ehtiyojlarini qondirish uchun hamda asarning, fonogrammaning xususiyatlaridan kelib chiqadigan holda asar, fonogramma nusxalarini muomalaga chiqarish;

✚“fonogramma” - biror-bir ijro yoki boshqa ovozlarning har qanday ovozli yozuvi va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 1041-moddasi, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi qonunning 5-moddasida mualliflik huquqining yana bir qoidasi nazarda tutilgan. Muallif asarni yaratishda yoki e'lon qilishda u davlat sirlari, shaxsiy sirlari yoxud boshqalarning qonuniy manfaatlari bilan bog'liq bo'lmasa, oldindan ruxsat olish, asar mazmuni oldindan nazoratdan o'tganligi talab etilmaydi. Qoidani mazmuni ham shundan kelib chiqadi, ya'ni muallif huquqlarini vujudga kelishi, uni muhofaza etish, asarni yaratish fakt asosida vujudga kelishi, u qandaydir rasmiyatchiliklarga rioya etilishi talab etilmasligidir.

Mualliflarning asarlarni yaratish va ulardan foydalanishda ma'naviyat va moddiy manfaatdorligini har tomonlama muhofaza qilish ham qonunda mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu qoida mualliflik huquqiy munosabatlari qatnashchilarining huquq va burchlarini belgilovchi me'yorlardangina emas, balki subyektiv huquqlarni amalga oshirish kafolatlarida muallif huquqlarini muhofaza etish bo'yicha davlat organlari zimmasiga yuklanish majburiyatlarda, buzilgan muallif huquqlarini himoya qilinishini ta'minlovchi me'yorlarda o'z ifodasini topgan. Mualliflik huquqiy munosabatlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini 27,29,42,67-moddalarida, “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi qonun, “EHMLar uchun dasturlar va

ma'lumotlar ba'zalari to'g'risida"gi qonun, "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi qonun va bevosita mualliflik huquqiy munosabatlarini tartibga soluvchi O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodekslari bilan tartibga solinadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, intellektual mulkning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish, davlat organlari va manfaatdor tashkilotlarning birgalikdagi faoliyatini ta'minlash, eng asosiysi jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlod orasida sohaga oid nazariy, huquqiy bilimlarni tizimli targ'ib qilish dolzarb vazifalardan biridir. Iqtisodiyotni rivojlantirishda esa barcha tadbirkorlik subyektlarini innovatsion faoliyatga jalb etish, olimlar va korxonalar o'rtasidagi hamkorlikni ta'minlashga erishish, intellektual mulk obyektlarini ishlab chiqarishga joriy etishning turli shakl va vositalaridan keng foydalanish, milliy patentlar bozorini rivojlantirish lozim. Yuqorida ko'rsatilgan masalalar o'z yechimini topsa, mamlakatimizning iqtisodiy qudrati yanada oshgan, jahon iqtisodiyotidagi salmog'i kengaygan bo'lardi. Zero, bugungi avlod dunyo tamaddunining tamal toshini qo'ygan buyuk ajdodlarning salohiyatli vorisi ekanini namoyon etishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud.

Tayanch iboralar

Intellektual mulk obyektlari va nomoddiy aktivlarni baholashda identifikatsiya qilish tushunchasi. Axborot yig'ish va uni tahlil qilish. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar, ularni baholash xizmatlari bozori konyunkturasi bo'yicha axborotlar tizimini shakllantirib borish va ularni muntazam tahlil qilib borish. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar ko'rsatkichlari tizimi va ular bazasini shakllantirish. Qonuniy-me'yoriy hujjatlar tizimi va bazasini shakllantirish.

Nazariy bilimni tekshirish uchun savollar

1. Intellektual mulk obyektlari va nomoddiy aktivlarni baholashda identifikatsiya qilish deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot yig'ish va uni tahlil qilishning qanday yo'llari mavjud.
3. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar ko'rsatkichlari tizimi.

4. Baholash obyektini identifikatsiya qilish nimalarni nazarda tutadi.
5. Baholash obyektini identifikatsiya qilish yakunlari bo'yicha baholash tashkiloti tomonidan buyurtmachi bilan hamkorlikda qanday hujjat tuziladi va tasdiqlanadi.
6. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar qiymati baholash obyektiga bo'lgan huquqlarni identifikatsiya qilishda baholovchi mulkiy huquqlarga qonuniy egalik qilinishini tasdiqlovchi qanday hujjatlarni buyurtmachidan taqdim etishni talab qiladi?
7. Identifikatsiya varaqasi nimalardan iborat bo'lishi lozim.

Testlar:

1. Sanoat namunalari -
 - a) ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi buyumlar va xalq iste'moli tovarlarining tashqi qiyofasini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlaridan foydalanish huquqi.
 - b) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.
 - c) ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati davomida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir.
2. Dasturiy ta'minot deganda nimani tushunasiz?
 - a) xo'jalik yoki boshqa maqsadlarda yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni ta'minlovchi huquqni anglatadi, ammo yerdan foydalanish huquqi mazkur yer uchastkasini mulk qilib olishni bildirmaydi.
 - b) bir korxonadan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan, savdo markalari va atamalari kabi nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi.
 - c) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.
3. Tashkiliy xarajatlar bu.....
 - a) yangi xo'jalik yurituvchi subyektning barpo etish xarajatlari, ya'ni ishni boshlash xarajatlari.
 - b) yangi xo'jalik yurituvchi subyektning qayta tashkil etish xarajatlari, ya'ni ishni boshlash xarajatlari.
 - c) yangi xo'jalik yurituvchi subyektning tugatish xarajatlari
4. O'rnini qoplash qiymati bu -

a) korxonada aktivdan keyinchalik foydalanish hisobiga qoplash mo'ljallanayotgan summa, shu jumladan, tugatilish qiymati.

b) nomoddiy aktivlarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summadir.

c) aktivni xarid qilish uchun to'langan pul mablag'lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir.

5. Qanday nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi?

a) korxonaga tegishli bo'lmagan, lekin huquq egasi tomonidan litsenziya shartnomasi yoki boshqacha shartnoma (tanho bo'lmagan litsenziya) bo'yicha berilgan va balansdan tashqari schyotda hisobga olinadigan nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqi asosida korxonada foydalanayotgan nomoddiy aktivlar;

b) franshiza;

c) Mualliflik huquqi;

6. Gudvillning eskirishi schyot turi bo'yicha qaysiga qarashli?

a) Passiv schyotlar.

b) Aktiv schyotlar.

c) Kamayish passiv.

7. Korxonada yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bu -

a) Nomoddiy aktiv.

b) Asosiy vosita.

c) Aylanma mablag'.

8. Nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblash usullari?

a) yillar yig'indisi, tog'ri chiziqli.

b) Ish hajmi bo'yicha, yillar yig'indisi, tog'ri chiziqli, qoldiqni kamayishi.

c) qoldiqni kamayishi.

9. Gudvill nima?

a) Firma bahosi.

b) Aktivning bahosi.

c) Korxonani sotib olish bahosi.

4-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARI VA NOMODDIY AKTIVLARNI DAROMADLI YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMI

4.1. Daromadli yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo‘llash sharoitlari

IMNA baholashning daromadga asoslangan yondashuvida daromad obyektning bahosini belgilovchi asosiy faktor sifatida yetakchi o‘ringa qo‘yiladi. Obyekt tomonidan qancha ko‘p daromad keltirilsa, uning bozor bahosi shuncha yuqori bo‘lib boraveradi. Bu yerda daromad olish mazkur jarayonning davomiyligi, u bilan hamisha birga bo‘ladigan xavfning shakli va darajasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Daromadga asoslangan yondashuv – IMNAdan foydalanish natijasida vujudga keladigan bo‘lajak daromadning uni sotishda qo‘l keladigan amaldagi qiymati bilan hisoblab chiqariladi. Bunday holatlarda kutish tamoyili qo‘llaniladi.

Daromad yondashuvi NMA va IMOga huquqlarga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxs olayotgan yoki olishi mumkin bo‘lgan foydalar miqdorini aniqlash mumkin bo‘lgan hollarda NMA va IMO ni baholash uchun qo‘llanadi.

Baholash obyekti qiymatini daromad yondashuvi bilan baholash uchun baholovchi tomonidan baholash obyektidan kutilayotgan daromadlarni baholash sanasidagi qiymatning yagona miqdoriga aylantirishga asoslangan quyidagi usullardan biri qo‘llanadi:

- ✚ to‘g‘ridan to‘g‘ri kapitallashtirish usuli;
- ✚ pul oqimlarini diskontlash usuli.

NMA va IMO huquq egasining ulardan foydalanish huquqini vaqtning muayyan davrida boshqa shaxslarga berishi natijasida olinadigan pul tushumlari va pul xarajatlari (keyingi o‘rinlarda pul oqimlari deb yuritiladi) o‘rtasidagi farq NMA va IMO dan foydalanishdan olinadigan daromad hisoblanadi.

Vaqtning teng davrlari mobaynida NMA va IMOdan foydalanishdan miqdor bo'yicha o'zaro teng bo'lgan yoki bir xil sur'atlarda o'zgaradigan pul oqimlarini keltiradigan baholash obyektlari uchun qiymatning miqdori kelgusidagi pul oqimlarini to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli bilan aniqlanadi.

Bozor qiymatini to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli bilan aniqlash quyidagi bosqichlardan iborat:

✚ baholash obyektidan foydalanish orqali hosil bo'ladigan pul oqimlarini aniqlash;

✚ baholash obyektidan foydalanishdan olinadigan pul oqimlarini kapitallashtirishning tegishli stavkalari miqdorini aniqlash;

✚ baholash obyektidan foydalanishdan olinadigan pul oqimlarini kapitallashtirish yo'li bilan baholash obyektining bozor qiymatini hisoblab chiqish.

NMA va IMOdan foydalanishdan keladigan pul oqimlari bir maromda bo'lmagan taqdirda qiymat miqdori pul oqimlarini diskontlash usuli bilan aniqlanadi.

Bozor qiymatini pul oqimlarini diskontlash usuli bilan aniqlash quyidagi bosqichlardan iborat:

✚ baholash obyektidan foydalanishdan olinadigan pul oqimlarining miqdori va tuzilmasini aniqlash;

✚ diskontlashning tegishli stavkasi miqdorini aniqlash;

✚ baholash obyektidan foydalanish bilan bog'liq barcha pul oqimlarini diskontlash yo'li bilan baholash obyektining bozor qiymatini hisoblab chiqish.

NMA va IMOdan foydalanishdan olinadigan foydalarning asosiy shakllari quyidagilardir:

✚ mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va sotish xarajatlarini tejash yoki asosiy va aylanma mablag'larga investitsiyalarni, shu jumladan xarajatlarni amalda pasaytirish, NMA va IMOdan foydalanish huquqlarini olishdagi xarajatlarning yo'qligi (masalan, litsenziya to'lovlarining yo'qligi, foydadan litsenziarning ehtimoliy ulushini ajratish zaruratining mavjud emasligi);

✚ ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmatlar) donasi narxining oshishi;

✚ ishlab chiqarilayotgan mahsulot (xizmatlar) sotuvlari jismoniy hajmining oshishi;

✚ baholash obyektidan foydalanishdan keladigan pul oqimi tuzilishining yaxshilanishi;

✚ ko'rsatilgan shakllarning turli xil jamlanmalari.

Baholash obyektini ishlatishdan olinadigan foydalar NMA va IMOni ishlatishdan tushadigan pul oqimining hajmi, tavakkalchiligi va vaqtini, huquq egasi NMA va IMOni ishlatmasdan olishi mumkin bo'lgan pul oqimining hajmi, tavakkalchiligi va vaqti bilan to'g'ridan to'g'ri solishtirish asosida aniqlanadi.

NMA va IMODan foydalanish huquqi taqdim etilganligi uchun to'lovlar hajmi bitim taraflari barcha zarur axborotga ega bo'lgan tarzda oqilona harakat qilganda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan eng ko'p ehtimoliy qiymat asosida hisoblanadi, to'lovlar hajmida esa hech qanday favqulodda holatlar aks etmaydi.

NMA va IMODan foydalangan holda mahsulot birligining tannarxi va narxini hisoblashda xomashyo, materiallar, butlovchi buyumlar narxlari elementlarini, tovarni ishlab chiqarish va sotishdagi oylik maoshni, boshqa xarajatlarni, shu jumladan binolar ijarasi, kommunal to'lovlar, asbob-uskunaning eskirishi va hokazolarni aniqlash zarur.

NMA va IMOni ishlatishdan tushadigan pul oqimini tuzish uchun quyidagi usullardan foydalaniladi. Agarda baholash obyektidan haqiqiy texnik-iqtisodiy samara to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lgan hollarda:

✚ foydadagi ustunlik usuli;

✚ sotish hajmidagi ustunlik usuli;

✚ tannarxidagi yutuq usuli;

✚ haqiqiy litsenziya to'lovlarini hisoblash usuli;

✚ ekspluatatsion xarajatlar tejamkorligi usuli.

Baholash obyektidan haqiqiy texnik-iqtisodiy samara to'g'risida ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda:

✚ royaltidan ozod qilish usuli;

✚ litsenziatning foydasida litsenziarning ulushini ajratish usuli;

✚ ekspert orqali foyda ulushini ajratish usuli.

Foydadagi ustunlik usuli baholash obyektidan foydalanishdan olingan qo'shimcha daromadni hisobga olishga asoslangan. Foydadagi

ustunlik deganda NMA va IMODan iborat mahsulotni sotayotgan tashkilotning NMA va IMODan foydalanish sharti bilan olayotgan, o'xshash mahsulotni ishlab chiqarayotgan yoki o'xshash xizmatlar turini ko'rsatayotgan, lekin bunday NMA va IMOga ega bo'lmagan tashkilot foydasiga nisbatan qo'shimcha sof foyda tushuniladi. O'xshash tashkilotlar bo'yicha bunday axborot bo'lmaganda, baholanayotgan tashkilotning NMA va IMODan foydalanishdan avvalgi va keyingi faoliyatining natijalarini bir tashkilot doirasida solishtirish orqali qiyoslash mumkin.

NMA va IMODan foydalanish natijasida vujudga keladigan foydadagi ustunlikni shakllanish manbasi quyidagilar bo'lishi mumkin:

- ✚ mahsulotlar (xizmatlar) birligini sotish narxlarining oshirilishi;
- ✚ mahsulotlar (xizmatlar) sotish hajmining natural ifodada oshirilishi;

- ✚ mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarilishi yoki sotilishi bilan bog'liq xarajatlarning qisqartirilishi.

Ustunlik ham retrospektiv, ham NMA va IMOga bo'lgan huquqlardan foydalanishning samarali muddatining qolgan davrida foydaning kutilayotgan ko'rsatkichlariga asoslanadi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

- ✚ NMA va IMODan foydalanish bilan ishlab chiqarilgan mahsulotning (xizmatning) narxini NMA va IMODan foydalanmasdan ishlab chiqarilgan mahsulotning (xizmatning) narxi bilan solishtirma tahlili amalga oshiriladi;

- ✚ NMA va IMODan foydalanish bilan mahsulotni (xizmatlarni) sotishdan olinishi kutilayotgan qo'shimcha daromad aniqlanadi;

- ✚ ushbu ustunlik kutilayotgan vaqt davri aniqlanadi.

4.2. Foydadagi ustunlik usuli

NMA va IMOga bo'lgan huquqlardan foydalanishdan keladigan daromad (pul oqimi) baholash obyektidan foydalanish bilan amalga oshirilayotgan faoliyatdan olinadigan foydaning bunday faoliyatni baholash obyektidan foydalanmagan holda amalga oshirishdan olingan foyda o'rtasidagi tafovut sifatida shakllanadi.

Foydadagi ustunlik quyidagi formula bilan aniqlanadi¹³:

$$ADPi = Vi * [(P \text{ before} - SP \text{ before}) (P \text{ after} - SP \text{ after})], \quad (1.3)$$

Bu yerda: **ADPi** - i-chi yilda olingan foydadagi ustunlik (qo'shimcha foyda);

Vi - i-chi yilda NMA va IMODan foydalanish bilan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

P after, before - NMA va IMODan foydalanish bilan ishlab chiqarilgan mahsulotning narxi hamda tegishli NMA va IMODan foydalanish boshlangunga qadar ishlab chiqarilgan mahsulotning narxi;

SP after, before - tegishli NMA va IMODan foydalanish bilan ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi hamda NMA va IMODan foydalanish boshlangunga qadar ishlab chiqarilgan mahsulotning tannarxi.

4.3. Sotish hajmidagi ustunlik usuli

Sotish hajmidagi ustunlik usuli baholash obyektidan foydalanmasdan mahsulot sotilishi bilan solishtirganda baholash obyektidan foydalanishda mahsulot sotilishining katta hajmi ta'minlangan hollarda qo'llaniladi. Bu, qoida tariqasida, mahsulot mashhur tovar belgisi ostida sotilayotganda va ustunlik ushbu tovar belgisiga bog'liq bo'lganda sodir bo'ladi. Ayrim hollarda NMA va IMODan foydalanish tufayli mahsulotning yuqori sifati ta'minlanadi yoki unda mahsulot birligining o'sha narxi, tannarxi yoki foydasi ko'rsatkichlarida yangi iste'molchilik xususiyatlari paydo bo'ladi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iboratdir:

✚ NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning sotish hajmini undan foydalanmasdan ishlab chiqarilgan mahsulotning sotish hajmi bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi;

✚ litsenzion mahsulotni sotish hajmidagi ustunliklardan olingan foyda miqdori aniqlanadi;

¹³ O'zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son "Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash" milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

✚ baholanayotgan NMA va IMO aniqlangan ustunlikni ta'minlaydigan davri aniqlanadi.

Sotish hajmidagi ustunlik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi¹⁴:

$$ADSi = Pi * [(Vi \text{ after} - Vi \text{ before})] - Si, \quad (1.4)$$

Bu yerda: **ADSi** - i-chi yilda olingan sotish hajmidagi ustunlik;

Vi after , **before** - i-chi yilda tegishli NMA va IMODan foydalangan va foydalanmagan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

Pi - i-chi yilda NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot narxi;

Si - NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar (xizmatlar)ni sotish bilan bog'liq xarajatlar.

Tannarxdagi yutuq ishchi kuchi, xomashyo va materiallar, energiya manbalari va boshqa xarajatlarni tejash bilan yaratilishi mumkin. Bunday hollarda NMA va IMONing qiymati tannarxdagi yutuq usuli bilan NMA va IMODan foydalanish natijasidagi xarajatlarni tejashni aniqlash orqali o'lchanadi.

Ushbu usulni qo'llash NMA va IMONing foydali xizmat qilish muddatining qolgan davridan ko'p bo'lmagan muayyan davrda tannarxdagi yutuq hajmini topishni anglatadi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

✚ NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxining NMA va IMODan foydalanmasdan ishlab chiqarilgan o'xshash mahsulot (xizmat) tannarxi bilan solishtirma tahlili amalga oshiriladi;

✚ NMA va IMODan foydalangan holda mahsulotlarni (xizmatlarni) sotishdan olinishi kutilayotgan tannarxni tejash miqdori aniqlanadi;

✚ ushbu tejash kutilayotgan vaqt davri aniqlanadi.

NMA va IMOga bo'lgan huquqlardan foydalanishdan keladigan daromad (pul oqimi) baholash obyektidan foydalangan holda amalga oshirilayotgan faoliyatdan olinadigan tannarxni bunday faoliyatni

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son "Intellektual mulk obyektlari qiymatini baholash" milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

baholash obyektidan foydalanmagan holda amalga oshirishdan olingan tannarxni tejashdagi tafovut sifatida shakllanadi.

Tannarxdagi yutuq quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi¹⁵:

$$SP_i = V_i * (SP \text{ before} - SP \text{ after}), \quad (1.5)$$

Bu yerda: **SP i** - i-chi yilda olingan tannarxdagi yutuq;

Vi - i-chi yilda NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmatlar) hajmi;

SP after, before - tegishli NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning hamda NMA va IMODan foydalanish boshlangunga qadar ishlab chiqarilgan mahsulotning (xizmatning) tannarxi.

Haqiqiy litsenziya to'lovlarini hisoblash usuli NMA va IMOning huquq egasi NMA va IMODan foydalanish huquqlarini mutlaq yoki nomutlaq litsenziya shartlarida boshqa shaxslarga topshirayotganda NMA va IMO qiymatini aniqlash uchun qo'llaniladi. Mutlaq litsenziya litsenziatga (xaridorga) sotib olingan litsenziya asosida mahsulotlar (xizmatlar) ishlab chiqarish va sotishga bo'lgan mutlaq huquqqa egalik qilish imkonini beradi. Bunday huquq uchun litsenziat litsenziarga royalti - joriy to'lovlar shaklida haq to'laydi.

Baholovchi bunday royaltlar kelib tushishining muddatlari, tartibi, davriyligi hamda litsenziya shartnomasi shartlaridan kelib chiqqan holda ularning joriy narxlardagi summasini belgilashi mumkin.

Foydalaniladigan huquqlar bahosining hisoblash qiymati ushbu holda topshirilayotgan huquqlar hajmi, royalti stavkasi, NMA va IMOga investitsiyalar qo'yishning tavakkalchilik darajasini aks ettiruvchi foiz stavkasiga bog'liq bo'ladi. Mutlaq litsenziyaning qiymati oddiy nomutlaq litsenziyaning qiymatidan qimmat bo'lishi lozim.

NMA va IMODan foydalanish uchun to'lanadigan litsenziya to'lovlaridan tushadigan daromad (pul oqimidan) muhofaza qiluvchi hujjatning amal qilishini (agarda ular mavjud bo'lsa) ta'minlash hamda

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son "Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash" milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

NMA va IMODan foydalanishga bo‘lgan huquqlarni taqdim qilish to‘g‘risida tuzilgan shartnomaga muvofiq litsenziar tomonidan qabul qilingan majburiyatlarni bajarish bilan bog‘liq xarajatlarni chiqarib tashlash zarur.

Muhofaza qiluvchi hujjatning amal qilishini ta‘minlash bilan bog‘liq xarajatlar quyidagilar hisoblanadi:

✚ patentni kuchida saqlab turish uchun patent bojlari;

✚ litsenziya shartnomasini O‘zbekiston Respublikasining Intellektual mulk agentligida ro‘yxatdan o‘tkazish uchun bojlar;

✚ litsenziya shartnomasi matniga o‘zgartishlar kiritish bilan bog‘liq bojlar (zarurat bo‘lganda).

Haqiqiy litsenziya to‘lovlaridan tushgan sof daromad (pul oqimi) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi¹⁶:

$$P_i = \sum_{i=1}^n (M_i - S_i) * (1 - TR_i),$$

Bu yerda: **P_i** - NMA va IMOga bo‘lgan huquqlardan foydalanish uchun haqiqiy litsenziya to‘lovlaridan i-chi yilda olingan sof daromad (pul oqimi);

M_i - i-chi yilda taqdim qilingan NMA va IMODan foydalanish huquqlari uchun litsenzion to‘lovlar;

S_i - i-chi yilning muhofaza qiluvchi hujjatning amal qilishini (agarda ular mavjud bo‘lsa) ta‘minlash va NMA va IMODan foydalanishga bo‘lgan huquqlarni taqdim qilish to‘g‘risida tuzilgan shartnomaga binoan litsenziar tomonidan qabul qilingan majburiyatlarning bajarilishi bilan bog‘liq xarajatlar;

TR_i - i-chi yilda foyda solig‘i stavkasi;

1,..n - qilingan xarajatlar miqdori.

NMA va IMONing huquq egasi va litsenziat o‘rtasidagi litsenziya shartnomasida litsenziya to‘lovlarini bir yilda, bir chorakda yoki bir oyda bir marta to‘lash davriyligi nazarda tutilgan taqdirda bunday davriylik baholovchining hisob-kitoblarida o‘z aksini topishi lozim.

¹⁶ O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son “Intellektual mulk obyektlari qiymatini baholash” milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

4.4. Eksploatatsion xarajatlar tejamkorligi usuli

Baholash obyektidan xo‘jalikda foydalanish baholanayotgan NMA va IMODan foydalangan holda tayyorlangan mahsulotni eksploatatsiya qilish jarayonida qilinadigan xarajatlarni tejashga imkon beradigan hollarda eksploatatsion xarajatlar tejamkorligi usuli qo‘llaniladi. Ushbu usulning qo‘llanilishi baholash obyektidan foydalangan holda tayyorlangan mahsulotni eksploatatsiya qilish vaqti davridagi eksploatatsion xarajatlarni tejash miqdorini topishni anglatadi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

✚ baholanayotgan NMA va IMODan foydalanishdan oldin ishlab chiqarilgan mahsulotning eksploatatsiya xarajatlarning baholanayotgan NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning eksploatatsiya xarajatlari bilan solishtirma tahlilini amalga oshirish;

✚ mahsulotni ishlab chiqarish davrida olinishi kutilayotgan eksploatatsion xarajatlardagi tejamkorlik o‘lchami aniqlanadi;

✚ baholanayotgan NMA va IMODan foydalangan holda unga bo‘lgan huquqlardan foydalanishning samarali muddati davrida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (xizmatlar) hajmi aniqlanadi;

✚ NMA va IMODan samarali foydalanish muddati davrida ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar hajmi bo‘yicha eksploatatsion xarajatlardagi tejamkorlik sifatida pul oqimi aniqlanadi.

Eksploatatsion xarajatlardagi tejamkorlik quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi¹⁷:

$$E_i = Q_i * (EC_i \text{ before} - EC_i \text{ after}), \quad (1.7)$$

Bu yerda: E_i - i-chi yilda olingan eksploatatsion xarajatlardagi tejamkorlik;

Q_i - NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan i-chi yilda eksploatatsiya qilinayotgan mahsulotning miqdori;

¹⁷ O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son “Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash” milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

ECi before - baholanayotgan NMA va IMODan foydalanmasdan ishlab chiqarilgan mahsulot birligi hisobi bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari;

ECi after - i-chi yilda baholanayotgan NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot birligi hisobi bo'yicha ekspluatatsiya xarajatlari.

4.5. Royaltidan ozod qilish usuli

Royaltidan ozod qilish usuli NMA va IMOga bo'lgan mulkiy huquqlar litsenziya shartnomasi bo'yicha boshqa jismoniy yoki yuridik shaxsga taqdim qilingan yoki taqdim qilinishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi.

Ushbu usul NMA va IMONing huquq egasi agarda u baholash obyektining egasi bo'lmaganda, NMA va IMOga bo'lgan huquqlardan foydalanganligi uchun uning egasiga royalti - davriy to'lovlarni to'lashga majbur bo'lganini taxmin qiladi. Biroq bunday to'lovlar o'tkazilmaydi va natijada hosil bo'lgan tejash baholash obyekti bilan yaratiladigan qo'shimcha foydaga tenglashtiriladi.

Royaltidan ozod qilish usulida ehtimoliy yillik to'lovlarning miqdori NMA va IMOni qo'llagan holda chiqarilgan mahsulotlarni (xizmatlarni) sotishdan tushgan yillik tushumni royalti stavkasiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi. Ushbu to'lovlar - royalti NMA va IMODan foydalanish bilan olinadigan sof daromad (pul oqimi) sifatida qabul qilinadi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iboratdir:

✚ royalti to'lanishi kutilayotgan davrdagi baholanayotgan NMA va IMOga bo'lgan huquqlarning samarali foydalanish muddati aniqlanadi;

✚ NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot (xizmatlar) hajmining qiymat va natural ifodadagi prognozi tuziladi. Bu ko'rsatkichlarning qiymatlari ehtimoliy royalti to'lovlarining hisobi uchun baza hisoblanadi;

✚ royalti stavkasi aniqlanadi;

✚ yillik to'lovlar (royalti) litsenzion mahsulotlarni (xizmatlarni) sotish hajmidan foiz ajratmalarni hisoblash yo'li bilan aniqlanadi;

✚ muhofaza qiluvchi hujjatni kuchda saqlab turish bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlar hamda baholanayotgan NMA va IMODan foydalanishni tashkiliy-huquqiy ta'minlash bilan bog'liq xarajatlar aniqlanadi, agarda mavjud bo'lsa;

✚ muhofaza qiluvchi hujjatni kuchda saqlab turish bilan hamda baholanayotgan NMA va IMONing tashkiliy-huquqiy ta'minlanishi bilan bog'liq bo'lgan barcha xarajatlarni ayirib tashlash yo'li bilan royalti bo'yicha sof to'lovlar oqimlari hisoblab chiqiladi.

Royaltidan ozod qilish usuli bilan NMA va IMODan olingan daromad (pul oqimi) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi¹⁸:

$$PRI = (Vi * Pi * R) - Si, \quad (1.8)$$

Bu yerda: **PRI** - i-chi yilda NMA va IMODan olingan daromad (pul oqimi);

Vi - i-chi yilda NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

Pi - i-chi yilda NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotning narxi;

R - royalti stavkasi;

Si - muhofaza qiluvchi hujjatni kuchida saqlab turish bilan hamda baholanayotgan NMA va IMODan foydalanishni tashkiliy-huquqiy ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, agarda mavjud bo'lsa.

Royaltini to'lash bazasi sifatida quyidagilar ishlatiladi:

✚ yalpi daromad (sotishdan tushadigan tushum, sotish hajmi);

✚ soliq solishgacha bo'lgan sof daromad (foйда);

✚ soliq solishdan keyingi sof daromad (foйда);

✚ NMA va IMOni sotib olgan yoki foydalanayotgan tashkilotda vujudga keluvchi qo'shimcha foйда;

✚ mahsulot (xizmatlar) birligining (partiyasining) narxi;

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son "Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash" milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

- ✚ tannarx;
- ✚ ishlab chiqarish quvvati.

Royalti stavkasi quyidagi usullar asosida aniqlanadi:

- ✚ muayyan mahsulot yoki sanoat tarmog‘i bo‘yicha yuzaga kelgan hamda ommaviy axborot vositalarida chop etiladigan royaltining standart stavkalaridan foydalanishga asoslangan usul;

- ✚ litsenziar bilan avval tuzilgan litsenziya shartnomalaridan olingan analoglarni tahlil qilishga asoslangan usul;

- ✚ litsenziarning litsenziat yalpi daromadidagi hissasini hisobga olishga asoslangan royalti stavkasini hisoblab chiqish usullari;

- ✚ solishtirma xarajatlar ko‘rsatkichlarini hisobga olishga asoslangan royalti stavkasini hisoblab chiqish usuli.

Baholovchi shuningdek litsenziya shartnomasi loyihasi shartlaridan kelib chiqqan holda royalti stavkasini belgilashi mumkin.

Ekspert orqali foyda ulushini ajratib olish usuli quyidagi holatda qo‘llanadi: NMA va IMOning qadr-qimmatini aks ettiruvchi NMA va IMOning umumiy daromaddagi ishtiroki koeffitsiyentlari asosida tashkilotning umumiy daromadidan NMA va IMOga to‘g‘ri keluvchi foyda ulushini ajratib olish baholovchi tomonidan amalga oshiriladi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

- ✚ baholanayotgan NMA va IMOga bo‘lgan huquqlardan mahsulotlar (xizmatlar) chiqarilishi kutilayotgan davrida foydalanishning samarali muddati aniqlanadi;

- ✚ ushbu NMA va IMOdan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining prognozi tuziladi;

- ✚ NMA va IMOdan foydalangan holda tayyorlangan mahsulotlarni (xizmatlarni) ishlab chiqarish va sotish chiqimlarini ayirib tashlash yo‘li bilan ishlab chiqarish foydasi aniqlanadi;

- ✚ NMA va IMOning olingan daromadga ta‘siri koeffitsiyentlari aniqlanadi;

- ✚ baholanayotgan NMA va IMOdan tushadigan daromad (pul oqimi) hisoblab chiqiladi.

Agarda NMA va IMO aniq mahsulotni (xizmatni) ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan umumiy sof daromadga ta‘sir qilsa, u holda uni

tashkilotning umumiy daromadidan quyidagi tarzda ajratib olish mumkin¹⁹:

$$PR_i = (V_i * P_i - S) * K, \quad (1.9)$$

Bu yerda: PR_i — i-chi yilda olingan NMA va IMOga to‘g‘ri keluvchi foyda;

V_i — i-chi yilda NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi;

P_i — i-chi yilda NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulot narxi;

S — mahsulotlar, ishlar va xizmatlar ishlab chiqarish chiqimlari summasi;

K — NMA va IMONing foydadagi ishtiroki koeffitsiyenti.

NMA va IMONing foydadagi ishtiroki koeffitsiyentini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi²⁰:

$$K = k_1 * k_2 * k_3, \quad (1.10)$$

Bu yerda: k_1 — erishilgan natija koeffitsiyenti;

k_2 — hal qilingan texnik vazifaning murakkablik koeffitsiyenti;

k_3 — yangilik koeffitsiyenti.

Tashkilotning daromadiga ta‘sir qiluvchi koeffitsiyentlar miqdorining qiymati O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son “Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash” milliy standarti uslubiy ko‘rsatmalarining 1-ilovasida keltirilgan jadvallardan aniqlanadi.

NMA va IMONing tashkilot daromadiga ta‘siri koeffitsiyentlari baholash obyekti qo‘llanadigan tarmoqda bilimlarga ega bo‘lgan mutaxassislar – ekspertlarni jalb qilgan holda aniqlanishi mumkin. Koeffitsiyentlarni aniqlashda ekspertlarning xolisligini ta‘minlash uchun

¹⁹ O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son “Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash” milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

²⁰ O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son “Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash” milliy standartidan (MBMS) foydalanildi.

baholanayotgan obyektini qo‘llashda erishilgan natijani tavsiflovchi sifat ko‘rsatkichlarini, hal qilingan texnik vazifaning murakkabligini hamda baholanayotgan NMA va IMOning yangiligini ushbu koeffitsiyentlar qiymatlarini avvaldan ko‘rsatmagan holda aniqlash imkonini beruvchi savollardan tarkib topgan ekspert so‘rovi anketalari tuziladi.

4.6. Litsenziatning qo‘shimcha foydasidan litsenziarning hissasini ajratib olish usuli

Litsenziatning qo‘shimcha foydasidan litsenziarning hissasini ajratib olish usuli, agarda NMA va IMOdan keluvchi daromadni (pul oqimini) ajratib olishning boshqa usullarini qo‘llash imkoni bo‘lmagan holdagina qo‘llanilishi mumkin.

Litsenziatning qo‘shimcha foydasidagi litsenziarning hissasi 25 foiz darajasida eng maqbul hisoblanadi.

Pul oqimini aniqlashning ushbu usulini qo‘llash shartlarida litsenziat o‘zining yashirin ko‘rsatkichlarini oshkor qilishga manfaatdor emas, shu bois daromad ko‘lamini ikki yildan ortiq bo‘lmagan davr bo‘yicha baholash mumkin. Bunda biznesning yangi sohasi hamda noaniq daromad miqdori uchun daromad taqsimlash mutanosibligini litsenziatning foydasiga oshirish mumkin, chunki u yuqori tavakkalchilikka yo‘liqadi. Ushbu oshirish baholovchi tomonidan baholash to‘g‘risidagi hisobotda asoslanishi lozim.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

✦ litsenziat litsenziya bo‘yicha mahsulot ishlab chiqarishga ahd qilgan davri va tegishli litsenziya to‘lovlari to‘lanishi kutilayotgan litsenziya shartnomasining amal qilish muddati aniqlanadi;

✦ litsenziat baholash obyektidan foydalanishdan olishni kutayotgan qo‘shimcha foyda aniqlanadi;

✦ litsenziatning qo‘shimcha foydasidagi litsenziarning hissasi 25 foiz darajasida belgilanadi;

✦ agarda ushbu hissa qiymatiga tuzatish kiritishning asoslangan zarurati mavjud bo‘lgan taqdirda baholovchi tomonidan litsenziatning

qo'shimcha foydasidagi litsenziarning hissasiga tuzatishning asosi va hisob-kitobi keltiriladi;

✚ NMA va IMO keltiradigan daromad (pul oqimi) aniqlanadi.

4.7. Pul oqimlarini diskontlash usuli

Daromad hisoblangandan va NMA va IMO tomonidan keltirilayotgan rejalashtirilayotgan pul mablag'lari oqimi tahlil qilingandan keyin ular joriy qiymatga aylantirilishi lozim.

NMA va IMODan keladigan har yillik daromadning uning qiymatiga aylantirilishi NMA va IMODan foydalanishdan keladigan daromadni to'g'ridan to'g'ri kapitalashtirish yoki NMA va IMODan foydalanishdan keladigan pul oqimlarini diskontlash orqali o'tkaziladi.

Pul oqimlarini diskontlash usuli kelgusidagi pul oqimlarining darajasi bir me'yorda bo'lmaganda, joriylaridan jiddiy farq qilganda, prognoz qilinayotgan kelgusidagi pul oqimlari ko'pgina prognoz yillari uchun ijobiy miqdor hisoblanganda ishlatiladi.

Pul oqimlarini diskontlash usulini amaliy qo'llash quyidagi asosiy bosqichlarni nazarda tutadi:

✚ diskontlanadigan pul oqimining miqdorini aniqlash;

✚ diskontlash stavkasini hisoblash;

✚ diskont ko'paytiruvchilarini har yillik daromadlar tushishi davrlariga muvofiq hisoblash;

✚ NMA va IMO qiymati miqdorini NMA va IMODan keluvchi har yillik daromadlarga tegishli diskont ko'paytiruvchisi bo'yicha ko'paytirish orqali aniqlash.

Diskontlash stavkasi - bu qo'yilgan kapital bo'yicha kutilayotgan daromad stavkasi bo'lib, investitsiyalarning baholash sanasidagi tavakkalchilik darajasi bilan taqqoslanadigan mavjud muqobil variantlari bo'yicha daromad stavkasi sifatida hisoblanishi mumkin. Diskontlash stavkasini hisoblash qo'llanilayotgan (soliq to'langunga qadar yoki soliq to'langanidan keyingi) pul oqimiga mos keladigan asosda, qiymatda (nominal yoki real qiymatda) va hisoblash valyutasida amalga oshirilishi lozim.

Baholash obyekti tomonidan yaratiladigan pul oqimlari uchun diskontlash stavkasi quyidagi usullar bilan aniqlanishi mumkin:

- ✚ kumulyativ tuzish usuli;
- ✚ kapitalning o'rtacha o'lchangan qiymati usuli;
- ✚ kapital aktivlarni baholash usuli.

Kumulyativ tuzish usuli bilan diskontlash stavkasini hisoblashda investitsiyalarning tavakkalsiz stavkasi NMA va IMODan xo'jalikda foydalanish tavsifiga mos keluvchi tavakkalchilikka ko'paytirilishi lozim. NMA va IMONi boshqarishda eng ko'p uchraydigan tavakkalchiliklar quyidagilar hisoblanadi:

✚ NMA va IMOGa qo'yiladigan investitsiyalardan keladigan daromad investor tomonidan avvaldan hisoblab chiqilgan daromaddan kam bo'lganligi tufayli yuzaga keluvchi investitsion tavakkalchilik;

✚ NMA va IMODan foydalangan holda mahsulot ishlab chiqarishda yuzaga keluvchi tavakkalchilik, shu jumladan bekor turib qolishlar, xomashyo, materiallar yetishmovchiligi va boshqalarni aks ettiruvchi ishlab chiqarish tavakkalchiligi;

✚ baholash obyektining foydaliligi prognoz ko'rsatkichlarini hisoblashda yuzaga keluvchi foydani prognoz qilish tavakkalchiligi;

✚ obyektни sotishdagi bozor ekspozitsiyasining (marketing vaqti) davomlilikiga tuzatishni yoki taxmin etilayotgan investorni qidirish vaqtini ifodalovchi baholanayotgan NMA va IMONing ularning tijoriy sotilishidagi yuzaga keluvchi past likvidlilik tavakkalchiligi.

Kapitalning o'rtacha o'lchangan qiymati usuli faoliyati qarz va shaxsiy mablag'lar yordamida moliyalashtiriladigan tashkilotlar uchun ishlatiladi.

Kapitalning o'rtacha o'lchangan qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$WACC = E W_c - D W_z * (1 - NP), \quad (1.11)$$

Bu yerda: **WACC** - kapitalning o'rtacha o'lchangan qiymati.

E - shaxsiy kapital qiymati.

W_c - tashkilot kapitalidagi shaxsiy mablag'lar ulushi.

D - qarz mablag'lar qiymati.

W_z - tashkilot kapitalidagi qarz mablag'lar ulushi.

NP - foyda solig'i stavkasi.

Kapital aktivlarni baholash usuli (SARM) bilan diskontlash stavkasini hisoblash erkin muomala qilinadigan aksiyalar daromadliligining o'zgarishiga taalluqli bo'lgan fond bozori ma'lumotlarini tahlil qilish asosida quyidagi formula bo'yicha o'tkaziladi:

$$D = R_f + \beta \cdot (R_m - R_f) + S_1 + S_2 + C, \quad (1.12)$$

Bu yerda: **D** – diskontlash stavkasi.

R_f – tavakkalsiz stavka.

β – beta koeffitsiyenti, tizimli tavakkalchilik ko'rsatkichi.

R_m – butun bir bozorning umumiy daromadliligi (o'rtacha bozor daromadliligi me'yori).

S₁ – kichik korxonalar uchun qarzni to'lashga qodirlik yetarli emasligi hamda yirik korxonalar bilan taqqoslaganda katta bo'lmagan miqdordagi ustav fondiga ega bo'lgan korxonalarning moliyaviy barqarorligi bilan shartlangan tavakkalchilik mukofoti.

S₂ – aniq tashkilotga investitsiyalash tavakkalchiligi uchun mukofot (tizimsiz tavakkalchiliklar).

S – 91 kapital aktivlarni baholash usuli bo'yicha barcha tarkibli qismlari sifatida faqat boshqa mamlakatlar bozori bo'yicha ma'lumotlarning hisoblanishi formulasini ishlatishda inobatga olinuvchi mamlakatga oid tavakkalchilik.

Daromadni to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli kelgusi sof daromadlar joriy daromadlarga teng bo'lishi kutilganda yoki ularning o'sish sur'ati mo'tadil va bashorat qilsa bo'ladigan hollarda ishlatiladi. Sof daromadni kapitallashtirish baholanayotgan NMA va IMOni ishlatishdan tushadigan daromad barqaror bo'lgan hollarda yetarli aniqlik bilan NMA va IMOning qiymatini aniqlashga imkon beradi.

Kapitallashtirish usulidan foydalanishda sof daromadlar miqdori NMA va IMOni ishlatishdan tushgan sof daromadlarni uning qiymatiga qaytadan hisob-kitob qilish uchun kapitallashtirish koeffitsiyentiga bo'linadi.

Kapitalizatsiya stavkasi diskontlash stavkasi summasi (investitsiyalar uchun daromad me'yorlari) va bu investitsiyalarni qaytarish stavkasi sifatida hisoblanishi mumkin.

NMA va IMO bilan yaratiladigan pul oqimlari uchun kapitallashtirish koeffitsiyenti shuningdek, o'xshash NMA va IMO bilan yaratiladigan pul oqimi miqdorini uning narxiga bo'lish orqali ham aniqlanishi mumkin.

Tayanch iboralar

Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash yondashuvlari, usullari va mezonlari. Daromadli yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari. Daromadli yondashuvning asoiy uslublari: to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli, pul oqimlarini diskontlash usuli.

Nazariy bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. Daromadli yondashuv bilan baholash asosida nomoddiy aktivlarni baholashning qaysi tamoyili yotadi?

2. Korxonani baholashda nomoddiy aktivlarning qaysi turlari baholanishi mumkin?

3. Intellektual mulk obyektlarini baholashdan oldin nimalar qilinishi mumkin?

4. Daromadli yondashuv chog'ida intellektual mulk obyektlarini baholashning qaysi usullaridan foydalaniladi va ularning mohiyati nimalardan iborat?

5. Nomoddiy aktivlarni baholashda daromadli yondashuvdan foydalanish imkoniyati nima bilan chegaralanadi?

6. Ixtiro qiymati qanday aniqlanadi va uni hisoblab chiqish uchun nima asos bo'ladi?

7. Tovar belgisining qiymati qanday aniqlanadi va uni hisoblab chiqish uchun nima asos bo'ladi?

8. Gudvilning bozor qiymati qaysi usullar bilan aniqlanadi. Ixtiro qiymati qanday aniqlanadi va uni hisoblab chiqish uchun nima asos bo'ladi?

Testlar:

1. Daromadga asoslangan yondashuv usullari to'g'ri ko'rsatilgan javobni aniqlang.

a) Daromatlarni kapitalizatsiya qilish usuli, Pul oqimini diskontlash usuli.

b) Bitimlar usuli, Kapital bozori usuli, Tarmoq koeffitsiyenti usuli.

c) Sof aktivlar usuli, Likvidatsiya qilinadigan narx usuli.

1. Kapital aktivlarni baholash usuli (SARM) bilan diskontlash stavkasini hisoblash erkin muomala qilinadigan aksiyalar daromadliligining o'zgarishiga taalluqli bo'lgan fond bozori ma'lumotlarini tahlil qilish asosida quyidagi formula bo'yicha o'tkaziladi

a) $D = R + \beta \cdot (R_m - R_f) + S_1 + S_2 + C$

b) $D = R_f + \beta \cdot (R_m - R_f) + S_1 + S_2 + C$

c) $D = R + \beta \cdot (R - R) + S_1 + S_2 + C$

1. Diskontlash stavkasi bu –

a) Pul summalarini qayta hisoblashda qo'llaniladigan daromad stavkasi.

b) Kapitalizatsiya darajasini qayta hisoblashda qo'llaniladigan daromad stavkasi.

c) Baholashda qo'llaniladigan daromad stavkasi.

2. Kapitallashuv stavkasi qancha katta bo'lsa, ...

a) mulk obyektining qiymati shuncha past bo'ladi.

b) obyektining qiymati shuncha yuqori bo'ladi.

c) obyekt qiymatiga ta'sir qilmaydi.

3. Kapitallashuv stavkasini quyidagicha hisoblash mumkin:

a) Sotish narxining sof operatsion daromadga nisbati.

b) Potensial yalpi daromadning sotish narxiga nisbati.

c) Sof operatsion daromadning sotish narxiga nisbati.

4. Kapitallashtirish bu –...

a) Baholash obyektidan kutilayotgan tushumlarni uning joriy qiymatiga aylantirish.

- b) Baholash obyektidan kutilayotgan bo'lg'usi pul oqimi.
 - c) Mulkdan foydalanishdan olinadigan davriy daromad.
5. Kapitalizasiya usuli mulkni baholashning qaysi yondashuviga mansub?
- a) Daromadli.
 - b) Qiyosiy.
 - c) Xarajatli.
6. Tannarxdagi yutuq qaysi formula yordamida aniqlanadi?
- a) $SP_i = V_i * (SP_{\text{before}} - SP_{\text{after}})$
 - b) $SP_i = S_i * (P_{\text{before}} - P_{\text{after}})$
 - c) $SP_i = V_i * (S_{\text{before}} - S_{\text{after}})$
7. Haqiqiy litsenziya to'lovlarini hisoblash usuli.....
- a) NMA va IMOning huquq egasi NMA va IMOdan foydalanish huquqlarini mutlaq yoki nomutlaq litsenziya shartlarida boshqa shaxslarga topshirayotganda NMA va IMO qiymatini aniqlash uchun qo'llaniladi.
 - b) baholash obyektidan foydalanmasdan mahsulot sotilishi bilan solishtirganda baholash obyektidan foydalanishda mahsulot sotilishining katta hajmi ta'minlangan hollarda qo'llaniladi.
 - c) baholash obyektidan foydalanishdan olingan qo'shimcha daromadni hisobga olishga asoslangan.
14. Daromadli yondashishda to'g'ridan to'g'ri kapitallashtirish usuli tamoyillarini ko'rsating.
- a) kutish tamoyili.
 - b) o'rindoshlik tamoyili.
 - c) talab va taklif tamoyili.

5-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA NOMODDIY AKTIVLARINI XARAJATLI YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMI

5.1. Xarajatli yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari

Xarajat yondashuvining asosida NMA va IMOning qiymatini ularni qayta tiklash xarajatlarini hisobga olish yo'li bilan eskirish xarajatlarini chegirib tashlagan holda daromad hajmini (agar, NMA va IMOning tavsifi bunday qayta tiklanishga yo'l qo'ysa) inobatga olgan tarzda aniqlash yotadi.

Xarajat yondashuvi - baholash obyektining eskirishini hisobga olib, uni tiklash yoki almashtirish uchun zarur bo'lgan xarajatlarni aniqlashga asoslangan baholash obyektining qiymatini baholash usullari majmuidir. Ushbu mol-mulkning o'rnini bosuvchisi sifatida aslining nusxasi bo'lgan yoki bir xilda foydali bo'la oladigan boshqa mol-mulkni yaratish imkoniyati taxmin qilinadi.

Agar tiklash baholanayotgan NMA va IMOni to'la takror ishlab chiqilishini nazarda tutsa, takror ishlab chiqish xarajatlari qiymati usuli qo'llaniladi. Agar baholanayotgan obyekt kabi xususiyatlarga ega bo'lgan boshqa NMA va IMO mavjud bo'lsa, uni shartli ravishda baholanayotgan obyektning analogi deb hisoblash va almashtirish qiymati usulini qo'llash mumkin.

Xarajat yondashuvi usullarini qo'llash NMA va IMOning tashkilot foydasiga qo'shadigan hissasi NMA va IMOni tiklashga sarflanadigan xarajatlardan ortib ketishini nazarda tutadi.

NMA va IMOni xarajat yondashuvi asosida baholashda xarajatlarning quyidagi turlarini inobatga olish lozim:

✚ NMA va IMOga bo'lgan mulkiy huquqlarni olish xarajatlari;

✚NMA va IMOni yaratish xarajatlari, shu jumladan laboratoriya tadqiqotlari, ilmiy-tadqiqotlar, tajriba-konstruktorlik, loyiha-qidiruv ishlari sarf-xarajatlari;

✚baholash obyektini yaratish ishlarida ishtirok etadigan tashkilot asosiy fondlarining amortizatsiya xarajatlari;

✚NMA va IMOni ishlab chiqarishda foydalanishga tayyor holatga yetkazish xarajatlari;

✚NMA va IMOdan foydalanish orqali tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqarishni tashkil etish yoki NMA va IMOni sotish xarajatlari;

✚NMA va IMOni huquqiy va boshqa xil muhofazalash xarajatlari;

✚boshqa ehtimoliy xarajatlar.

Xarajatli yondashuv bilan NMA va IMOni baholashda quyidagi ishlar bajariladi:

✚baholash sanasida NMA va IMOni yaratish, sotib olish va ishga tushirish bilan bogʻliq xarajatlar aniqlanadi;

✚NMA va IMOning eskirish miqdori aniqlanadi;

✚tadbirkorning foydasi aniqlanadi;

✚NMA va IMOning qiymati tadbirkorning foydasiga koʻpaytirilgan xarajatlar miqdori va eskirish miqdori oʻrtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

5.2. Xarajatli yondashuvning asosiy uslublari: yaratish qiymati usuli, takror ishlab chiqish xarajatlari qiymati usuli va almashtirish qiymati usuli.

Xarajat yondashuvi baholanayotgan NMA va IMOni tiklash xarajatlari miqdorini NMA va IMOni yaratish uchun ragʻbatlantirish sifatida kalkulyasiyaga qoʻyiladigan tadbirkorlik daromadini inobatga olgan holda eskirishni chegirgan tarzda joriy narxlarda hisoblab chiqishdan iborat.

Xarajat yondashuvining asosiy usullari quyidagilar hisoblanadi:

✚ yaratish (boshlangʻich xarajatlar) qiymati usuli;

✚ tiklash xarajatlari qiymati usuli;

✚ almashtirish qiymati usuli.

Yaratish qiymati usuli doirasida o'tmishda amalda sarflangan baholanayotgan NMA va IMOni yaratish xarajatlari indeksatsiya qilish orqali joriy qiymatga keltiriladi. NMA va IMOning qiymati joriy narxlarda baholangan va investitsiya uchun daromad stavkasiga ko'paytirilgan barcha xarajatlarni jamlash bilan aniqlanadi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iboratdir:

✚ baholanayotgan NMA va IMOni yaratish va harakatga keltirish bilan bog'liq barcha haqiqiy xarajatlar, jumladan uni foydalanishga yaroqli holatga keltirish bo'yicha xarajatlar aniqlanadi;

✚ baholash sanasi holatiga xarajatlar amalga oshirilgan paytdan boshlab narxlar (infllyasiya) indeksi miqdorida xarajatlar tuzatiladi;

✚ tuzatilgan xarajatlar jamlanadi va qabul qilingan rentabellik koeffitsiyentiga (investitsiya uchun daromad stavkasiga) ko'paytiriladi;

✚ NMA va IMOning eskirish miqdori aniqlanadi;

✚ tuzatilgan xarajatlar summasi hamda NMA va IMOning eskirish miqdori o'rtasidagi farq sifatida NMA va IMOni yaratish qiymati aniqlanadi.

NMA va IMOning qiymati ushbu usul asosida quyidagi formula bo'yicha hisoblab chiqiladi:

$$Val = Rate * K_t * \sum_{i=1}^n (C_i * K_{Indi}), \quad (1.13)$$

Bu yerda: Val - NMA va IMOning qiymati;

C_i - i-chi yilda ishlab chiqarilgan NMA va IMOni yaratish xarajatlari;

n - NMA va IMOni yaratilgan paytdan boshlab baholash sanasigacha o'tgan yillar soni;

K_{Indi} - i-chi yildagi xarajatlarning baholash sanasiga indeksatsiya koeffitsiyenti;

Rate - investitsiyalar uchun daromad me'yori;

K_t - NMA va IMOning eskirish koeffitsiyenti.

NMA va IMOni yaratish haqiqiy xarajatlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = S_1 + S_2 + S_3, \quad (1.14)$$

Bu yerda: S - NMA va IMOni yaratish haqiqiy xarajatlari;

S_1 - NMA va IMOni yaratish haqiqiy xarajatlari rentabellikni inobatga olgan holda hisoblab chiqilgan ilmiy tadqiqot ishlarini to'liq hajmda bajarish hamda texnik hujjatlarning (masalan eskizdan boshlab ish loyihasigacha) barcha bosqichlarini ishlab chiqish uchun amalda sarflangan xarajatlar summasi hisoblanadi. Bunda ilmiy-tadqiqot ishlari uchun xarajatlar qidiruv ishlari, jumladan muammoni dastlabki o'rganib chiqish, nazariy tadqiqotlar, tajribalarni o'tkazish va hisobotni tasdiqlash hamda boshqa shu kabi xarajatlardan tashkil topadi. Texnik hujjatlarni ishlab chiqish xarajatlari: eskiz, texnik va ish loyihalarini bajarish, hisob-kitoblarni bajarish, sinovlar o'tkazish, begona tashkilotlarning xizmatlari, muallif nazoratini o'tkazish va h. k.lar uchun xarajatlardan iboratdir. Texnologik va loyiha hujjatlari qisman bajariladigan yoki NMA va IMOni yaratishdan oldin faqat ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkaziladigan hollarda NMA va IMOning qiymatini hisoblash amalda bajarilgan ishlar xarajatlari bo'yicha amalga oshiriladi, tovar belgilari va sanoat namunalari uchun bu dizaynga oid xarajatlar bo'lishi mumkin;

S_2 - NMA va IMOni huquqiy muhofaza qilishning haqiqiy xarajatlari (patent (guvohnoma) olish uchun buyurtma materiallarini rasmiylashtirish, buyurtma bo'yicha yozishmalar, buyurtma topshirish, ekspertiza o'tkazish, muhofaza qiluvchi hujjatni olish va uni kuchda saqlab turish va h. k.lar uchun bo'lar to'lash);

S_3 - NMA va IMOni sanoatda ishlab chiqarishga va tijoriy sotishga tayyor holga yetkazish uchun haqiqiy xarajatlar hamda boshqa shu kabi xarajatlar.

Indeksatsiya koeffitsiyenti - nisbiy ko'rinishda muayyan vaqt davrida tovarlar narxlarining o'zgarishini tavsiflovchi iqtisodiy va statistik ko'rsatkichdir. Indeksatsiya qilishni o'tkazishda xarajatlarning elementlari bo'yicha narxlar o'zgarishi indekslariga amal qilish lozim. Xarajatlar elementlari bo'yicha narxlar o'zgarishi indekslari to'g'risida olish oson bo'lgan ishonchli axborot mavjud bo'lmaganda tegishli sanoat tarmoqlari bo'yicha narxlar o'zgarishi indekslari yoki boshqa tegishli indekslar ishlatilishi mumkin bo'ladi. Indeksatsiya qilishning

tegishli koeffitsiyenti oylik maoshning o'zgarishi, eng barqaror valyutaning o'zgarishi, materiallar, butlovchi qismlar narxlarining o'zgarishi yoki tayyor mahsulot narxining o'zgarishini aks ettiruvchi ko'rsatkich sifatida hisoblanishi mumkin.

Umumiy holatlarda indekslash koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_{\text{ind}} = P_1 / P_0, \quad (1.15)$$

Bu yerda: K_{ind} - indekslash koeffitsiyenti;

P_1 - tovarlar narxlari, oylik maosh miqdori yoki baholash sanasidagi valyutalar kursining o'zgarishi;

P_0 - tovarlar narxlari, oylik maosh miqdori yoki xarajatlarni amalga oshirish sanasidagi valyutalar kursining o'zgarishi.

Tadbirkorning daromadi (Rate) uning investitsiyalash tavakkalchiligi darajasi bo'yicha ehtimoliy o'xshash bo'lgan, masalan sanoatning tegishli tarmog'idagi kapital uchun unumdorlik stavkalaridan kelib chiqib hisoblab chiqilishi mumkin.

NMA va IMOning eskirishi yanada taraqqiy topgan o'xshash NMA va IMOlarning paydo bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan ma'naviy eskirishdan iborat. Ma'naviy eskirish sotuvlarning tushishi va NMA va IMO daromadliligining pasayishi bilan baravar yuz beradi.

NMA va IMOning eskirishi NMA va IMOni foydali ishlatish muddati va muhofaza hujjatining qolgan muddati asosida aniqlanishi mumkin. Bunda NMA va IMOni foydali ishlatish muddati shartnoma bo'yicha NMA va IMODan foydalanish huquqi berilishi mumkin bo'lgan muddat sifatida yoki NMA va IMO huquq egasining shaxsiy ishlab chiqarishida (biznesida) ishlatilishi mumkin bo'lgan muddat sifatida aniqlanadi.

NMA va IMOning eskirishi koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$K_t = 1 - FP / LP, \quad (1.16)$$

Bu yerda: K_t - NMA va IMOning eskirishi koeffitsiyenti;

FP - huquqiy muhofazasiga ega bo'lgan baholash obyektlari uchun ustuvorlik sanasidan (muhofaza qiluvchi hujjatga binoan) baholash

sanasigacha bo'lgan haqiqiy muddat yoki huquqiy muhofazasiga ega bo'lmagan baholash obyektlari uchun NMA va IMODan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish boshlangandan haqiqiy muddat;

LP - huquqiy muhofazasiga ega bo'lgan baholash obyektlari uchun huquqlarning (muhofaza qiluvchi hujjatga binoan) nominal amal qilish muddati, yoki huquqiy muhofazasiga ega bo'lmagan baholash obyektlari uchun ishlab chiqarish faoliyatida foydalanishning muddati.

Tiklanish qiymati usulining asosida tashkilot daromadi miqdorini inobatga olgan holda tiklash xarajatlarini hisoblash asosida NMA va IMOga bo'lgan huquqlarning qiymatini aniqlash yotadi. Bunday tiklash baholanayotgan NMA va IMO ni baholash sanasi holatiga joriy narxlarda yaratish kalkulyatsiyasini to'liq aslicha tiklashni (modellashtirishni) nazarda tutadi.

Bu usul baholash obyektini yaratish uchun haqiqiy ma'lumotlar bilan hujjatli tasdiqlash imkoniyati mavjud bo'lmagan taqdirda eng maqbul usul hisoblanadi. Ushbu usulni ishlatishda NMA va IMOning tiklanish qiymati (tiklash qiymati) uning yangi aniq nusxasini yaratish uchun zarur bo'lgan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi. Ushbu xarajatlar aynan o'xshash xomashyo, materiallar, energiya manbalari, tarmoqdagi o'rtacha mehnatga haq to'lash va boshqa xarajatlarga nisbatan baholash sanasidagi amaldagi narxlar asosida hisoblanishi lozim.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iborat:

✚ NMA va IMO ni yaratish va rejalashtirilgan maqsadlarda foydalanishga tayyor holga keltirish bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan barcha zarur xarajatlar aniqlanadi;

✚ baholash sanasi holati bo'yicha xomashyo, materiallar, energiya manbalari, butlovchi buyumlar, tarmoqda tegishli malakaga ega bo'lgan ishchilarning mehnatiga o'rtacha haq to'lash bo'yicha axborot hamda baholanayotgan NMA va IMO uchun xos bo'lgan boshqa narsalarga nisbatan narxlar belgilanadi;

✚ NMA va IMO ni yaratish qiymatining kalkulyatsiyasi aniqlanadi;

✚NMA va IMO qiymatining tiklanish qiymati tadbirkor daromadiga (investitsiya uchun daromad stavkasi) ko'paytirilgan xarajatlar summasi sifatida aniqlanadi;

✚NMA va IMOni ehtimoliy eskirish miqdori hisoblanadi;

✚baholash obyektining qiymati NMA va IMOning tiklanish qiymati hamda eskirish miqdori o'rtasidagi farq sifatida aniqlanadi.

Almashtirish qiymati usuli baholanayotgan NMA va IMOning yangi aniq nusxasini aslicha yaratish mumkin bo'lmaganda, lekin iste'molchilik xususiyatlari bilan baholanayotgan NMA va IMOga o'xshash bo'lgan, biroq albatta tashqi ko'rinishi va uning tarkibiy elementlari bo'yicha aynan bir xil bo'lmagan analogi bilan almashtirilishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi.

NMA va IMOni almashtirish qiymati o'zining iste'molchilik, funksional, iqtisodiy ko'rsatkichlari bo'yicha baholash obyektining teng qimmatli o'rnini bosuvchisi bo'lishi mumkin bo'lgan, undan eng samarali foydalanilishini ta'minlay oladigan NMA va IMOning analogini yaratish (ishlab chiqish) yoki sotib olish xarajatlarining baholash sanasi holati bo'yicha joriy qiymati to'g'risidagi axborotga asosan aniqlanadi.

Almashtirish qiymati usulidan foydalanishda NMA va IMO qiymati o'xshash foydaliligi yoki o'xshash iste'molchilik qiymatiga ega bo'lgan NMA va IMOni sotib olishda to'lanishi lozim bo'lgan narxi bilan aniqlanishiga asoslangan almashtirish tamoyilidan foydalaniladi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iboratdir:

✚bozor o'rganib chiqiladi va NMA va IMOning o'xshash foydaliligi yoki o'xshash xususiyatlariga ega bo'lgan analoglari aniqlanadi, ularning bozor qiymati yoki ularni yaratish xarajatlari summasi belgilanadi;

✚analoglar qiymatlari (yoki yaratish xarajatlari), agarda analogni sotish (yoki taklif etish) sanasi baholanayotgan NMA va IMOni baholash sanasidan farq qilsa, baholash sanasi holatiga indeksatsiya yo'li bilan keltiriladi;

✚baholash obyektining analogiga nisbatan baholash obyektining eskirishi miqdorini aniqlash;

✚ baholash obyektining bozor qiymatini baholash obyektiga o'xshash bo'lgan yangi obyektning yaratish xarajatlaridan baholash obyektining eskirish miqdorini chegirib tashlash yo'li bilan hisoblash yoki teng foydalilikka ega analogni sotib olishda to'lanishi lozim bo'lgan eng kam narxdan kelib chiqib NMA va IMOning qiymatini aniqlash.

Baholash obyektiga o'xshash yangi obyektning yaratish xarajatlari summasi analogni yaratish hamda uni foydalanish uchun tayyor holatga keltirish bilan bog'liq bevosita va bilvosita xarajatlarni, shuningdek tadbirkor daromadi – NMA va IMOni yaratishga investitsiya uchun eng ehtimoliy mukofot miqdorini o'z ichiga oladi.

Tayanch iboralar

Xarajatli yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari. Xarajatli yondashuvning asosiy usullari: yaratish qiymati usuli, takror ishlab chiqish xarajatlari qiymati usuli va almashtirish qiymati usuli.

Nazariy bilimni tekshirish uchun savollar

1. Xarajatli yondashuv bilan baholash asosida nomoddiy aktivlarni baholashning qaysi tamoyili yotadi?
2. Xarajatli yondashuv chog'ida intellektual mulk obyektlarini baholashning qaysi usullaridan foydalaniladi va ularning mohiyati nimalardan iborat?
3. Nomoddiy aktivlarni baholashda xarajatli yondashuvdan foydalanish imkoniyati nima bilan chegaralanadi?
4. Ixtiro qiymati qanday aniqlanadi va uni hisoblab chiqish uchun nima asos bo'ladi?
5. Tovar belgisining qiymati qanday aniqlanadi va uni hisoblab chiqish uchun nima asos bo'ladi?
6. Gudvillning bozor qiymati qaysi usullar bilan aniqlanadi. Ixtiro qiymati qanday aniqlanadi va uni hisoblab chiqish uchun nima asos bo'ladi?

Testlar:

2. Yaratish qiymati usuli nechta bosichda amalga oshiriladi?

- a)5
- b)4
- c)6
- d)8

3. Yaratish qiymati usuli asosida NMA va IMOning qiymati qaysi formula yordamida aniqlanadi?

a) $Val=Rate \cdot Kt \sum_{i=1}^n (Ci - Kindi)$

b) $Val=Rate \cdot Kt \sum_{i=1}^n (Ci - Ki)$

c) $Val=Rate \cdot Kt \sum_{i=1}^n (Pi - Kindi)$

d) $D = R + \beta \cdot (R - R) + S1 + S2 + C$

4. NMA va IMOni yaratish haqiqiy xarajatlari qaysi formula yordamida aniqlanadi?

a) $S = S_1 + S_2 + S_3$

b) $Val=Rate \cdot Kt \sum_{i=1}^n (Ci - Kindi)$

c) $WACC = EWc - DWz \cdot (1 - TP)$

d) $Val=Rate \cdot Kt \sum_{i=1}^n (Ci - Ki)$

5. Indeksatsiya koeffitsiyenti bu

a) nisbiy ko'rinishda muayyan vaqt davrida tovarlar narxlarining o'zgarishini tavsiflovchi iqtisodiy va statistik ko'rsatkichdir.

b) nisbiy ko'rinishda muayyan vaqt davrida tovarlar narxlarining o'zgarishini tavsiflovchi ijtimoiy ko'rsatkichdir.

c) huquqiy ko'rsatkich.

d) manfiy ko'rinishda muayyan vaqt davrida tovarlar narxlarining o'zgarishini tavsiflovchi ijtimoiy ko'rsatkichdir.

6. Indeksflash koeffitsiyenti qaysi formula yordamida aniqlanadi?

a) $K_{ind} = P_1 / P_0$

b) $K_{ind} = P_1 / P$

c) $K_t = P_1 / P_0$

d) $Val=Rate \cdot Kt \sum_{i=1}^n (Ci - Ki)$

7. NMA va IMOning eskirishi koeffitsiyenti qaysi formula yordamida aniqlanadi?

- a) $K_t = 1 - FP / LP$
- b) $K_t = 1 - F / L$
- c) $K_{\text{indi}} = 1 - FP / LP$
- d) $K_t = P_1 / P_0$

8. FP bu -

a) huquqiy muhofazasiga ega bo'lgan baholash obyektlari uchun ustuvorlik sanasidan (muhofaza qiluvchi hujjatga binoan) baholash sanasigacha bo'lgan haqiqiy muddat yoki huquqiy muhofazasiga ega bo'lmagan baholash obyektlari uchun NMA va IMODan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish boshlangandan haqiqiy muddat.

b) huquqiy muhofazasiga ega bo'lgan baholash obyektlari uchun huquqlarning (muhofaza qiluvchi hujjatga binoan) nominal amal qilish muddati, yoki huquqiy muhofazasiga ega bo'lmagan baholash obyektlari uchun ishlab chiqarish faoliyatida foydalanishning muddati.

c) huquqiy muhofazasiga ega bo'lgan baholash obyektlari uchun huquqlarning (muhofaza qiluvchi hujjatga binoan), yoki huquqiy muhofazasiga ega bo'lmagan baholash obyektlari uchun ishlab chiqarish faoliyatida foydalanishning muddati.

d) NMA va IMODan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanish boshlangandan haqiqiy muddat.

9. Tiklanish qiymati usuli.

a) tashkilot daromadi miqdorini inobatga olgan holda tiklash xarajatlarini hisoblash asosida NMA va IMOga bo'lgan huquqlarning qiymatini aniqlash.

b) baholanayotgan NMA va IMOning yangi aniq nusxasini aslicha yaratish mumkin bo'lmaganda, lekin iste'molchilik xususiyatlari bilan baholanayotgan NMA va IMOga o'xshash bo'lgan, biroq albatta tashqi ko'rinishi va uning tarkibiy elementlari bo'yicha aynan bir xil bo'lmagan analogi bilan almashtirilishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi.

c) o'tmishda amalda sarflangan baholanayotgan NMA va IMOni yaratish xarajatlarini qilish orqali joriy qiymatga keltiriladi.

d) NMA va IMOga o'xshash bo'lgan, biroq albatta tashqi ko'rinishi va uning tarkibiy elementlari bo'yicha aynan bir xil bo'lmagan analogi bilan almashtirilishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi

10. Almashtirish qiymati usuli bu –

a) baholanayotgan NMA va IMOning yangi aniq nusxasini aslida yaratish mumkin bo'lmaganda, lekin iste'molchilik xususiyatlari bilan baholanayotgan NMA va IMOga o'xshash bo'lgan, biroq albatta tashqi ko'rinishi va uning tarkibiy elementlari bo'yicha aynan bir xil bo'lmagan analogi bilan almashtirilishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi.

b) tashkilot daromadi miqdorini inobatga olgan holda tiklash xarajatlarini hisoblash asosida NMA va IMOga bo'lgan huquqlarning qiymatini aniqlash.

c) o'tmishda amalda sarflangan baholanayotgan NMA va IMOning yaratish xarajatlari indeksatsiya qilish orqali joriy qiymatga keltiriladi.

d) NMA va IMOga o'xshash bo'lgan, biroq albatta tashqi ko'rinishi va uning tarkibiy elementlari bo'yicha aynan bir xil bo'lmagan analogi bilan almashtirilishi mumkin bo'lganda qo'llaniladi.

6-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA NOMODDIY AKTIVLARNI QIYOSIY YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMI

6.1. Qiyosiy yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari

Qiyosiy yondashuv o'xshash turdagi NMA va IMolar faol sotilayotgan va xarid qilinayotgan samarali faoliyat ko'rsatuvchi bozor tamoyiliga asoslangan. Qiyosiy yondashuv baholash obyektiga o'xshash obyektlar bo'yicha tuzilgan bitimlarga oid ma'lumotlarini qiyoslashni nazarda tutadi. Qiyosiy yondashuvda baholash obyekti bozorda sotilgan shunga o'xshash obyektlar bilan solishtiriladi.

Qiyosiy yondashuvni qo'llash baholash obyekti o'xshashlarining (keyingi o'rinlarda analoglar deb yuritiladi) narxlari haqidagi ishonchli va to'liq axborot hamda ular bilan amalga oshiriladigan bitimlarning haqiqiy shartlari mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Bunda bitimlar narxlari, taklif va talab haqidagi axborotdan foydalanilishi mumkin.

Qiyosiy yondashuvni qo'llash baholash obyekti o'xshashlarining (keyingi o'rinlarda analoglar deb yuritiladi) narxlari haqidagi ishonchli va to'liq axborot hamda ular bilan amalga oshiriladigan bitimlarning haqiqiy shartlari mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi. Bunda bitimlar narxlari, taklif va talab haqidagi axborotdan foydalanilishi mumkin.

NMA va IMOning bozor qiymatini qiyosiy yondashuvdan foydalangan holda aniqlash analoglar narxlariga ularning baholanayotgan NMA va IMOdan farqini bartaraf qilish imkonini beruvchi tuzatishlar kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi.

6.2. Qiyoslash uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan eng muhim taqqoslash elementlari. Ma‘lumotlarni tanlash va izlash xususiyatlari

Qiyosiy yondashuv tegishli solishtirish elementlari asosida tanlab olinadigan analoglar narxlaridan foydalangan holda qo‘llaniladi. Solishtirish elementlariga o‘zgarib turishi baholash obyektining bozor qiymatiga ta’sir qiluvchi omillar hamda bozorda yuzaga kelgan NMA va IMO bilan bog‘liq bitimlar tavsiflari taalluqlidir.

Eng muhim solishtirish elementlari quyidagilar hisoblanadi:

✚NMA va IMOga bo‘lgan baholanayotgan mulkiy huquqlar hajmi;

✚NMA va IMO bilan bog‘liq bitimlarni moliyalashtirish shartlari (shaxsiy va qarz mablag‘larining nisbati, qarz mablag‘larini taqdim qilish shartlari);

✚analog bilan bog‘liq bitim tuzilgan sanadan boshlab baholash o‘tkazilgan sanagacha bo‘lgan davrda NMA va IMO narxlarining o‘zgarishi;

✚NMA va IMO foydalanilgan yoki foydalanilishi mumkin bo‘lgan sanoat tarmog‘i;

✚NMA va IMO hamda analogga bo‘lgan taqdim etilayotgan huquqlar amal qiladigan hudud;

✚baholash obyektining analogga nisbatan funksional, texnologik, iqtisodiy tavsiflari;

✚NMA va IMOdan foydalangan holda ishlab chiqarilishi yoki sotilishi mumkin bo‘lgan mahsulotga talab;

✚raqobatlashuvchi takliflarning mavjudligi;

✚NMA va IMOdan foydalangan holda ishlab chiqarilgan mahsulotni (ishlarni, xizmatlarni) sotishning nisbiy hajmi;

✚NMA va IMO hamda analogdan foydali foydalanish muddati;

✚ishlab chiqarishda NMA va IMO ni hamda analogni o‘zlashtirish xarajatlarining darajasi;

✚to‘lov shartlari hamda NMA va IMO bilan bog‘liq bitimlarni tuzish holatlari.

Tuzatishlar miqdorlari quyidagi usullar bilan aniqlanadi:

✚ bir solishtirish elementi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi analoglar narxlarini to'g'ridan to'g'ri juft-jufti bilan solishtirish hamda shunday tarzda olingan axborot asosida ushbu solishtirish elementi bo'yicha tuzatishlarni aniqlash;

✚ bir solishtirish elementi bo'yicha bir-biridan farq qiluvchi ikkita analoglarning daromadini (foydasini) to'g'ridan to'g'ri juft-jufti bilan solishtirish, hamda daromadlardagi farqlarni kapitallashtirish yo'li bilan ushbu solishtirish elementi bo'yicha tuzatishlarni aniqlash;

✚ analogning baholash obyektidan farq qiladigan solishtirish elementi tavsifining o'zgarishi bilan bog'liq xarajatlarni aniqlash orqali;

✚ analoglar narxlariga tuzatishlarni ekspert yo'li bilan asoslash.

6.3. Qiyosiy yondashuvning asosiy uslublari: sotib olish qiymati usuli va sotuvlarni qiyosiy tahlil qilish usuli

Baholash obyektining qiymatini qiyosiy yondashuv usuli bilan baholashda baholashning quyidagi usullaridan foydalaniladi:

✚ sotib olish qiymati usuli;

✚ sotuvlarni qiyosiy tahlil qilish usuli.

Qiyosiy yondashuv bilan baholash obyektining qiymatini aniqlash quyidagi asosiy bosqichlarni o'z ichiga oladi:

✚ baholash obyektini analoglari bilan taqqoslashni amalga oshiriladigan elementlarini (keyingi o'rinlarda taqqoslash elementlari deb yuritiladi) aniqlash;

✚ baholash obyektidan har bir analogning har bir taqqoslash elementi bo'yicha tavsifi va farqlari darajasini aniqlash;

✚ baholash obyektidan har bir analogning taqqoslash elementlari bo'yicha tegishli tavsiflari va farqlari darajasiga mos ravishda analoglar narxlariga tuzatishlarni aniqlash;

✚ har bir analogning har bir taqqoslash elementlari bo'yicha narxini uning baholash obyektidan farqi bo'yicha tuzatish;

✚ analoglarining tuzatishlar kiritilgan narxlarini asoslangan holda umumlashtirish orqali baholash objekti qiymatini hisoblash.

Sotib olish qiymati usuli baholash obyektining analogi uning bozor qiymatini aks ettirayotgan narx bo'yicha bozorda sotib olinishini nazarda tutadi. U baholanayotgan NMA va IMOning bozor qiymatini hisoblash uchun foydalanilishi mumkin, bunda baholanayotgan NMA va IMO hamda bozorda mavjud analogining taqqoslanishini ta'minlovchi tuzatishlar kiritiladi.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iboratdir:

✚ o'xshash NMA va IMolar bo'yicha tuzilgan bitimlar to'g'risidagi axborot to'planadi;

✚ NMA va IMOni tanlab olingan analoglari bilan taqqoslanishi o'tkaziladigan solishtirish elementlari ro'yxati aniqlanadi;

✚ baholanayotgan NMA va IMO bilan solishtirish elementlari qiymatlarini hisobga olgan holda tuzilgan bitimlarning haqiqiy narxlari tuzatiladi;

✚ taqqoslanayotgan bitimlar bo'yicha tuzatilgan haqiqiy ma'lumotlar asosida baholanayotgan NMA va IMOning qiymati aniqlanadi.

Sotuvlarning qiyosiy tahlili usuli NMA va IMOning qiymatini taqqoslash uchun tanlab olingan o'xshash obyektlar sotuvlari narxiga tuzatishlar kiritish yo'li bilan hisoblashga imkon beradi.

Analog hamda NMA va IMOning taqqoslanuvchi parametrlari aynan bir bozordagi sotilish sanasi yoki taklif sanasi, iqtisodiy shartlari, fizik tavsiflari va raqobatdoshligiga nisbatan o'xshash bo'lishi lozim, ya'ni talab va taklif jihatdan ular taxminan bir xil holatda bo'lishi lozim. Aks holda taqqoslanayotgan analogdan qiymat ko'rsatkichlarini ko'chirish noto'g'ri natijalarga olib kelishi mumkin.

Ushbu usul quyidagi bosqichlardan iboratdir:

✚ baholash obyektiga o'xshash bo'lgan obyektlar bilan tuzilgan bitimlar to'g'risidagi, ularning sotilishi takliflari to'g'risidagi axborotni yig'ish maqsadida bozorni o'rganish o'tkaziladi;

✚ NMA va IMO hamda uning analogi taqqoslanishi o'tkaziladigan solishtirish elementlari ro'yxati aniqlanadi, taqqoslanayotgan obyektlar farqlanuvchi xususiyatlarining ularning qiymatiga ta'siri darajasi aniqlanadi;

✚ baholash obyektini tanlab olingan bozorda sotilgan yoki sotishga taklif qilinayotgan obyektlar - analoglar bilan alohida ko'rsatkichlar bo'yicha solishtirilishi o'tkaziladi;

✚ analog obyekt qiymatiga nisbatan solishtirish elementlari bo'yicha tuzatishlar aniqlanadi;

✚ analog - obyektning qiymatiga tuzatishlar kiritish asosida NMA va IMONing qiymati aniqlanadi.

Sotuvlarning qiyosiy tahlili usuliga binoan NMA va IMONing bozor qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V = V_{kor} \pm Kor, \quad (1.17)$$

Bu yerda: V - NMA va IMONing bozor qiymati;

V_{kor} - analog qiymatining tuzatilgan miqdori;

Kor - baholash sanasi holatiga taqqoslanayotgan analogning tuzatilgan qiymati miqdoriga umumiy tuzatishlar miqdori.

NMA va IMO analogining tuzatilgan qiymati miqdori narxning amal qilishi sanasi holatiga quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$V_{kor} = P_a * K_{inf} - A, \quad (1.18)$$

Bu yerda: P_a - sotuv kuni holatiga taqqoslanayotgan obyektning (analogning) sotilish narxi;

K_{inf} - analog bilan bitim tuzilgan sanadan boshlab baholash sanasiga qadar bo'lgan davr uchun inflyatsiya indeksining o'zgarishlarini inobatga oluvchi koeffitsiyent;

A - analog bilan bitim tuzilgan sanadan boshlab baholash sanasiga qadar bo'lgan davr uchun quyidagi formulaga binoan aniqlanadigan hisoblangan amortizatsiya miqdori:

$$A = P_a * P_t / Per_A, \quad (1.19)$$

Bu yerda: P_t - analog bo'yicha bitim tuzilgan sanadan boshlab baholash sanasiga qadar bo'lgan davr (oylarda);

Per_A - baholanayotgan NMA va IMOning ehtimoliy xizmat muddatidan kelib chiqqan holda aniqlanadigan amortizatsiyaning to'liq muddati (oylarda).

NMA va IMOning iste'molchilik xususiyatlari ko'p sonli parametrlar bilan aniqlanadi va baholash sanasi holatiga uning to'liq analogi yoki o'xshash obyektlar bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha axborot umuman bo'lmasligi mumkin. Sotuvlarning qiyosiy tahlilini o'tkazishda mutlaqo bir xil bo'lgan NMA va IMolar bo'lmasligi hamda ulardan bir xilda foydalanish shartlari bo'lmasligini tushunish lozim.

Qiyosiy yondashuv afzalliklari:

✚ Yakuniy qiymatda tipik sotuvchilar va xaridorlarning fikri aks etadi.

✚ Sotish narxlarida moliyaviy shartlar va inflyatsiya o'zgarishlari aks etadi.

✚ Statik asoslangan.

✚ Taqqoslanayotgan obyektlar tafovutiga tuzatishlar kiritiladi.

✚ Qo'llash yetarli darajada sodda va ishonchli natijalar beradi.

Qiyosiy yondashuv kamchiliklari sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

✚ Sotishdagi tafovutlar.

✚ Sotishlarning amaliy narxlari haqida ma'lumotlar to'plash murakkabligi.

✚ Bitimning o'ziga xos shartlari haqida axborotlar to'plash muammoligi.

✚ Bozor faolligiga bog'liqlik.

✚ Bozor barqarorligiga bog'liqlik.

✚ Jiddiy farqlanuvchi sotishlar haqida ma'lumotlarni muvofiqlashtirish murakkabligi.

Tayanch iboralar

Qiyosiy yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari. Taqqoslash uchun bazaviy obyektlarni tanlash. Qiyosiy yondashuvning asosiy uslublari: sotib olish qiymati usuli va sotuvlarni qiyosiy tahlil qilish usuli. Ma'lumotlarni tanlash va izlash xususiyatlari.

Nazariy bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. Qiyosiy yondashuv bilan baholash asosida nomoddiy aktivlarni baholashning qaysi tamoyili yotadi?
2. Korxonani baholashda nomoddiy aktivlarning qaysi turlari baholanishi mumkin?
3. Qiyosiy yondashuv chog'ida intellektual mulk obyektlarini baholashning qaysi usullaridan foydalaniladi va ularning mohiyati nimalardan iborat?
4. Nomoddiy aktivlarni baholashda qiyosiy yondashuvdan foydalanish imkoniyati nima bilan chegaralanadi?

Testlar:

1. Qaysi usul faol bozorsiz mavjud bo'la olmaydi?
 - a) sotishlarni taqqoslash usuli;
 - b) ekspert usuli;
 - c) bo'laklash usuli;
 - d) pul oqimlarini diskontlash usuli.
2. Quyidagilarning qaysi biri solishtirma yondashuvni qo'llashda solishtirma element hisoblanmaydi?
 - a) diskontlash stavkasi;
 - b) sotish shartlari;
 - c) moliyalash shartlari;
 - d) joylashgan joy.
3. Bir xil foydalilik yoki daromadlilikka ega bir nechta obyekt mavjudligida narxi minimal bo'lgani eng katta talab bilan foydalanilishini qaysi tamoyil tasdiqlaydi?
 - a) O'rin almashtirish tamoyili.
 - b) Mutanosiblik tamoyili.
 - c) Qiymat o'zgarishi tamoyili.
 - d) Ulush tamoyili.
4. Nomoddiy aktiv qiymatini baholashda narxlarning real qiymatini hisoblaganda joriy yilgi inflyatsiya darajasiga korrektirovka qilish kerakmi?

- a) Ha korrekcirovka qilish kerak.
- b) Ha, resurslarga qilingan umumiy xarajatlarni hisoblaganda.
- c) Yo‘q, xojati yo‘q.
- d) Ha, aktivlarga qilingan umumiy xarajatlarni hisoblaganda.

5. Qiyosiy yondashuvda obyektga qaysi tamoyil asosida tuzatish kiritiladi?

- a) O‘rin almashtirish.
- b) Kutish.
- c) Foydalilik tamoyili.
- d) Qoldiq unumdorlik tamoyili.

6. Qiyosiy yondashuv bu –

a) analoglar narxlariga ularning baholanayotgan NMA va IMOdan farqini bartaraf qilish imkonini beruvchi tuzatishlar kiritish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

b) baholanayotgan NMA va IMOni tiklash xarajatlari miqdorini NMA va IMOni yaratish uchun rag‘batlantirish sifatida kalkulyasiyaga qo‘yiladigan tadbirkorlik daromadini inobatga olgan holda eskirishni chegirgan tarzda joriy narxlarda hisoblab chiqishdan iborat.

c) NMA va IMOga huquqlarga ega bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxs olayotgan yoki olishi mumkin bo‘lgan foydalar miqdorini aniqlash mumkin bo‘lgan hollarda NMA va IMOni baholash uchun qo‘llanadi.

d) jismoniy shaxs olayotgan yoki olishi mumkin bo‘lgan foydalar miqdorini aniqlash mumkin bo‘lgan hollarda NMA va IMOni baholash uchun qo‘llanadi.

7. Eng muhim solishtirish elementlari to‘liq keltirilgan bandni aniqlang.

a) NMA va IMOga bo‘lgan baholanayotgan mulkiy huquqlar hajmi; NMA va IMO bilan bog‘liq bitimlarni moliyalashtirish shartlari (shaxsiy va qarz mablag‘larining nisbati, qarz mablag‘larini taqdim qilish shartlari)

- b) shartnomaviy yillik ijara to‘lovi;
- c) diskontlash stavkasi;
- d) Indeksatsiya koeffitsiyenti.

8. NMA va IMOni baholashning qiyosiy yondashuvi doirasida

baholashning qanday usullaridan foydalaniladi?

- a) sotib olish qiymati usuli; sotuvlarning qiyosiy tahlili usuli.
- b) royaltidan ozod qilish usuli;
- c) sotuv hajmidagi ustunlik usuli;
- d) Pul oqimlarini diskontlash usuli.

9. Tuzatishlar miqdorlarini aniqlashning nechta usuli mavjud?

- a) 4
- b) 5
- c) 2
- d) 6

10. Sotib olish qiymati usuli

a) baholash obyektining analogi uning bozor qiymatini aks ettirayotgan narx bo'yicha bozorda sotib olinishini nazarda tutadi.

b) NMA va IMOning qiymatini taqqoslash uchun tanlab olingan o'xshash obyektlar sotuvlari narxiga tuzatishlar kiritish yo'li bilan hisoblashga imkon beradi.

c) baholanayotgan NMA va IMOni tiklash xarajatlari miqdorini NMA va IMOni yaratish uchun rag'batlantirish sifatida kalkulyasiyaga qo'yiladigan tadbirkorlik daromadini inobatga olgan holda eskirishni chegirgan tarzda joriy narxlarda hisoblab chiqishdan iborat.

d) NMA va IMOga huquqlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxs olayotgan yoki olishi mumkin bo'lgan foydalar miqdorini aniqlash mumkin bo'lgan hollarda NMA va IMOni baholash uchun qo'llanadi.

11. Sotuvlarning qiyosiy tahlili usuli

a) NMA va IMOning qiymatini taqqoslash uchun tanlab olingan o'xshash obyektlar sotuvlari narxiga tuzatishlar kiritish yo'li bilan hisoblashga imkon beradi.

b) baholash obyektining analogi uning bozor qiymatini aks ettirayotgan narx bo'yicha bozorda sotib olinishini nazarda tutadi.

c) baholanayotgan NMA va IMOni tiklash xarajatlari miqdorini NMA va IMOni yaratish uchun rag'batlantirish sifatida kalkulyatsiyaga qo'yiladigan tadbirkorlik daromadini inobatga olgan holda eskirishni chegirgan tarzda joriy narxlarda hisoblab chiqishdan iborat.

d) NMA va IMOga huquqlarga ega bo'lgan yuridik va jismoniy

shaxs olayotgan yoki olishi mumkin bo'lgan foydalar miqdorini aniqlash mumkin bo'lgan hollarda NMA va IMOni baholash uchun qo'llanadi.

12. Sotuvlarning qiyosiy tahlili usuliga binoan NMA va IMOning bozor qiymati qaysi formula yordamida aniqlanadi?

a) $V = V_{kor} \pm Kor$

b) $V = V_{or} \pm Kor$

c) $V = V_{kor} \pm Kt$

d) $K_t = P_1 / P_0$

13. NMA va IMO analogining tuzatilgan qiymati miqdori narxning amal qilishi sanasi qaysi formula yordamida aniqlanadi?

a) $V_{kor} = P_a * K_{inf} - A$

b) $V = V_{kor} \pm Kor$

c) $V = V_{kor} \pm Kt$

d) $K_t = P_1 / P_0$

7-MAVZU. NOMODDIY AKTIVLARNING ALOHIDA TURLARINI BAHOLASH XUSUSIYATLARI

7.1.Tovar belgisi qiymatini baholash

Tijorat foydalarini olish uchun ishlatilmaydigan, asosan ekologik, ijtimoiy, ilmiy yoki ta'lim vazifalarini yechishda foydalaniladigan noyob NMA va IMOlarni baholashda ularning bozor qiymatini baholashning yagona yondashuvi xarajat yondashuvi hisoblanadi.

Tovar belgisini baholashning xususiyatlari shundan iboratki, tovar belgisi kabi obyektlarni baholash uchun huquqlarning qiymatini belgilash uchun ko'rsatkichlarni tanlab olishda butun NMA va IMOning qiymatini baholash asoslanadigan fundamental tamoyillarga amal qilish tavsiya etiladi. Tovar belgisiga bo'lgan huquqlarning qiymati faqat ushbu huquqlardan mavjud yoki eng yaxshi foydalanishda ularning egasiga keltiriladigan daromadlar bilan aniqlanadi.

Tovar belgisini xarajat yondashuvi asosida baholashda xarajatlar sifatida quyidagi xarajatlar turlari hisobga olinadi:

- ✚ tovar belgisini yaratish xarajatlari;
- ✚ tovar belgisini huquqiy va boshqa muhofazasi xarajatlari;
- ✚ baholanayotgan tovar belgisi ostidagi mahsulotlarning (xizmatlarning) marketing tadqiqotlari xarajatlari;
- ✚ reklama tadbirlari xarajatlari.

Amaldagi tovar belgisini baholashdan o'tkazish uchun tashkilotning so'nggi bir necha yillar uchun moliyaviy hisobotlarining tahlili o'tkaziladi. Bunda baholash to'g'risidagi hisobotga "Faoliyatning moliyaviy ko'rsatkichlari tahlili" bo'limi kiritiladi.

Tovar belgisidan olinadigan daromadlarni daromad yondashuvi doirasida baholashda quyidagi asosiy usullar qo'llaniladi:

- ✚ foydadagi ustunlik usuli;
- ✚ ortiqcha foydalar usuli;

✚ tovar belgisidan olinadigan qo‘shimcha daromadni ajratib olish usuli;

✚ royaltidan ozod qilish usuli.

Daromad yondashuvidan foydalanishda, qoida tariqasida, tovar belgisi mahsulotlar (xizmatlar) qiymatini yaratishda boshqa aktivlar (ko‘chmas mulk, asbob-uskuna va b.) bilan birgalikda ishtirok etishi taxmin qilinadi. Mashhur tovar belgisi o‘xshash tovarlarga bo‘lgan o‘rtacha bozor narxi bilan taqqoslaganda narxni oshirish imkonini beradi. Aynan shu farq foydadagi ustunlik usulidan foydalanish asosida hisoblab chiqilishi mumkin bo‘lgan tovar belgisidan foydalanish hisobiga yaratiladigan qiymat hisoblanadi. Baholovchidan rentabellikning qo‘shimcha foizini hisoblash, tashkilotning sotuvlari prognozini tuzish va qo‘shimcha foydaning joriy summasini aniqlash talab qilinadi.

Ortiqcha foyda usuli iqtisodiy ma‘no jihatidan avvalgi usulga o‘xshashdir, biroq, qoida tariqasida, gudvill qiymatini baholash uchun qo‘llaniladi. Undan, shuningdek tovar belgisini baholash uchun foydalanish ham mumkin. Asosiy farqi shundan iboratki, tashkilot tomonidan tovar belgisini ishlatishdan olinadigan qo‘shimcha foyda alohida tovarlar va xizmatlarga nisbatan emas, balki shaxsiy kapitaldan foydalanish rentabelligini aniqlash yo‘li bilan hisoblab chiqiladi. Rentabellikning hisoblab chiqilgan foizi o‘rtacha tarmoq foizi bilan solishtiriladi, olingan farq shaxsiy kapital miqdoriga ko‘paytiriladi – bu esa ortiqcha foyda yoki tovar belgisining bozor qiymatidir.

Tovar belgisidan olinadigan qo‘shimcha daromadni ajratib olish usuli bilan foydani (pul oqimini) topishda, qiymatni hisob-kitob qilish uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$P = K_{ad} * P_{ei} * Rate, \quad (1.20)$$

Bu yerda: **R** - foyda (pul oqimi);

K_{ad} - tovar belgisini qo‘llash bilan bog‘liq qo‘shimcha foydani inobatga oluvchi va tovar belgisi ostida mahsulotlar ishlab chiqarish (xizmatlar ko‘rsatish) tavsifiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsiyent. Ushbu koeffitsiyentning qiymati O‘zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son “Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash” milliy

standarti uslubiy ko'rsatmalarga 2-ilovada keltirilgan shkala bo'yicha aniqlanadi;

Pe_i - i-chi yilda sotilgan ko'paytirish natijasi sifatida aniqlanadigan i-chi yildagi tovar belgisini ishlatishdan olingan tushum (yalpi foyda);

Rate - investitsiyalar uchun foyda me'yor.

Xarajat yondashuviga muvofiq tovar belgisini baholashda boshlang'ich xarajatlar usulidan foydalanishda mos ravishda tovar belgisining uni yaratish xarajatlarini hisobga olishdagi xususiyatlarini tavsiflovchi bir qator koeffitsiyentlarni inobatga olish lozimdir.

Ushbu usul asosida tovar belgisining qiymati quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Val = Rate * K_{Ind} * K_t * K_m * K_e * \sum_{i=1}^n C_i, \quad (1.21)$$

Val - tovar belgisi qiymati;

C_i - i-chi yilda qilingan tovar belgisini yaratish va rivojlantirish (shu jumladan dizayni, huquqiy muhofazasi, marketing, reklama va boshqalarga) xarajatlari;

n - tovar belgisidan foydalanish boshlangan paytdan boshlab baholash sanasiga qadar o'tgan yillar soni;

K_{Ind} - xarajatlarni indeksatsiya qilish koeffitsiyenti;

Rate - investitsiyalar uchun foyda me'yor;

K_t - tovar belgisidan foydalanish vaqti koeffitsiyenti;

K_m - tovar aylanmasi hajmi bo'yicha aniqlanadigan tovar belgisidan foydalanishning ko'lamliligi koeffitsiyenti;

K_e - estetik qabul qilish koeffitsiyenti.

Ko'lamlilik va estetik qabul qilish koeffitsiyentlari qiymatlari O'zbekiston Respublikasi Mulkni baholash 13-son "Intellectual mulk obyektlari qiymatini baholash" milliy standarti uslubiy ko'rsatmalarining 2-ilovasida keltirilgan.

Tovar belgisidan foydalanish vaqti koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanishi mumkin:

$$K_t = 1 + FP/LP, \quad (1.22)$$

Bu yerda: K_t - tovar belgisidan foydalanish vaqti koeffitsiyenti;

FP - tovar belgisining haqiqiy xizmat muddati;

LP - tovar belgisining nominal xizmat muddati (muddatni 10 yil qilib ko'rsatish maqsadga muvofiq, chunki tovar belgisiga beriladigan guvohnoma shu muddat davriga, guvohnomaning muddatini uzaytirishni hisobga olmagan holda beriladi).

IMOga bo'lgan huquqlardan g'ayriqonuniy foydalanganligi uchun zararlar miqdori bunday obyektidan g'ayriqonuniy foydalanish natijasida kontrafakt mahsulotni ishlab chiqarish yoki sotish hajmlaridan kelib chiqqan holda IMOning huquq egasi yoki litsenziat ololmagan foydaning (daromadning) to'planishi baholash protsedurasini qo'llash orqali baholash sanasi holatiga aniqlanadi.

IMOdan g'ayriqonuniy foydalanilganligi oqibatidagi zarar deganda quyidagilar nazarda tutiladi:

✚ huquqi buzilgan shaxs tomonidan qilingan yoki qilinishi lozim bo'lgan xarajatlar;

✚ ushbu shaxs odatdagi fuqarolik muomalasi sharoitlarida, agarda uning huquqi buzilmaganda olishi mumkin bo'lgan (boy berilgan foyda), olinmagan daromadlar.

Huquq egasining xarajatlariga uning dalillar to'plash bilan bog'liq chiqimlari, turli xildagi ekspertizalar o'tkazish (shu jumladan, zararni va boy berilgan foydani baholash bo'yicha) xarajatlari, sud xarajatlari, ma'muriy chiqimlari (shu jumladan notarial tasdiqlatish) va boshqa xarajatlari kiradi. Xarajatlarning jamlangan miqdori tasdiqlovchi hujjatlarga asosan aniqlanadi.

Zararlar quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$U = RU + MB, \quad (1.23)$$

Bu yerda: **U** - zararlar;

RU - huquq egasining buzilgan huquqni tiklash bo'yicha haqiqiy yoki zaruriy xarajatlari (sud xarajatlari, turli turdagi ekspertizalarni o'tkazishni qo'shgan holda, shu jumladan qiymat ekspertizasini);

MB - qoidabuzarning daromadlari (**MB1**) yoki huquq egasi ololmagan daromadlar (**MB2**) bilan aniqlanadigan boy berilgan foyda.

Qoidabuzarning daromadlari bilan tavsiflanuvchi boy berilgan foyda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{MB_1 = Cont * Rent, \quad (1.24)}$$

Bu yerda: $\mathbf{MB_1}$ - boy berilgan foyda;

Cont - fuqarolik muomalasiga baholash obyektiga bo'lgan huquqlarni buzgan holda kiritilgan kontrafakt mahsulotning (xizmatning) natural va qiymat ifodasidagi miqdori;

Rent - bir turdagi mahsulotning (xizmatning) sotuvlari rentabelligi.

Huquq egasining ololmagan daromadlari bilan tavsiflanuvchi boy berilgan foyda quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\mathbf{MB_2 = Income_f + Rekl/Sales * Cont, \quad (1.25)}$$

Bu yerda: $\mathbf{MB_2}$ - boy berilgan foyda;

Income_f - baholash obyektiga bo'lgan huquqlardan foydalanishning qiymat ifodasidagi huquq egasi (jabrlanuvchi) olishi mumkin bo'lgan, lekin uning baholash obyektiga bo'lgan huquqlari buzilganligi tufayli olinmagan potensial daromadi miqdori;

Rekl - huquq egasining baholash obyekti reklamasining t (oy, yil) vaqti uchun qiymat ifodasidagi hajmi;

Sales - huquq egasining o'rtacha yillik tushumi.

Davlat daromadiga o'tkazish lozim bo'lgan mulkni muomaladan chiqarish, sotish yoki yo'q qilish maqsadlarida IMODan iborat bo'lgan kontrafakt mahsulotni baholashda ularning qiymati o'xshash litsenzion (kontrafakt bo'lmagan) IMOning baholash sanasi holatidagi o'rtacha qiymatidan kelib chiqib ichki bozorning talab va taklif konyukturasi bo'yicha mavjud ma'lumotlar asosida aniqlanadi.

7.2. Gudvill qiymatini baholash

Gudvill yoki firmaning bahosi, korxonani sotib olish vaqtida yuzaga keladi va o'zida sotib olinayotgan korxonaga uchun to'lanayotgan narx bilan uning sof (majburiyatlar chegirilgan holdagi) aktivlarning baholash (bozor) qiymati o'rtasidagi farqni aks ettiradi.

Baholash nuqtayi nazaridan qaraganda “firma bahosi” xaridor sotib olinayotgan korxonaga uchun, xuddi agar u ushbu aktivlarni alohida-alohida sotib olganidagi kabi, mazkur korxonani tashkil qiluvchi aktivlarning real bozor bahosidan ko‘p pul to‘lagan holda yuzaga keladi. Agar xaridor alohida obyektlarning real qiymatiga qaraganda (sotib olinayotgan korxonaga majburiyatlari chegirilgan holda) ko‘p haq to‘lagan bo‘lsa ushbu holda mavhum (ko‘zga ko‘rinmas) aktiv yuzaga keladi va shunday xulosa qilish mumkinki, aynan shu ortiqcha to‘langan haq “firma bahosi”ni tashkil qiladi.

Ya’ni, gudvill faqat korxonaning umuman oldi-sotdi qilinishi vaqtidagicha aks ettirilishi mumkin, chunki u mustaqil hisob birligiga ajratilishi mumkin emas va faqat korxonaning boshqa aktivlari bilan birgalikda amal qiladi.

Gudvillning yuzaga kelish sabablari juda ham turli-tuman bo‘lishi mumkin. Ular orasidan eng tavsiflilari qatorida, odatda, g‘oyatda samarali reklama siyosati, alohida ta’sirchan sotish tizimi, raqobatchilardan ustun turuvchi boshqaruvchilar komandasining mavjudligi, kompaniya ishining qulay yoki imtiyozli me’yoriy-huquqiy rejimi va soliqqa tortish shartlari, raqobatchilar foydalana olmaydigan ishlab chiqarish sirlaridan foydalanish, xodimlarni kasbga tayyorlash hamda ularning malakasini oshirishga oid noyob dasturni amalga oshirish, mahsulot yetkazib beruvchilar bilan barqaror, samarali va ishonchli aloqalarning mavjudligi va ko‘pgina boshqa omillarni keltiradilar. Ushbu omillarning sanab o‘tilishi gudvill korxonaning butun faoliyati davomida amal qilishi, biroq faqat uning sotilishi chog‘idagina aks ettirilishi to‘g‘risida guvohlik beradi, chunki faqat shu holatdagina uni obyektiv axborot firma sotib olinayotgan narx asosida baholash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Gudvill - bu xaridor tomondan faoliyat yuritayotgan kompaniya (firma, korxonaga, biznes)ni sotib olishda, uning yangidan tashkil etishga nisbatan qo‘lga kiritilgan afzalliklaridir. Gudvillni baholashning ikki usuli bor:

- ✦ proporsional baholash usuli;

✚ to'liq baholash usul.²¹

GUDVILL = investitsiya – sof aktivlar qiymati . egalik ulushi (1.26)

Bu usul orqali baholashda birgina aksionerlar ulushigina o'rganilmasdan, balki sho'ba korxonaning haqiqiy narxining barcha aktivlariga nisbatini olish bilan o'rganiladi.

GUDVILL = (aksionerlar nazoratidagi investitsiyalar + aksionerlar nazoratida bo'lmagan ulush) – sho'ba korxonasining sof aktivlari (1.27)

Gudvill ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Korxonaning taniqli nomi bo'lsa, korxonaga qiymati uning aktiv va majburiyatlari jami qiymatidan yuqori ekanligidan dalolat beradi. Bunda ushbu korxonaga faoliyatida sezib bo'lmaydigan, uning aktiv va majburiyatlari qiymatida o'z aksini topmagan narsa sifatida korxonaning barqaror xaridorlari, geografik jihatidan qulay joylashuvi, sifat jihatidan qozongan obro'-e'tibori, marketing va mahsulot sotish ko'nikmalari, texnik nou-xau, o'rnatilgan aloqalar, boshqarish tajribasi, korxonaga personallarini malaka darajasi va h.k. bo'lishi mumkin bo'lgan daromaddan yuqoriroq daromad darajasini ta'minlaydi.

7.3. Brend kapitali qiymatini baholash

Brend kapitali qiymatini aniqlash iqtisodiyotning cheklangan resurslaridan optimal foydalanish, brend portfelini yaratish strategiyasi asosida uni qiymati jihatidan qo'llash, bunday qiymatning boshqaruvi korxonaning moliyaviy boshqaruvida ham qo'llanilishi kerakligi bilan asoslanadi.

Brend kapitalini baholash usuli ikki yo'l bilan o'lchanib kelingan:

✚ Brend kapitalini marketing bo'yicha baholash usuli, ya'ni iste'molchiga asoslangan brend kapitali.

✚ Brend kapitalini moliyaviy baholash usuli.

Brend kapitalini marketing bo'yicha baholash usuli xorijlik olimlarning Keller (1993)²², Lazzar (1995)²³, Park va Srinivasan

²¹ Игорь Забута Гудвилл: методы расчета и обесценение (рус.). Dpifr.info (15 апреля 2010). Архивировано из первоисточника 19 марта 2012. Проверено 26 декабря 2011.

(1994)²⁴, Kumakupa va Russel (1991)²⁵, Aaker (1996)²⁶, Motamini va Shakroxi (1998)²⁷ yondashuvlari orqali baholangan.

Brend kapitalini moliyaviy baholash esa moliyaviy hisob balansida keltirilgan qonun-qoidalar asosida olib borilgan. Balansda keltirilgan son moddiy aktiv sifatida brendga ega bo'lsa ham, lekin iste'molchilar uning bahosi yuqori yoki aksincha uning pastligini inobatga olish kerakligi to'g'risida olimlardan Barvays (1999 y) va Oldroyd (1994 y, 1998 y) o'z fikrlarini olg'a suradilar va gudvill va nomoddiy aktiv orasidagi farqni Tollington (1989 y) yilda muhokama qiladi.

1993-yilda Simon va Sullivan brend kapitalini baholashda bozorning atributlari jihatidan ko'rib chiqadi. Tijorat bo'yicha bahsni Perrier 1997-yilda, Interbrand kompaniyasi, "Financial World", "Brand Finance Limited" jurnallari dunyo bo'yicha brend kompaniyalarning kapitalini baholab o'z reytinglari natijasini har yili chop etib chiqaradilar va bunday reyting biznes muhitda brendlarni baholash muhimligini ta'kidlaydilar.

Qiymatini belgilash tushunchasi turli yechimlarni tahlil etishda turli yondashuvlardan foydalaniladi. Hozirgi kunda brend kapitalini baholashda 5 toifaga ajratib o'rganiladi:

- ✦ Xarajatlarga asoslangan yondashuv.
- ✦ Ochiq bozorga asoslangan yondashuv.
- ✦ Iqtisodiy yoki daromad olishga asoslangan yondashuv.
- ✦ Formulalarga asoslangan yondashuv.
- ✦ Maxsus keltirilgan vaziyatlarga asoslangan yondashuv.

Xarajatlarga asoslangan yondashuvda kompaniya brend darajasiga erishishida sarflagan barcha xarajatlar yig'indisini tashkil etadi.

²² Kevin Lane Keller (1993), "Conceptualizing, Measuring, and Managing Customer-Based Brand Equity," *Journal of Marketing*, 57 (January), 1-22.

²³ Lassar, W., Mittal B., and Sharma A. (1995) Measuring Customer-Based Brand Equity. *Journal of Consumer Marketing* 12(4): 11-19.

²⁴ Park, C.S. and Srinivasan, V. (1994), "A survey-based method for measuring and understanding brand equity and its extendibility", *Journal of Marketing Research*, Vol. 31, May, pp. 271-88

²⁵ Kamakura, W.A. and Russell, G.J. (1991), *Measuring Consumer Perceptions of Brand Quality with Scanner Data: Implications for Brand Equity*, Report No. 91-122, Marketing Science Institute, Cambridge, MA.

²⁶ Aaker, D.A. (1996), *Building Strong Brands*, The Free Press, New York, NY.

²⁷ Motameni, R. and M. Shahorkhi (1998), "Brand Equity Valuation: A Global Perspective", *Journal of Product and Brand Management*, 7 (4), 275-290.

Bunday yondashuv Aaker (1991 y.)²⁸ va Keller (1998 y.)²⁹ brendni bozor qiymatiga ko'ra umuman teng kelmasligi to'g'risida fikrleydilar. Ya'ni kapitallashgan brend xarajatlari yoki bozor narxidan ancha past yoki bo'lmasam noto'g'ri boshqarilgan va ijro etilgan brend strategiyalaridan yig'ilgan kapitallashgan brend narxi bozor narxidan ancha pastligi ham ifoda etilishi bilan isbotlab beriladi.

Ochiq bozorga asoslangan yondashuvda, brend bozorga qancha narxga sotib olinishiga tayyor ekanligi ko'rsatib berilishi kerak. Reyli va Shveyz fikriga ko'ra bunda xaridorning eng yuqori beradigan narxi va sotuvchining eng yuqori

beradigan narxi bilan mos tushishi kerak (1999 y.)³⁰. Ammo Barvayzni (1999 y.)³¹ bunday oldi-sotti bajarilishi uchun brend kapitali narxini chiqarishda unga aynan mos bo'lgan muqobil mavjud bo'lishi va ular ham bozorda

o'z qiymatlarini belgilangan holda taklif etishi kerakligini ta'kidlaydilar.

Kravis va Geldinglar iqtisodiy yoki daromad olish maqsadiga asoslangan yondashuvda brenddan kelajakda daromad olish manbai sifatida qaraladi, ammo buning uchun hozirgi qiymatni aniqlash uslubi zarur (1999 y.)³² degan fikrlarni olg'a surdilar.

Formulalarga asoslangan yondashuv brend kapitalini qiymatini aniqlashda bir necha mezonlarga ajralgan holda hisoblanadi. Bunday yondashuv asosan brend kapitalini daromad olish maqsadiga asoslangan tadbirkorlarga konsalting kompaniyalar yoki boshqa bir qator tashkilotlar orqali hisoblanib taqdim etadilar. Bunday yondashuvga Interbrand kompaniyasi ham tayanadi. Interbrand kompaniyasi brend qiymatini aniqlab berishda dunyodagi yetakchi kompaniyalardan biri hisoblanadi. Uning hisoblash metodi ko'pgina ziddiyatlarni hal etishda

²⁸ Perrier, R. (Ed) (1997), *Brand Valuation*, 3rd Ed, Premier Books, London

²⁹ Aaker, D.A. (1991), *Managing Brand Value: Capitalizing on the Value of a Brand Name*, The Free Press, New York.

³⁰ Keller, K.L., (1998), *Strategic brand management: building, measuring, and managing brand equity*, Prentice Hall, New Jersey.

³¹ Reilly, R.F., and Schweih, R.P. (1999), *Valuing Intangible Assets*, McGraw Hill, New York.

³² Barwise, P., Higson, C., Likierman, and A., Marsh, P. (1999), *Accounting for Brands*, The London Business School and The Institute of Chartered Accountants in England and Wales, London.

va o'zining dasturi ko'pgina korxonalarining ishonchini oqlaganligi bilan taniladi. Uning hisoblash texnikasida:

- ✚ korxonaning qiymatiga marketing, moliya va huquqiy omillarni hisobga olishi;

- ✚ buxgalteriya standartlariga to'g'ri kelishi;

- ✚ mantiqiy ravishda kelajakda olinadigan foydani hisoblashi;

- ✚ brend yangitdan yaratilgan yoki sotib olinib yana qayta sotuvga qo'yilganligini hisobga olishidir.

Interbrand kompaniyasining usulini qo'llashni ko'rib chiqaylik (1-jadval).

1-jadval

Interbrand kompaniyasining usuli

Sado markasi "A"	Xalqaro lider parfemer-kosmetik mahsulot ishlab chiqaruvchi kompaniyasi bozorda barqaror va gavjum sotuvi bilan o'rin olgan. Kompaniya bir necha yil oldin tashkil topgan bo'lib xalqaro bozorlarda birinchi va ikkinchi o'rinlarni doimiy egallab kelgan
Savdo markasi "V"	Oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha lider savdo markasi milliy mahsulot bo'yicha bozorda barqaror o'rin topgan. Lekin iste'molchilarning ishtiyoqlari o'zgarganligi va ko'proq yarim tayyor oziq-ovqatga qiziqish ortganligi sababli sotuv sur'atlari pasaygan. Bunday sharoitda mahsulotning oz qismi eksport ham qilinadi
Sado markasi "S"	Milliy bozorda ikkinchi o'rinni egallab besh yildan beri faoliyat ko'rsatib kelayotgan noalkogol ichimliklar ishlab chiqaruvchi kompaniya. Sotish sur'ati dinamik ravishda va oxirgi yillarda yuqori ko'rsatkichlarni egalladi. Marketologlarning yordami bilan mahsulot ijobiy ko'rsatkichlarga ega, lekin hali kompaniyaning o'sishi boshlang'ich davrlarda sifati va qadog'i eksport uchun mo'ljallangan bo'lsa-da juda oz qismi mahsulotni chetga chiqaradi. Mahsulot belgisi hali ham milliy bozorda ro'yxatdan o'tshini poylab turibdi
Sado markasi "D"	Bir necha yillar mobaynida mintaqaviy bozorda faoliyat ko'rsatib kelayotgan kompaniya. Bozorda barqaror o'rini egallagan.

Yuqorida ko'rsatilgan savdo markalarining belgilari bo'yicha "Interbrand"

kompaniyasining yettita omil bo'yicha qo'yilgan ballarini ko'rib chiqadi va har bir omil o'zining shkala o'lchoviga qarab darajasi vaznlanadi (2-jadval).

№	Omillar	Maksimal ball	“A”	“V”	“S”	“D”
1	Liderlik	25	18	19	9	6
2	Barqarorlik	15	11	10	7	11
3	Bozor	10	7	6	8	6
4	Geografik o‘rab olish	25	17	5	2	0
5	Tendensiya	10	6	6	7	5
6	Yordam	10	8	7	7	4
7	Muhofaza	5	5	3	4	3
Ballar yig‘indisi		100	72	56	44	35

Omillarda berilgan maksimal ballarning kelib chiqishi bu kompaniyaning mezonlari bo‘yicha baholanadi:

1. Liderlik (25 %)

- ✦ bozor ulushi;
- ✦ tanilganligi;
- ✦ joylashinishi (pozitsiyasi);
- ✦ raqiblarning profili.

2. Barqarorlik (15 %)

- ✦ doimiyliigi;
- ✦ ketma-ket mutanosibligi;
- ✦ davri;
- ✦ savdo markasining individualligi;
- ✦ risklari.

3. Bozor

- ✦ bozorning umumiy xususiyati;
- ✦ bozorning o‘zgaruvchanligi;
- ✦ bozorning o‘lchovi;
- ✦ bozor dinamikasi;
- ✦ bozorga chiqishdagi qiyinchiliklar.

4. Xalqaro nuqtayi nazaridan (25 %)

- ✦ geografik o‘rab olish;
- ✦ xalqaro pozitsiyasi;
- ✦ bozordagi ulushi;
- ✦ prestiji;
- ✦ ambitsiyalari.

5. O'sish tendensiyasi (10%)

- ✚ bozor ulushining uzoq tebranuvchanligi;
- ✚ savdo markasining funksional o'zgaruvchanligi;
- ✚ savdo markasining rejalari va uning o'zgarishi mumkinligi;
- ✚ raqobatchilarning xatti-harakatlari.

6. Yordam

- ✚ doimiy moliyaviy yordam olishi;
- ✚ reklamaning mahsulot sotuvidagi iste'molchilar tomonidan belgilagan o'rni;
- ✚ savdo markasiga iste'molchilar tomonidan bo'lgan ishonchi.

7. Muhofaza (5 %)

- ✚ savdo markasining ro'yxatdan o'tganligi;
- ✚ umumiy huquqlar asosida muhofazada ekanligi;
- ✚ sud jarayonlari va boshqa kelishmovchiliklar mavjud yoki

yo'qligi.

Bu ko'rsatkichlarning yig'indisi brendning kuchini aniqlab berishga yordam beradi – deb ta'kidlaydi “Interbrand” kompaniyasi. Bunda Interbrand kompaniyasi foydani bashoratlab beradi va kapital xarajatini ayirgan holda iqtisodiy foyda EVA ni aniqlaydi. Kellerning (1998 y.)³³ fikricha Interbrand kompaniyasining o'lchovi dunyodagi yirik kompaniyalar bir yilda brend kapitalini boshqarish orqali olgan daromadlarini hisoblab, ularni o'zlariga kapitalizatsiyalashda yordam beradi. Ammo Aakerning (1996 y.)³⁴ fikriga ko'ra brend kapitalini qiymati bunda yuzaki qaraladi, bunda brend kapitalini asosiy negizi hisoblanmaydi, hamda reklamaga qilingan xarajatlar va undagi yetakchilik brend kapitalini ba'zida o'sishiga olib ham kelmaydi.

Aaker (1996 y.)³⁵ “Brend kapitali o'ntaligi” deb nomlangan o'z modelini taklif etadi. Bu model beshta kategoriya asosida o'lchanadi:

I. Loyol iste'molchining o'lchovi

- 1) Narx premiumga tayyorligi.
- 2) Talab jihatidan qondirilgan iste'molchimi yoki loyol iste'molchi.

³³ Barwise, P., Higson, C., Likierman, and A., Marsh, P. (1999), Accounting for Brands, The London Business School and The Institute of Chartered Accountants in England and Wales, London.

³⁴ Keller, K.L., (1998), Strategic brand management: building, measuring, and managing brand equity, Prentice Hall, New Jersey.

³⁵ Aaker, D.A. (1996), Building Strong Brands, The Free Press, New York.

II. Iste'molchi tomonidan taqdimlangan sifat yoki kompaniyaning yetakchilikka erishishida qilgan chora-tadbirlari

- 3) Iste'molchi tomonidan tan olingan sifat.
- 4) Bozordagi yetakchilik yoki kuchaytirilgan mashhurlik.

III. Iste'molchilarga yo'naltirilgan assotsiatsiyalar yoki farqlanish o'lchovlari

- 5) Tan olingan qiymatlilik.
- 6) Brenddagi individuallik.
- 7) Tashkillashtirilgan assotsiatsiyalar.

IV. Iste'molchining mahsulot yoki kompaniya to'g'risida xabardorligi

- 8) brend to'g'risida xabardor bo'lishi.

V. Bozorning sezuvchanligi o'lchovi

- 9) bozordagi brendning ulushi
- 10) bozor narxi va brendning tarqalgan qamrovi.

“Brend kapitali o‘ntaligi”ning kapital o‘lchovini hisoblashda birinchi sakkiztalik noqulay, xarajat jihatidan qimmat, o‘lcham uchun tushunarsiz va qo‘llashda ham qiyinchilik tug‘dirishi mumkin. Bunda loyal iste‘molchini hisoblashda do‘konga qaytib kelgan iste‘molchining aynan tegishli brendga nisbatan xarid chastotasini, bozordagi narx, brendning premium narxi va bozorni distribyusion qamrovini so‘rovnomasiz ko‘rsa bo‘ladi³⁶.

Yuqoridagilarni ko‘rib chiqqan holda:

✚ Bunday yondashuv orqali brend kapitalini baholashda loyal iste‘molchining brendga nisbatan sadoqatlilik darajasi brend kapitalining asosi qilib olinadi.

✚ Bunday yondashuv nafaqat brend kapitalini qiymatini o‘lchashga balkim brend kapitalini asosiy strategik boshqaruvining instrumenti sifatida ham ko‘riladi.

✚ Olingan o‘lchovlar korxonaning kelajakdagi mavqeini ko‘tarishdagi va uni bozordagi o‘z o‘rnini barqaror egallash hamda rivojlanish tendensiya strategiyasini ishlab chiqishga ko‘mak beruvchi vosita bo‘lib xizmat qiladi.

³⁶ David A. Aaker, *Measuring Brand Equity Across Products and Markets*, California management review vol 38, no. 3 spring 1996, p 115.

7.4. Ixtiro qiymatini baholash

Ixtirodan faqat litsenziya shartnomasi asosida foydalanish mumkin, shu sababli ixtiro qiymatini litsenziya qiymati bo'yicha aniqlash maqsadga muvofiq. Litsenziya narxini aniqlashning umumiy qabul qilingan holatlaridan biri bo'lib, uning qiymatini xaridor (litsenziat) oladigan foyda bo'yicha aniqlash hisoblanadi.

Xaridor (litsenziat) olishi ko'zda tutilgan foyda (F) quyidagini tashkil qiladi:

$$F = Q * N * (V_a - V_{o'}) * M, \quad (1.28)$$

Bu yerda: Q – kutilayotgan mahsulot ishlab chiqarishning o'rtacha yillik hajmi (ishonchli ma'lumotlar mavjud bo'lmagan hollarda jihozning unumdorligi haqidagi pasport ma'lumotlaridan foydalanish mumkin);

N – litsenziya bo'yicha tayyorlanadigan mahsulot narxi;

V_a – litsenziya kelishuvining amal qilish muddati (odatda 5-10 yil);

$V_{o'}$ – litsenziya narsasini o'zlashtirish davri (odatda 1-3 yil);

M – sanoatning u yoki bu sohasidagi foyda me'yori (odatda 0,1 – 0,2).

Litsenziya qiymati (narxi) Q_1 xaridor oladigan foydadan ulush (U) sifatida aniqlanadi, ya'ni:

$$Q_1 = U + F \quad (1.29)$$

Sanoat mulki obyekti sifatida ixtironing royalty bazasida hisoblab chiqilgan litsenziya narxi bo'yicha qiymati quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$Q_1 = Q * N * (V_a - V_{o'}) * R, \quad (1.30)$$

Bu yerda: R – royalti (litsenziya bo'yicha mahsulot birligidan joriy ajratmalar) miqdori asosan ishlab chiqarish hajmi, mahsulot qiymatiga bog'liq va u 1 dan 12 foizgacha o'zgarib turadi;

Q – kutilayotgan mahsulot ishlab chiqarishning o‘rtacha yillik hajmi (ishonchli ma’lumotlar mavjud bo‘lmagan hollarda jihozning unumdorligi haqidagi passport ma’lumotlaridan foydalanish mumkin);

N – litsenziya bo‘yicha tayyorlanadigan mahsulot narxi;

V_a – litsenziya kelishuvining amal qilish muddati (odatda 5-10 yil);

V_o – litsenziya narsasini o‘zlashtirish davri (odatda 1-3 yil);

Nou-xauni topshirish kelishuvlarida royalty miqdori, odatda, kelishuv xususiyatiga qarab 20-60 foizga pasayadi, masalan:

✚ Topshiraladigan obyekt patentlar bilan himoyalangan holda – 20-40 foizga pasayadi;

✚ Topshirilgan obyekt ma’lum, lekin o‘zlashtirish uchun qo‘shimcha tadqiqotlar va katta miqdordagi kapital qo‘yilmalari zarur bo‘lganda – 20-40 foizga pasayadi;

✚ Bozorda ma’lum bo‘lgan nou-xau obyektga topshiriladi, lekin u litsenziat uchun qiziqish uyg‘otadigan holda – 40-60 foizga pasayadi.

Tayanch iboralar

Itirolar uchun huquqlar, foydali modellar va sanoat namunalarini baholash xususiyatlari. Dasturiy mahsulotlar uchun huquqlar, ma’lumotlar bazasi va integral mikrosxemalar topologiyasini baholash uslublarini ko‘rib chiqish. Tovar belgisini baholash xususiyatlari. Tovar belgisini xarajatli yondashuv asosida baholash. Xarajatlar turlari. Tovar belgisidan olinadigan daromadlarni daromad yondashuvi doirasida baholash. Daromadli yondashuvning asosiy usullari: foydadagi ustunlik usuli, ortiqcha foydalar usuli, tovar belgisidan olinadigan qo‘shimcha daromadni ajratib olish usuli va royaltidan ozod qilish usuli. Har bitta usulning asosiy bosqichlari. Litsenziya shartnomalari tasnifi va tavsifi. “Litsenziya bahosi” tushunchasi. Litsenziya bahosiga ta’sir etuvchi omillar. Litsenziya bahosini hisoblash uslublari: foydani maydalash (split) va royaltidan ozod qilish. Intellektual mulkning turli xil obyektlari bo‘yicha litsenziya qiymatini hisoblash amaliyoti.

Nazariy bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. “Intellektual mulk” tushunchasi dastlab qayerda ilgari surilgan?
2. Keyingi yillarda respublikamizda intellektual mulk huquqiga oid qanday me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi?
3. Intellektual mulk huquqini qanday huquqlarga ajratish mumkin.
4. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksiga muvofiq nomoddiy aktivlarning asosiy turlarini sanab bering.
5. Mulkiy huquqlar deganda nimani tushunasiz?
6. Mulkiy huquq nazariyasining qanday fundamental qoidalarini bilasiz.
7. Mulkiy huquq nazariyasining markaziy tushunchasi qanday ifodalanadi.
8. Mulkiy huquq triadasi nimalardan iborat.
9. Nomoddiy aktivlar tushunchasiga ta’rif bering?
10. Patent, franshiza, mualliflik huquqi, nou-xau tushunchalariga ta’rif bering.

Testlar:

1. Gudvill deganda nimani tushunasiz?
 - a) korxonani xarid qilish chog‘ida yuzaga keladi va sotib olinayotgan korxonaga uchun haq hamda uning sof (majburiyatlarini chegirgan holdagi) aktivlarining baholovchi (bozor) qiymati o‘rtasidagi farq.
 - b) ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi buyumlar va xalq iste’moli tovarlarining tashqi qiyofasini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlaridan foydalanish huquqi.
 - c) yangi xo‘jalik yurituvchi subyektni barpo etish xarajatlari, ya’ni ishni boshlash xarajatlari.
 - d) sotib olinayotgan korxonaga uchun haq.
2. Patent bu –
 - a) korxonaga tomonidan muayyan mahsulotni ishlab chiqarish va sotish uchun foydalaniladigan, qonun bilan himoyalangan guvoohnoma hisoblanadi.

b) ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati davomida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir.

c) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

d) avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

3. Nou-xau deganda nimani tushunasiz?

a) ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati davomida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir.

b) ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi buyumlar va xalq iste'moli tovarlarining tashqi qiyofasini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlaridan foydalanish huquqi.

c) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

d) avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

4. Sanoat namunalari

a) ishlab chiqarish-texnika maqsadlaridagi buyumlar va xalq iste'moli tovarlarining tashqi qiyofasini belgilaydigan badiiy-konstruktorlik yechimlaridan foydalanish huquqi.

b) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

c) ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyati davomida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir.

d) avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

5. Dasturiy ta'minot deganda nimani tushunasiz?

a) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

b) bir korxonadan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan, savdo markalari va atamaları kabi nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi.

c) xo'jalik yoki boshqa maqsadlarda yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni ta'minlovchi huquqni anglatadi, ammo

yerdan foydalanish huquqi mazkur yer uchastkasini mulk qilib olishni bildirmaydi.

d) yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishni ta'minlovchi huquqni anglatadi.

6. Tashkiliy xarajatlar bu

a) yangi xo'jalik yurituvchi subyektни barpo etish xarajatlari, ya'ni ishni boshlash xarajatlari.

b) yangi xo'jalik yurituvchi subyektни qayta tshkil etish xarajatlari, ya'ni ishni boshlash xarajatlari.

c) yangi xo'jalik yurituvchi subyektни tugatish xarajatlari.

d) xo'jalik yurituvchi subyektни qayta tshkil etish xarajatlari.

7. Franshiza deganda nimani tushunasiz?

a) bir korxonona tomonidan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan, savdo markalari va atamalari kabi nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi.

b) ilmiy, adabiy, musiqa yoki boshqa asarlarni nashr qilish, ijro etish yoki boshqa turdagi foydalanish huquqi sanaladi.

c) korxononani xarid qilish chog'ida yuzaga keladi va sotib olinayotgan korxonona uchun haq hamda uning sof (majburiyatlarini chegirgan holdagi) aktivlarining baholovchi (bozor) qiymati o'rtasidagi farq.

d) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi.

8. Mualliflik huquqlari bu –

a) ilmiy, adabiy, musiqa yoki boshqa asarlarni nashr qilish, ijro etish yoki boshqa turdagi foydalanish huquqi sanaladi.

b) bir korxonona tomonidan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan, savdo markalari va atamalari kabi nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi.

c) korxononani xarid qilish chog'ida yuzaga keladi va sotib olinayotgan korxonona uchun haq hamda uning sof (majburiyatlarini chegirgan holdagi) aktivlarining baholovchi (bozor) qiymati o'rtasidagi farq.

d) texnik dastur vositalari, avtomatlashtirilgan boshqarish tizimi bo'yicha texnik va foydalanish hujjatlari yig'indisi

8-MAVZU. TURLI MAQSADLAR UCHUN INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARI VA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH XUSUSIYATLARI

8.1. IMO va NMA ni o'zlashtirish maqsadida baholash metodi

Intellektual mulk sotiladigan odatiy holatlar quyida sanab o'tilgan. Avvallari AQSH va ayrim mamlakatlarda aktivlarni moliyalashtirish (ularning investitsiya maqsadi intellektual mulkdan iborat) deb tasniflanishi mumkin bo'lgan ko'p hollar qayd etilgan. Aktivlarni moliyalashtirish intellektual mulk egalari tomonidan intellektual mulkka ega bo'lgan mablag'larni jalb qilish (yoki tugatish) maqsadida qo'llanilgan. So'nggi yillarda intellektual mulkdan "likvidatsiya" (tugatish) maqsadida foydalanish kamdan kam uchramoqda. Quyida "g" bandda keltirilgan "Texnologiya yoki boshqa intellektual mulk bilan aloqador aktivlarga investitsiya" deganda, keng qamrovli texnologiya bilan bog'liq aktivlarga investitsiyalar nazarda tutilgan.

✚Texnologiya yoki boshqa intellektual mulkni o'zlashtirish;

✚Texnologiya va boshqa intellektual mulkni litsenziyalash;

✚M&A bitimlariga mo'ljallangan texnologiya va boshqa intellektual mulk;

✚Texnologiya yoki boshqa intellektual mulk bilan aloqador aktivlarga investitsiya;

✚Texnologiya va boshqa intellektual mulkning garovga qo'yilishini moliyalashtirish.

Yuqoridagi hollarda, baholash qiymatini "Daromad yondashuvi"ga asoslangan baholashning 4 metodini amalda tatbiq etish va olingan natijalardan yakuniy xulosa chiqarish yordamida aniqlash mumkin. Amalda esa, barcha baholash metodlari bir vaqtning o'zida kamdan kam hollarda qo'llaniladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan baholash metodlari bilan bir qatorda, Foydani taqsimlash metodi va Royaltini

yengillashtirish metodlarini ham qo'llash nisbatan osonroq. Aktivlarni ayirish metodi va "Bosh barmoq qoidasi" metodlari esa korxonada baholashda naqd pul harakatini oldindan bilishni talab etadi va baholashning biroz vaqt talab qiluvchi bosqichi hisoblanadi.

Intellectual mulkni o'zlashtirishda baholovchi "Daromadga yondashuv" ga asoslangan baholashning 4 metodi, ya'ni Aktivlarni ajratish metodi, "Bosh barmoq qoidasi" metodi, Foydani taqsimlash metodi va Royaltini yengillashtirish metodidan foydalangan holda baholash ishlarini olib borishi mumkin. Bunda bir necha baholash metodlaridan foydalanish natijasida baholovchi maksimal va minimal qiymatlar, ular orasidagi o'rtacha qiymatlar va boshqa qiymatlarni tahlil qilgan holda o'zlashtirishning yakuniy bahosini aniqlay oladi. Korxonada uchun esa, baholovchi Daromad yondashuviga asoslangan beshinchi metod – Aksiyalarni bozor narxida baholash metodini qo'llay olishi va olingan natijalarni boshqa metodlar natijalari bilan umumlashtirishi mumkin.

Qisqacha qilib aytganda, baholash jarayonlari keyinroq tushuntirilishiga qaramasdan, agar Aktivlarni ayirish metodi qo'llanilsa, baholovchi bosqichning yarmidayoq boshqa baholash metodlarida foydalaniladigan barcha ma'lumotlarga ega bo'lishi mumkin.

Masalan, Aktivlarni ayirish metodini qo'llashda eng avvalo bashorat qilish lozim bo'lgan element bu – savdodir. Joriy qiymatni aniqlash uchun sotish prognoziga diskontlangan stavkani qo'llasak va hosil bo'lgan joriy qiymatni royalti stavkasiga ko'paytirsak, baholovchi Royaltini yengillashtirish metodi yordamida olinadigan natijalarga ega bo'ladi.

Xuddi shunday, korxonada qiymatini hisoblash uchun pul mablag'lari harakatini prognoz qilish imkonini beruvchi Aktivlarni ayirish metodida operatsion daromadni prognozlash pul mablag'lari harakatini baholashda muhim rol o'ynaydi. Operatsion daromad prognozini 3 ta teng qismlarga ajratsak, baholovchi Foydani taqsimlash metodi yordamida olinadigan natijalarga ega bo'ladi. Shu singari, Aktivlarni ayirish metodi yordamida olingan biznes qiymatni 25 % ga ko'paytirganda, baholovchi "Bosh barmoq qoidasi" metodi yordamida olinadigan natijalarga ega bo'ladi.

Aktivlarni ajratish metodi baholash qiymatini nomoddiy aktiv qiymatlarini hisoblash va bu qiymatni yuqorida ko'rsatilgan patentlar va boshqa texnologik aktivlarning qiymatiga ko'paytirish yo'li bilan oladi. Bu holda Aksiyalarning bozor narxini baholash metodi ham qo'llanilishi mumkin, ya'ni nomoddiy aktivlar qiymati mazkur metoddan foydalangan holda hisoblanishi mumkin. Bu holda baholovchi texnologiya uchun baholash qiymatini Aksiyalarning bozor narxini baholash metodi yordamida olingan nomoddiy aktiv qiymatini patent va boshqa texnologiya aktivlari qiymatiga ko'paytirish yordamida oladi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, texnologiyani o'zlashtirish qiymatini hisoblashda baholovchi barcha baholash metodlarini qo'llashi, olingan natijalarni kompleks tarzda to'plashi va umumlashtirishi, qolaversa, yakuniy baholash natijalarini tuzishi mumkin.

Yuqorida sanab o'tilgan baholash metodlari orasida ayrimlarida baholash oson va bir nechta bosqichlardan iborat qisqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ular orasida Aktivlarni ajratish metodi eng qiyini bo'lib, unda baholash uzoq vaqtni talab etadi. Royaltini yengillashtirish metodi esa baholovchiga uch element: savdo, diskontlangan stavka va royalti stavkasini prognozlash hisobiga baholash natijalarini oson qo'lga kiritish imkonini beradi. Yuqoridagi kabi Foydani taqsimlash metodi ham baholash qiymatini uch element, ya'ni savdoni prognozlash, operatsion daromadni prognozlash va diskontlangan stavkani belgilash yordamida oson qo'lga kiritish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, Royaltini yengillashtirish metodi va Foydani taqsimlash metodi boshqa metodlarga qaraganda oson qo'llaniladi deya xulosa chiqarish mumkin. Oddiy baholash yetarli bo'lgan hollarda esa baholash qiymati faqat Royaltini yengillashtirish metodi va Foydani taqsimlash metodi yordamida olingan natijalarni taqqoslash hisobiga aniqlanishi mumkin.

“Bosh barmoq qoidasi” metodiga kelsak, baholovchi biznes qiymatni 25% ga ko'paytirgandan ko'ra, operatsion daromadni 25% ga ko'paytirishni tanlash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday tanlash imkoniyatining mavjudligi baholovchiga biznes qiymatini hisoblashning murakkab jarayonlarini qoldirib ketish imkonini beradi. “Bosh barmoq

qoidasi” metodini keng qo‘llash AQSHda kuzatilgan va ayrim boshqa mamlakatlarda daromadga 25% ni qo‘llash bilan bog‘liq holatlar kuzatilishi mumkin.

8.2. IMO va NMA ni litsenziyalash maqsadida baholash metodi

Texnologiya litsenziyalashtirilgan hollarda Royaltini yengillashtirish metodi joriy talablarga javob beruvchi eng ma’qul variant hisoblanadi. Bunga sabab litsenziyalashtirish jarayoni bevosita royalti bilan bog‘liqligidir.

Aytib o‘tish joizki, litsenziya beruvchi yoki litsenziya oluvchi, birinchi navbatda, intellektual mulkning iqtisodiy qiymatini aniqlashi va so‘ngra litsenziya olish olmaslik haqida va royalti miqdori muvofiq yoki muvofiq emasligi haqida qaror qilishi lozim. To‘g‘ri qaror qabul qilishni ta‘minlash maqsadida, avvalambor, intellektual mulkning iqtisodiy qiymatini nafaqat Royaltini yengillashtirish metodi yordamida, balki Foydani taqsimlash metodi va hatto, Aktivni ayirish metodi yoki “Bosh barmoq qoidasi” metodi yordamida hisoblash va so‘ngra olingan iqtisodiy qiymatlarni bir-biriga taqqoslagan va umumlashtirgan holda royaltini aniqlash tavsiya etiladi.

Texnologiya litsenziyalashtirilganda qiymat royalti stavkasiga asosan topiladi. Bu yerda muammo royalti stavkasini qaysi darajada bo‘lishini aniqlashdir. Royalti stavkasini texnologiya sohasi uchun standart bo‘lgan stavka bilan solishtirgan holda belgilash mumkin. Litsenziya beruvchi uchun royalti stavkasini belgilashning eng oqilona yo‘li, avvalo, sotish va daromadlar bo‘yicha biznes ma‘lumotlarini o‘rganib chiqish, so‘ngra royaltining umumiy qiymatini baholash va nihoyat, yillik to‘lanadigan royalti stavkasini belgilashdan iborat. Royalti stavkasining taxminiy qiymati yillik royalti miqdorini kutilayotgan sotishga bo‘lish orqali aniqlanadi.

Agar royalti to‘lovi sifatida qat’iy belgilangan (lyumpsum) shartnoma narxi va yillik royalti qiymatidan foydalanilsa, qat’iy

belgilangan narx va royalti to'lovi o'rtasidagi summalarning nisbatlarini aniqlash masalasi yuzaga keladi.

Bunday hollarda, avvalo, litsenziya egasining biznes faoliyati ko'lamini, kutilayotgan daromad miqdorini prognozlash, so'ngra royalti sifatida to'lanishi lozim bo'lgan pul miqdori haqida tasavvurga ega bo'lish va nihoyat, bir yo'la to'lov miqdori (lyumpsum) va royalti miqdori o'rtasidagi nisbatni aniqlash maqsadga muvofiqdir. Agar bir yo'la to'lov summasi miqdori yuqoriroq belgilangan bo'lsa, joriy royaltiga belgilanadigan stavka past bo'ladi. Agar aksincha bo'lsa, royalti stavkasi yuqori bo'ladi.

Bir yo'la to'lov yoki joriy royalti to'lovi uchun mablag' ajratish faqatgina Royaltini yengillashtirish metodini qo'llagan holda amalga oshirilishi mumkin. Shunga qaramay, baholashning obyektivligi bir nechta baholash metodidan foydalangan holda va royalti stavkasi olingan natijalarni bir – biriga taqqoslash orqali belgilanganda oshadi.

Intellektual mulk litsenziyaga ega bo'lgan hollarda yuqorida ko'rib chiqilgan hisoblash jarayoni har doim ham bajarilmaydi. Bunday holatga oddiy misol tariqasida farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonida to'lanadigan oraliq to'lovlarni keltirish mumkin. Farmatsevtika ishlab chiqarish loyihasiga ko'ra, bir yo'la shartnoma to'lovi shartnomaning birinchi bosqichida preparatni ishlab chiqishga mas'ul korxonaning farmatsevtika mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi tomonidan to'lanadi. Ushbu to'lov ko'pincha oraliq davrda, masalan, klinik tekshiruvning har bir bosqichining yakunida qo'shimcha bir martalik to'lovlarni ergashtirib keladi. Tadqiqot va ishlab chiqishda qo'shimcha ravishda amalga oshiriladigan bir martalik to'lovlar "oraliq to'lovlar" nomi bilan ma'lum. Ushbu to'lovlar, ya'ni bir martalik yoki oraliq to'lovlar farmatsevtika mahsulotini ishlab chiqish muvaffaqiyatli yakunlangach, litsenziya shartnomasini tuzish huquqini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, mazkur to'lovlar bunday huquqlarga ega bo'lish uchun berilgan miqdorlardir. Lekin bu miqdorlarni o'lchash qiyin, chunki ular farmatsevtika vositasini ishlab chiqarish va sotish natijasida qo'lga kiritilgan daromadni maxsus prognozlashga asoslanib belgilanadi. Qolaversa, bu uzoq davom etuvchi

jarayon bo'lib, u ishlab chiqaruvchi farmatsevtika vositalarini ishlab chiqish uchun ilk shartnoma tuzishidan boshlab, mahsulotni bozorda sotish uchun ruxsatnoma olib, ularni sotishigacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga oladi. 2013-yilda olib borilgan so'rov natijalariga ko'ra, yangi faol tarkibdagi farmatsevtika preparatlarining dastlabki klinik tekshiruvlardan o'tishidan tortib, uning ma'qullanishigacha bo'lgan davr taxminan sakkiz yilni tashkil etgan. Agar shartnoma farmatsevtika vositasini klinik tekshiruvdan o'tkazish haqidagi bildirishnomadan oldin tuzilsa, u holda preparatni ishlab chiqish davri ham uzoqroq kechadi. Odatda, kelajakda amalga oshirilishi (yoki oshirilmaligi) mumkin bo'lgan biznes faoliyati natijasida olinadigan potensial daromad miqdorini prognozlash juda qiyin. Shuning uchun ham bu faoliyat uchun bir martalik va oraliq to'lovlar qiymatini Daromad yondashuvi asosida hisoblab chiqish qiyin. Aksincha, bu to'lovlar summalari dori vositasining samaradorligi va boshqa xususiyatlariga asoslanib, ularning bozor narxiga tayangan holda va farmatsevtika preparatlari ishlab chiqaruvchi tomonidan kutish va to'lov qobiliyati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikka asoslanib belgilanadi.

8.3. M&A (birlashish va o'zlashtirish) bitimlari uchun baholash metodi

“M&A” bitimlari “Google” “Motorola Mobility” ning birlashishi ko'rinishidagi maqsadli patentlangan texnologiyalar yoki ishlab chiqilayotgan texnologiyalar ko'rinishida bo'lishi mumkin. Yaponiya kompaniyalari orasida ham maqsadli korxonalarining texnologik aktivlariga mo'ljallangan “M&A” bitimlarining (ularning aniq patentlash texnologiyasini o'zlashtirish niyatlari ko'zda tutilmagan bo'lsa-da) ko'p ko'rinishlari uchraydi.

3-jadvalda turli manbalardan olingan va asosiy maqsadi, ehtimol, texnologik aktivlarni o'zlashtirishdan iborat bo'lgan M&A holatlarining ro'yxati keltirilgan:

**Asosiy maqsadi, ehtimol, texnologik aktivlarni o‘zlashtirishdan
iborat bo‘lgan “M&A” ko‘rinishlari³⁷**

Amalga oshiruvchi korxonona (1) nomi	Maqsadli korxonalar (2) nomi	M&A miqdori	M&A vaqti	Maqsadli texnologiyalar
Canon	Tokki	7.6 mlrd yena	Dek. 2007	Organic EL
Fujifilm	Toyama Chemical	19.8 mlrd yena	Fevral 2008	Medical drug
Takeda Pharma	Millennium Pharma.	880 mlrd yena	Aprel 2008	Carcinostatic Agent
Furuno Elect	eRide Inc.	1.5 mlrd yena	Fevral 2009	GPS sensor
Olympus	Innovex. Inc.	6.8 mlrd yena	Iyul 2010	Fluorescence X rays analyzer
Nippon Densan	Emerson Electric	60-70 mlrd yena	Sentyabr 2010	SR motor for next generation
Hitachi Medical	Aloka	25.6 mlrd yena	Dek. 2010	Low price ultrasonic diagnostic equipment
Fujifilm	MSD Biologistic	-	Mart 2011	Biomedicine
Asahi Kasei	Zoll Medical	181.2 mlrd yena	Aprel 2012	Critical care equipment
Daikin	Goodman Global	296 mlrd yena	Noyab.2012	Duct style air-condition
Mitsubishi Chemical	Qualicaps	55.8 mlrd yena	Mart 2013	Capsule for medical drug
Konica Minoruta	Panasonic Health Care	-	YAnv. 2014	Ultrasonic diagnostic technology
NTT Data	Everis Group	50 mlrd yena	Noyab.	Information technology
Orix	Arrk	15 mlrd yena	Avg. 2014	3 D technology
Canon	Axis Communication	-	Avg. 2015	Monitoring camera technology
Asahi Kasei	Polypore International	260 mlrd yena	Avg. 2015	Insulating material for Lithium-ion battery
Konica Minoruta	Radiant Vision Systems	30 mlrd yena	Avg. 2015	Automatic technology for failure detection
Sekisui Chemical	Eidia	22.5 mlrd yena	Dek.2015	Test drug
Canon	Toshiba Medical Systems	665.5 mlrd yena	Mart 2016	Medical equipment

Bu yerda ta’kidlab o‘tish joizki, “M&A” bitimlari yordamida qo‘lga kiritilgan aktivlar texnologiya aktivlari bilangina cheklanib qolmaydi,

³⁷ Dr. Yasuyuki ISHII. Valuation of Intellectual Property. Japan Patent Office Asia - Pacific Industrial Property Center, Japan Institute for Promoting Invention and Innovation 38-p , ©2017

balki maqsadli kompaniyalarga tegishli bo'lgan barcha aktivlarni o'z ichiga oladi. Bu degani, sotib oluvchi (o'zlashtiruvchi) kompaniya biznesning umumiy qiymati uchun haq to'laydi.

Shu sababli yuqorida sanab o'tilgan "M&A" bitimlari ko'rinishlari 2012-yil may oyida "Google" tomonidan "Motorola Mobility"ning o'zlashtirilishidan keskin farq qiladi. "Motorola Mobility" 12.5 milliard dollarga o'zlashtirilgandan so'ng, "Google" 2013-yil aprel oyida "Motorola" Home qismini Arris ga 2.41 milliard dollarga baholadi. 2014-yil oktabr oyida Mobil telefon bo'limini esa "Lenovo"ga 2.9 milliard dollarga baholadi. U davrdagi sotilgan aktivlar "Google" "Motorola Mobility"dan o'zlashtirgan patentlar va texnologiyalarning bor yo'g'i bir nechtasini o'z ichiga oldi. Bu texnologiyalar "Google" da saqlangan edi. Keyinchalik ma'lum bo'lishicha, "Google" "Motorola Mobility"ning aktivlarini, ya'ni patentlar va texnologiyalarni faqatgina kompaniyaning "M&A" bitimlari yordamida qo'lga kiritgan. Sodda qilib aytganda, texnologiya aktivlarini o'zlashtirish uchun umumiy hisobda 7.2 milliard dollar to'langan.

"Google" kompaniyasi misolidagi o'zlashtirishlar maxsus hollarda ham ko'rib chiqilishi lozim. Texnologiyalarni o'zlashtirish bilan bog'liq oddiy "M&A" bitimlarda kompaniyaning barcha aktivlari texnologik aktivlar bilan bir qatorda o'zlashtiriladi va sotib oluvchining korporativ guruhiga biznes faoliyati sifatida kiritiladi. Bunday "M&A" bitimlarining qiymati faqatgina texnologik aktivlarning qiymatini baholashga asoslanib emas (hatto "M&A" bitimlarining bosh maqsadi texnologik aktivlarni o'zlashtirish bo'lsa ham), balki yuqorida tasvirlanganidek, biznes faoliyatining to'liq qiymatiga asoslangan holda hisoblanishi lozim.

Agar Aktivlarni ajratish metodi va "Bosh barmoq qoidasi" metodi qo'llanilsa, biznes faoliyatining umumiy qiymati yuqoridagi formuladan foydalangan holda texnologik aktivlar qiymatini belgilash hisobiga aniqlanishi mumkin.

8.4. IMO va NMA ni Investitsiyalash maqsadida baholash metodi

AQSHda keng miqyosda qo'llaniladigan royalti krediti bilan ta'minlangan aktivlarni moliyalashtirish shaklidagi investitsiyalarga kelsak, intellektual mulk subyektlari tomonidan yaratiladigan royalti

miqdorlari va kelajakdagi daromadlarni prognozlash va so'ngra ularning joriy qiymatlarini jamlash yo'li bilan olingan miqdorga asoslanib investitsiya miqdorini aniqlash mumkin. Umumiy qiymat korxonaning litsenziyalash operatsiyalari deya tasniflangan tijoriy qiymatini ifodalaydi va intellektual mulklarning o'zi tomonidan yaratilgan qiymatni bildiradi. Bundan kelib chiqadiki, Aktivlarni ayirish metodida qo'llaniladigan va intellektual mulk tomonidan yaratilgan pul mablag'lari harakatining joriy qiymatini jamlovchi Diskontlangan pul oqimi metodini mazkur holda ham qo'llashimiz mumkin.

Aksincha, loyihani moliyalashtirish Yaponiya va boshqa ko'plab mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Bunday turdagi moliyalashtirish texnologiya va boshqa intellektual mulkdan foydalanadigan biznes faoliyati uchun mo'ljallangan va investitsion qarorlar qabul qilish korxonaning potensial daromadlariga asoslanib amalga oshiriladi. Bunday holda, investitsion qarorlar qabul qilish uchun intellektual mulklarning qiymatini baholash o'rniga biznesdan keladigan daromad miqdorini taxmin qilish (prognozlash) va ushbu daromadni olish ehtimoli darajasini aniqlash lozim. Bunday investitsion qarorlar yangi texnologiyalarni qo'llagan holda o'z biznesini boshlashni rejalashtirayotgan korxonalariga investitsiya kiritish bilan bog'liq qarorlarga o'xshab ketadi. Shundan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, loyihani moliyalashtirish murakkab baholash metodlarini o'z ichiga oluvchi murakkab jarayondir.

Korxonaga investitsiya kiritishda pul miqdorlarini baholashdan ko'ra, korxonaning likvidligini yoki kelajagini ko'ra bilish muhimroq rol o'ynaydi. Bu ko'proq investitsion prognozni yaratishdan ko'ra, rasm chizishga o'xshab ketadi. Boshqacha aytganda, bu yerda investitsion qarorlarni qabul qiluvchi shaxs uchun his-tuyg'u va intuitsiya muhim ahamiyatga ega. Investitsion qarorlarni qabul qiluvchi ko'plab insonlar maqsadli korxonalarining tashqi direktorlari bo'lib, ular korxonaning boshqaruvida faol ishtirok etadilar va uning rivojlanishida keng amaliy yordam ko'rsatadilar. Bunday turdagi investitsiyalarda investitsion qarorlar investitsiyalar foyda olib kelishini ta'minlashning zaruriyati yo'qligini anglagan holda amalga oshiriladi. Bu yerda investitsion qarorlarni qabul qiluvchi shaxsning korxonaning rivojlanishidan manfaatdor

yoki manfaatdor emasligi muhim ahamiyat kasb etadi. Loyihani moliyalashtirishni baholash ehtimolligi, ko‘pincha, “mingdan uchtasi” nomli qadimgi aksioma bilan ta’riflanadi. Misol uchun, o‘ntadan bitta investitsion loyiha amalga oshirilishi mumkin va amalga oshirilgan investitsion loyihalarning o‘ntadan bittasi daromad keltirishi mumkin. “Moliyalashtirish dunyosi”da muvaffaqiyatga erishish ehtimoli sezilarli darajada past. Ushbu yo‘nalishda qabul qilingan investitsion qarorlar deganda, loyihaning butunlay maqsadga muvofiqqligini va uni amalga oshirish istagi haqidagi “deklaratsiya” tushuniladi. Bu deklaratsiya pul miqdorlarini oddiy baholash natijasida olinmaydi. Balki, baholovchi uchun sarmoya kiritish haqidagi qaror uning o‘z fikr va hislari rasmini “polotno”ga chizishdek gap.

Agar investor biror-bir tashkilot bo‘lsa, masalan, moliya tashkiloti bo‘lsa, unda vaziyat boshqacha tus oladi. Agar investor investitsiyadan foyda olish maqsadida investitsiya kiritisa, albatta, investitsiyadan olinadigan daromadni prognozlash tabiiy holdir. Investitsiyalarning yuqori chegarasini belgilashda kutilayotgan daromadlar miqdorini o‘lchash muhimdir. Bunday holda intellektual mulkning qiymatini baholash o‘rniga biznes faoliyatini olib borish natijasida yuzaga keladigan pul mablag‘lari harakati darajasiga qarab prognoz qilinadigan miqdorni kiritish muhimdir. Qolaversa, baholovchi baholash natijalarini Aktiv ayirish metodi yordamida ham olishi mumkin. Bunday baholashda xuddi “M&A” holatidagi kabi Diskontlangan pul oqimi metodi qo‘llaniladi.

Texnologiya yoki boshqa intellektual mulk qiymatini chuqur o‘rganishga zaruriyat tug‘ilmaydi. Buning sababi shundaki, bu yerda maqsad aktiv qiymatini baholash emas, balki aktivlarga yoki boshqa intellektual mulkka asoslangan loyihalar qiymatini baholashdir.

8.5. Intellektual mulk huquqlarining garov qiymatini baholash metodi

Kafolatli zayomlarni baholashda qo‘llaniladigan baholash metodlari uni o‘zlashtirishdagi baholash metodlari bilan deyarli bir xil. Baholovchi, birinchi o‘rinda, yuqorida keltirilgan baholash

metodlarining kamida ikkitasidan foydalangan holda texnologiya va boshqa intellektual mulk qiymatini baholaydi va olingan bir necha baholash natijalarini jamlaydi va nihoyat, olingan qiymatni baholash asosida garov kafolatini aniqlaydi. Baholash qiymati garov kafolati sifatida qo'llanilmaydi. U holda garov kafolatini "to'lovni qaytarish riski" yordamida aniqlanadigan garov koeffitsiyentiga ko'paytirish orqali baholash zarur.

Moliya institutlari garov kafolati doirasida zayomlar taqdim etsa, ularning riski sezilarsiz darajada kamayishi mumkin. Bu hech bo'lmasa oqilona iqtisodiy bitimlarning paydo bo'lishini ta'minlaydi.

Shunga qaramasdan, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, intellektual mulk garov sifatida qo'llanilganda yetarli darajada samara bera oladimi degan savol yuzaga keladi. Garov ta'minoti qarzdor o'z qarzini uza olmagan hollarda manfaatdor tomonlar talabiga asosan musodara qilish uchun mo'ljallangan. Qarzni to'lash uchun garov ta'minoti uchinchi tomonga sotiladi va qo'lga kiritilgan mablag' qarzni to'lashga yo'naltiriladi. Biroq garovga qo'yilgan texnologiyalar yoki boshqa intellektual mulklarni sotib olishga va ularni o'z biznes faoliyatida ekspluatatsiya qilishga tayyor uchinchi tomonni topish mushkul. Yaponiyada texnologiyalarni va boshqa intellektual mulklarni sotish bilan shug'ullanadigan bozorlar mavjud emas. Bu bilan aloqador bir qancha hollar, masalan, intellektual mulk kafolatli zayomlarini taqdim etgan moliyaviy institutlarning qarzlarni yopishga noqobilligi hollari ko'p uchragan.

Shu sababli intellektual mulk garovi qarzdorlarga berilgan kreditlarni kafolatlash uchun qo'shimcha omil bo'lib xizmat qiladi. Kredit kafolatining birlamchi asosi bo'lib, intellektual mulkdan foydalanuvchi korxonalar faoliyatining barqarorligi va istiqbolligi sanaladi. Bu konsepsiya yuqorida keltirilgan misolda o'z aksini topishi kerak, chunki moliyaviy institutlarning bir qanchasi qarz oluvchilarga biror mulkni garovga qo'yishni talab qilmasdan, faqatgina qarz oluvchining texnologik ishlab chiqarish mahoratini yuqori baholagan holda kreditlar ajratadi.

Yuqorida aytib o‘tilganidek, Yaponiyada 1995-yildan boshlab, intellektual mulk kafolat zayomlariga keng e‘tibor berila boshlandi. Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi (keyinchalik Xalqaro savdo va sanoat vazirligi deya nomlandi) tomonidan tashkil etilgan Intellektual mulk huquqlarining garov qiymatini baholovchi vositalar jamiyati tomonidan chop etilgan hisobotda quyidagilar nazarda tutilgan:

Hisobotga ko‘ra, agar qarzdor olingan qarzni belgilangan muddat ichida qaytarib berolmasa, kafolat sifatida garovga qo‘yilgan intellektual mulk moliya instituti tomonidan qarzdordan uchinchi tomonga sotiladi, – deya faraz qilinishi kerak. Shuning uchun ham intellektual mulkni baholash qarzdorning o‘zi intellektual mulkdan foydalanadi degandan ko‘ra kafolat intellektual mulkini qo‘lga kiritgan uchinchi tomon undan foydalanadi degan faraz asosida olib borilishi kerak.

Shu sababdan, baholash jarayonining dastlabki bosqichlarida biznes faoliyati (sotish miqdori) natijasida olinadigan daromadlarni prognoz qilganda, uni intellektual mulkka asoslangan biznes faoliyatini olib borish huquqini qo‘lga kiritgan uchinchi tomonning kutilayotgan daromadi deya hisoblash lozim. Bu holda intellektual mulkning huquqiy vorisi sifatida aynan qaysi turdagi biznes vakilini faraz qilish muammo tug‘diradi. Har qanday holda ham baholovchi faraz qilib olingan biznes vakilining kutilayotgan daromadiga asoslangan pul oqimlarini hisoblagan holda va olingan natijalarni joriy qiymatga aylantirgan holda biznesning umumiy qiymatini aniqlashi lozim.

Aniqlangan biznes qiymati biznes vakili ya‘ni biznes faoliyatining huquqiy vorisi tomonidan yaratilgan pul oqimlariga asoslangan biznes qiymatidir. Huquqiy voris kafolatlangan intellektual mulk uchun o‘zlashtirish haqini to‘lashi lozim.

Texnologiya va boshqa intellektual mulk qiymatini baholashda, baholovchi intellektual mulk bahosini, avvalo, intellektual mulkning biznes qiymatiga hissa nisbatini aniqlab va so‘ngra biznes qiymatni hosil bo‘lgan nisbatga ko‘paytirish orqali aniqlaydi.

1990-yillarning ikkinchi yarmi va 2000-yillarning birinchi yarmida, Yaponiya Taraqqiyot Banki (YATB) kafolatli zayomlarni faol targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynadi. Ko‘plab mahalliy moliya tashkilotlari ham

YATB bilan birga moliyalashtirish natijasida qo‘lga kiritilgan nou-xauga asoslangan kafolatli intellektual mulk zayomlarini keng qo‘llay boshladi. Hozirga kelib, Yaponiyada faqatgina intellektual mulkka asoslangan kreditlar taqdim etuvchi moliyaviy tashkilotlar soni kamayib bormoqda. Ayrim mintaqaviy banklar bunday moliyalashtirishni qo‘llashda davom etayotgani tasdiqlangan bo‘lsada, boshqa ko‘plab moliyaviy institutlar garovsiz kreditlar taqdim etish tizimini ishga tushirdi. Bunday moliyaviy institutlar asosiy e‘tiborini intellektual mulklarning kelajakdagi istiqbollariga qaratdi va ularning kafolat sifatida qo‘yilishini talab qilmadi. Va bu hol, yuqorida ta’kidlanganidek, intellektual mulklarning garov ta’minoti sifatida o‘z qiymatini yo‘qotishiga qisman sababchi bo‘ldi.

Intellektual mulk kreditga layoqatli litsenziya egasi tomonidan litsenziyalangan holda va ma’lum bir qiymatdagi royalti daromadi belgilangan holdagina garov ta’minoti sifatida qo‘llanilishi mumkin. Agar royalti pul oqimiga asoslanib hisoblansa va garov qiymati intellektual mulkning pul oqimining joriy qiymatidan olingan qiymatga asoslanib hisoblansa, garov qiymati uchinchi tomon huquqiy vorisi kim bo‘lishidan qat’i nazar, o‘zlashtirish haqi sifatida ham qo‘llanilishi mumkin. Mazkur holda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan baholash metodi Royaltini yengillashtirish metodi hisoblanadi.

Agar moliyalashtirish intellektual mulkning garov ta’minotiga asoslanib emas, balki intellektual mulkning kelajakda kutilayotgan istiqbollariga asoslanib yoki intellektual mulkka asoslangan biznes asosida amalga oshirilsa, biznes qiymati yuqorida tasvirlangan Aktivlarni ayirish metodi yordamida yoki pul oqimlarining umumiy joriy qiymati yordamida hisoblanadi. Hisoblash davomida baholovchi yangi biznes faoliyatida mavjud bo‘lgan barcha risklar to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lishi lozim. Shuningdek, quyida keltirilgan vaziyatlarning istalgan biri sodir bo‘lishi mumkin:

✚ Korxonada, ya’ni intellektual mulk egasi intellektual mulk huquqini uchinchi kreditga layoqatli tomonga litsenziyalab berdi. Uchinchi tomon intellektual mulk huquqiga asoslangan o‘z biznes faoliyatini boshladi va litsenziya uchun royalti to‘lamoqda.

✚Korxonada, ya'ni intellektual mulk egasi intellektual mulkka asoslangan o'z biznes faoliyatini boshladi. Bu faoliyat natijasida korxonada yetarli darajada davomiy va barqaror daromad olib kelmoqda.

✚Korxonada, ya'ni intellektual mulk egasi ishlab chiqarishni yo'lga qo'ydi va OPO kelishuvi asosida intellektual mulkka asoslangan mahsulotlarining ma'lum miqdorini sotdi.

✚Korxonada, ya'ni intellektual mulk egasi intellektual mulkka asoslangan biznes faoliyatini yaratishni rejalashtirmoqda. Hali ham rejalashtirish bosqichida bo'lsa-da, korxonada o'z faoliyati uchun ishlab chiqarish tizimini o'rnatdi va shartli bitimlar orqali maxsus savdo kanallarini himoyalab qo'ydi. Biznesning muvaffaqiyatli bo'lishi ehtimoli juda yuqori.

Zayom olish uchun intellektual mulkni garov sifatida qo'yish holatining asosiy sabablaridan biri o'chirilmagan qarzlarni tiklashdagi qiyinchiliklar tufayli bunday turdagi moliyalashtirishning yuqori riskka egaligidir. Agar moliyalashtirishda garov tariqasida moddiy aktivlar qo'yilsa, bunday muammolar yuzaga kelmaydi. Agar korxonada daromadi past bo'lsa, uning risk darajasi ham past bo'ladi. Agar korxonada faoliyati yuqori riskli bo'lsa, aksiyadorlar yuqori daromadlarning kafolatlanganidan yoki biznes faoliyatining kengayishi natijasida daromaddagi o'sishlardan foyda ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Qarz oluvchi korxonalar qarz beruvchi korxonalar bilan operatsiyalarni oshirib borishi biznes operatsiyalari kengayishining oddiy misoli bo'la oladi. Bu xuddi kichik korxonalar avval o'rta korxonalar, so'ngra esa katta korxonalar aylanishiga o'xshab ketadi.

Qo'shimcha qilib aytganda, intellektual mulkni garov sifatida qo'yish, garchi o'chirilmagan qarzlarni tiklash imkoni bo'lmasa-da, ma'lum bir samarali natijalarga olib kelishi mumkin. Umuman olganda, intellektual mulkni ishlab chiquvchi biznes vakili (biznes boshqaruvchi shaxs) intellektual mulkka biroz hissiy jihatdan bog'lanib qoladi. Agar uning intellektual mulki garovga qo'yilsa, u garovga qo'yilgan intellektual mulkni qayta olish uchun qattiq ishlab, qarzlarni qaytarishga

intiladi. Vaziyat intellektual mulkni ishlab chiquvchilarning xulq-atvori, qarashlariga qarab o'zgaraveradi³⁸.

Tayanch iboralar:

Intellektual mulk mulkiy huquqlarning obyektini sifatida ustav kapitaliga kiritilishi. Bunday hissani hujjatlashtirish xususiyati va uni baholash. Majburiy litsenziyalash tushunchasi. Majburiy litsenziyalashni o'tkazish zarurligi va shartlari. Majburiy litsenziyalashni baholash xususiyatlari. Intellektual mulk obyektlari egasining huquqlarini buzishdan kelgan zararni aniqlash. Intellektual mulk obyektlari egasiga to'lanadigan kompensatsiya miqdorini aniqlash. Korxonani qayta tashkil etishda intellektual mulk qiymatini baholash xususiyatlari. Intellektual mulkni garov obyektini sifatida muvofiqlashtirishning huquqiy jihatlari. Garov maqsadlaridagi intellektual mulkni baholash xususiyatlari. Intellektual mulk obyektlari bilan amalga oshiriladigan bitimlarga ta'luqli opsiyonlarni aniqlash. Opsion turlari. Opsion riskni boshqaruvchi instrument sifatida. Opsion qiymatini aniqlash uchun qo'llaniladigan yondashuvlar. Franshiza va franchayzing tushunchalari. Franchayzing shartnomalarini tuzish shartlari. Franshiza va opsiyonlarni tuzishda intellektual mulk obyektlarini baholash xususiyatlari.

Nazariy bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. Intellektual mulk obyektlari va nomoddiy aktivlarni baholashda identifikatsiya qilish deganda nimani tushunasiz?
2. Axborot yig'ish va uni tahlil qilishning qanday yo'llari mavjud.
3. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar ko'rsatkichlari tizimi.
4. Baholash obyektini identifikatsiya qilish nimalarni nazarda tutadi.
5. Baholash obyektini identifikatsiya qilish yakunlari bo'yicha baholash tashkiloti tomonidan buyurtmachi bilan hamkorlikda qanday hujjat tuziladi va tasdiqlanadi.
6. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar qiymati baholash obyektiga bo'lgan huquqlarni identifikatsiya qilishda baholovchi mulkiy

³⁸ Dr. Yasuyuki ISHII. Valuation of Intellectual Property. Japan Patent Office Asia - Pacific Industrial Property Center, Japan Institute for Promoting Invention and Innovation 35-40-p, ©2017

huquqlarga qonuniy egalik qilinishini tasdiqlovchi qanday hujjatlarni buyurtmachidan taqdim etishni talab qiladi?

7. Identifikatsiya varaqasi nimalardan iborat bo'lishi lozim.

8. Baholash to'g'risidagi hisobotda baholovchi makroiqtisodiy axborotning tahlilini amalga oshirayotganda qanday makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni keltirishi lozim.

9. Mualliflik huquqi subyektlari tomonidan qanday mualliflik huquqi obyektlari ajratilishi mumkin.

10. «Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida»gi qonun nechanchi yilda qabul qilingan?

Testlar:

1. Dastlabki qiymat —

a) aktivni xarid qilish uchun to'langan pul mablag'lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir.

b) nomoddiy aktivlarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summadir.

c) aktiv hisob va hisobotda aks ettiriladigan jamg'arilgan amortizatsiyani chiqarib tashlangan holda nomoddiy aktivlarning dastlabki yoki joriy qiymati sanaladi.

d) ayirboshlash mumkin bo'lgan summadir.

2. Sotish qiymati qanday qiymat?

a) nomoddiy aktivlarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lgan summadir.

b) nomoddiy aktivlarni bitim paytida manfaatdor taraflar o'rtasida ayirboshlash mumkin bo'lmagan summadir.

c) korxonadan keyinchalik foydalanish hisobiga qoplash mo'ljallanayotgan summa, shu jumladan, tugatilish qiymati.

d) aktivni xarid qilish uchun to'langan pul mablag'lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir.

3. 13-SON MBMS qanday nomlanadi?

a) Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholash.

b) Ko'chmas mulkni baholash.

- c) Bino inshootlarni baholash.
 - d) Ko‘char mulk qiymatini baholash.
4. “Baholash” fe‘li nimani anglatadi?
- a) Qiymatni aniqlash san‘ati.
 - b) Qiymat to‘g‘risidagi xulosa.
 - c) Nimaningdir qiymati to‘g‘risidagi tasavvurga ega bo‘lish
 - d) Narxni belgilash
5. “Moliyalashtirish qiymatga ta’sir qiladi” – ushbu tasdiq to‘g‘rimi yoki noto‘g‘ri?
- a) To‘g‘ri.
 - b) Qisman ta’sir qiladi.
 - c) Noto‘g‘ri.
 - d) Shartli ravishda.
6. Qoldiq qiymati bu –
- a) aktiv hisob va hisobotda aks ettiriladigan jamg‘arilgan amortizatsiyani chiqarib tashlangan holda nomoddiy aktivlarning dastlabki yoki joriy qiymati sanaladi.
 - b) nomoddiy aktivlarni bitim paytida manfaatdor taraflar o‘rtasida ayirboshlash mumkin bo‘lgan summadir.
 - c) korxonadan keyinchalik foydalanish hisobiga qoplash mo‘ljallanayotgan summa, shu jumladan, tugatilish qiymati.
 - d) manfaatdor taraflar o‘rtasida ayirboshlash mumkin bo‘lgan summadir.
7. O‘rni qoplash qiymati bu –
- a) korxonadan keyinchalik foydalanish hisobiga qoplash mo‘ljallanayotgan summa, shu jumladan, tugatilish qiymati.
 - b) nomoddiy aktivlarni bitim paytida manfaatdor taraflar o‘rtasida ayirboshlash mumkin bo‘lgan summadir.
 - c) aktivni xarid qilish uchun to‘langan pul mablag‘lari yoki uni barpo etishda amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlardir.
 - d) manfaatdor taraflar o‘rtasida ayirboshlash mumkin bo‘lgan summadir.
9. Qanday nomoddiy aktivlarga amortizatsiya hisoblanmaydi?
- a) korxonaga tegishli bo‘lmagan, lekin huquq egasi tomonidan

litsenziya shartnomasi yoki boshqacha shartnoma (tanho bo‘lmagan litsenziya) bo‘yicha berilgan va balansdan tashqari schyotda hisobga olinadigan nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqi asosida korxonada foydalanayotgan nomoddiy aktivlar;

b) franshiza.

c) Mualliflik huquqi.

d) nou-xau.

10. Gudvillning eskirishi schyot turi bo‘yicha qaysiga qarashli?

a) Passiv schyotlar.

b) Aktiv schyotlar.

c) Kamayish passiv.

d) Aktiv va passiv schyotlar.

11. Korxonada yaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlanmalari bu –

a) Nomoddiy aktiv.

b) Asosiy vosita.

c) Aylanma mablag‘.

d) Franshiza.

12. Nomoddiy aktivarga amortizatsiya hisoblash usullari?

a) Ish hajmi bo‘yicha, yillar yig‘indisi, tog‘ri chiziqli, qoldiqni kamayishi.

b) yillar yig‘indisi, tog‘ri chiziqli.

c) qoldiqni kamayishi.

d) royaltidan ozod qilish usuli.

13. Gudvill nima?

a) Firma bahosi.

b) Aktivning bahosi.

c) Korxonani sotib olish bahosi.

d) Nomoddiy aktivning bahosi.

14. Nomoddiy aktivlar hisobi qaysi BHMA talablari asosida olib boriladi?

a) BHMA -7

b) BHMA -5

c) BHMA -2

d) BHMA -4

15. Royalti bu –
- davriy ravishdagi litsenziya to'lovlaridir
 - bir vaqtda katta hajmdagi qat'iy belgilab qo'yilgan litsenziyaviy to'lov
 - Korxonani sotib olish bahosi
 - Aktivning bahosi
16. Paushal to'lov bu
- bir vaqtda katta hajmdagi qat'iy belgilab qo'yilgan litsenziyaviy to'lov
 - davriy ravishdagi litsenziya to'lovlaridir
 - Aktivning bahosi
 - Korxonani sotib olish bahosi
17. Litsenziya nima?
- ma'lum haq evaziga boshqa shaxs yoki organ tomonidan kashfiyot, texnologiya, texnik bilimlar va sanoat tajribasi, ishlab chiqarish sirlari, savdo markasi, ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan tijorat yoki boshqa axborotdan ma'lum muddatga foydalanishdir.
 - bir korxonadan boshqasiga unga qarashli aktivlardan, shu jumladan, savdo markalari va atamalari kabi nomoddiy aktivlardan foydalanish huquqining berilishi.
 - ilmiy, adabiy, musiqa yoki boshqa asarlarni nashr qilish, ijro etish yoki boshqa turdagi foydalanish huquqi sanaladi
 - ijro etish yoki boshqa turdagi foydalanish huquqi sanaladi
18. Litsenziyaning qanday turlari mavjud?
- Oddiy litsenziya, Istisno tariqasidagi litsenziya, To'la litsenziya
 - To'la litsenziya
 - Aktiv litsenziya
 - Paushal
19. Oddiy litsenziya bu
- shartnomasi bo'yicha litsenziar ma'lum shartlarda kashfiyotlar yoki "nou xau"lardan foydalanishga ruxsat beradi.

b) shartnomasi bo'yicha litsenziat (sotib oluvchi)ga kashfiyot yoki ishlab chiqarish siridan bitimda kelishilgan doirada foydalanish huquqi istisno tariqasida beriladi.

c) shartnomasining mazmuni shundan iboratki, litsenziar butun shartnoma muddati davomida kashfiyot (ishlab chiqarish siri)ga bo'lgan barcha huquqlarni beradi.

d) kashfiyot yoki ishlab chiqarish siridan bitimda kelishilgan doirada foydalanish huquqi istisno tariqasida beriladi.

9-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTLARI VA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH TO‘G‘RISIDAGI HISOBOT

9.1. Qo‘llanilgan baholash yondashuvlari natijalarini muvofiqlashtirish va yakuniy qiymatni aniqlash

Baholashning turli yondashuvlari bilan olingan baholash natijalarini muvofiqlashtirish (umumlashtirish) bunday natijalarni o‘lchash va taqqoslash yo‘li bilan baholash obyektining yakuniy qiymatini aniqlash uchun mo‘ljallangan.

Hisoblashlar natijalarini umumlashtirish baholovchi tomonidan u tomondan tanlab olingan umumlashtirish mezonlariga asosan har bir mezonlar bo‘yicha hisoblashlar natijalarini bir-biriga o‘zaro taqqoslash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Muvofiqlashtirish quyidagi usullar bilan amalga oshiriladi:

✦ baholovchi amalga oshiradigan tahlil asosida, barcha muhim parametrlarni hisobga olgan holda solishtirma o‘lchovlarni tanlashdan iborat bo‘lgan mantiqiy muvofiqlashtirish usuli bilan baholovchi tomonidan ustuvor yondashuv aniqlanadi, qolgan yondashuvlarning natijalaridan esa ustuvor yondashuv yordamida olingan natijani tekshirish va unga tuzatish kiritish uchun foydalaniladi;

✦ matematik o‘lchash usulida turli baholash yondashuvlari bilan olingan natijalarning solishtirma o‘lchovlarini aniqlash uchun bir necha mezonlardan foydalaniladi va ularning yordamida qo‘llanilgan hisoblash usulining afzalliklari yoki kamchiliklari aniq obyektning baholash xususiyatlarini hisobga olgan holda tavsiflanadi.

Solishtirma o‘lchovlarni aniqlashda baholovchi quyidagi asosiy omillarni:

✦ tahlil va hisoblashlarga asos bo‘lgan axborotning ishonchliligi va yetarliligini;

✚ baholash yondashuvi baholash obyektiga xos bo'lgan narx belgilovchi omillar tuzilishini hisobga olishga qodirligini;

✚ yondashuvning baholash obyektiga o'xshash obyektarning odatdagi xaridorlari va sotuvchilari motivatsiyasini aks ettirishga qodirligini;

✚ baholash yondashuvining qiymatni baholashning turiga va maqsadiga muvofiqligini tahlil qilishi lozim.

Muvofiqlashtirishni o'tkazish uchun quyidagi usullar qo'llanadi:

✚ o'rtacha arifmetik miqdorni aniqlash usuli;

✚ o'rtacha o'lchangan miqdorni aniqlash usuli.

O'rtacha arifmetik miqdorni aniqlash usulida quyidagi hisoblash formulasidan foydalaniladi:

$$S = \Sigma \frac{\text{turli yondashuvlar bilan olingan qiymatlar}}{\text{yondashuvlar soni}}, \quad (1.31)$$

Bu yerda: **S** - qiymatning yakuniy bahosi.

O'rtacha o'lchangan qiymatni aniqlash usuli har bir usullarga (hisoblashlar natijalariga) muayyan o'lchov (foiz yoki rang)ni berishni nazarda tutadi. O'lchovlar ekspert yo'li bilan beriladi.

Ranglarga ajratish (ranjirlash) usulida ranglar 1 dan 3 gacha raqamlanadi. Eng kichik hisoblash natijasiga - **Smin** eng kichik rang beriladi, eng yuqori hisoblash natijasiga - **Smax** eng yuqori rang beriladi va o'rtacha natijaga - o'rtacha. Turli yondashuvlar bilan olingan qiymat miqdorlarini muvofiqlashtirish uchun quyidagi hisoblash formulasidan foydalaniladi:

$$S = (S_{min} * 1 + S_{sr} * 2 + S_{max} * 3) / \Sigma \text{ranglar miqdori}, \quad (1.32)$$

Bu yerda: **Smin** - baholash yondashuvlaridan biri bilan olingan qiymatning eng kichik miqdori;

Smax - baholash yondashuvlaridan biri bilan olingan qiymatning eng katta miqdori;

Ssr - baholash yondashuvlaridan biri bilan olingan qiymatning o'rtacha miqdori;

Nisbiy xatoliklarni hisobga olish usuli turli yondashuvlarni qo'llash natijasida kelib chiqadigan hisob-kitoblardagi xatoliklarni aniqlash uchun mo'ljallangan.

Daromad yondashuvida xatoliklar sotuvlar, daromadlar, soliqlar hajmini prognozlashda, tavakkalchiliklar miqdorlarini hisob-kitob qilishda, alohida iqtisodiy va ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini noaniq prognozlashda va boshqalarda paydo bo'lishi mumkin.

Sotuvlarning qiyosiy tahlilida xatoliklar analogning tavsiflarini to'g'ridan to'g'ri taqqoslashni o'tkazish imkoniyati bo'lmaganligi tufayli paydo bo'lishi mumkin, chunki ularning baholanayotgan obyekt bilan o'xshashlik darajasi taxminiydir va analogning qiymati faqat bitim sanasi holatigagina haqqoniy bo'lishi mumkin.

Xarajat yondashuvida xatoliklar xarajatlarni indeksatsiya qilishda, eskirishlar miqdorlarini va boshqalarni aniqlashda paydo bo'lishi mumkin. Shu bois baholashning har bir yondashuvi yordamida hisoblashlardagi ushbu xatoliklarni hisobga olish uchun o'rtacha o'lgangan miqdorni aniqlashning quyidagi formulalari qo'llaniladi.

Yakuniy miqdorni aniqlash uchun baholashning uchala yondashuvidan foydalanishda quyidagi formulalar qo'llaniladi.

1) Agarda quyidagi shartlar bajarilsa va hisoblash xatoliklari:

$$\frac{S_{max} - S_{cp}}{S_{cp}} * 100\% \geq 10\% \text{ ba } \frac{S_{cp} - S_{min}}{S_{cp}} * 100\% \geq 10\%. \quad (1.33)$$

Smin - baholash yondashuvlaridan biri bilan olingan qiymatning eng kichik miqdori;

Smax - baholash yondashuvlaridan biri bilan olingan qiymatning eng katta miqdori;

Ssr - baholash yondashuvlaridan biri bilan olingan qiymatning o'rtacha miqdorini tashkil qilsa, u holda qiymatning yakuniy miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanishi mumkin:

$$S = S_{sr} \quad (1.34)$$

2) Agarda quyidagi shartlar bajarilsa va hisoblash xatoliklari:

$$\frac{S_{max} - S_{cp}}{S_{cp}} * 100\% < 10\% \text{ ba } \frac{S_{cp} - S_{min}}{S_{cp}} * 100\% \geq 10\% \quad (1.35)$$

ni tashkil qilsa, u holda qiymatning yakuniy miqdori quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \frac{2 * S_{max} + 3 * S_{cp}}{5} \quad (1.36)$$

3) Agarda quyidagi shartlar bajarilsa va hisoblash xatoliklari:

$$\frac{S_{max} - S_{cp}}{S_{cp}} * 100\% \geq 10\% \text{ ba } \frac{S_{cp} - S_{min}}{S_{cp}} * 100\% < 10\% \quad (1.37)$$

ni tashkil qilsa, u holda yakuniy miqdor quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \frac{2 * S_{cp} + 3 * S_{min}}{5} \quad (1.38)$$

4) Agarda quyidagi shartlar bajarilsa va hisoblash xatoliklari:

$$\frac{S_{max} - S_{cp}}{S_{cp}} * 100\% < 10\% \text{ ba } \frac{S_{cp} - S_{min}}{S_{cp}} * 100\% < 10\% \quad (1.39)$$

ni tashkil qilsa, u holda yakuniy miqdor quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S = \frac{S_{min} + 4 * S_{cp} + S_{max}}{6} \quad (1.40)$$

Baholashning ikkita yondashuvidan foydalanilganda yakuniy miqdorni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$S = \frac{3 * S_{min} + 2 * S_{max}}{5} \quad (1.41)$$

Iyerarxialarni tahlil qilish usuli baholashning turli yondashuvlari bilan olingan natijalarni muvofiqlashtirish hamda natijalarni muvofiqlashtirishning muammolarini qism-qismlarga bo'lish va uni iyerarxiya ko'rinishida taqdim etishni ifodalaydi.

Natijalarni muvofiqlashtirish maqsadlari uchun quyidagi ko'rinishlarga ega bo'lgan uch darajali iyerarxiyadan foydalaniladi:

↓ yuqori daraja - maqsad - bozor qiymatini baholash;

- ✚ oraliq daraja - muvofiqlashtirish mezonlari;
- ✚ quyi daraja - alternativlar - turli usullar bilan olingan baholash natijalari.

Baholash maqsadlari uchun muvofiqlashtirishning quyidagi mezonlaridan foydalaniladi:

- ✚ potensial investor, xaridor yoki sotuvchining haqiqiy maqsadlarini aks ettirish imkoniyati;

- ✚ tahlil o'tkazilishiga asos sanalgan ma'lumotlarning turi, sifati, kengligi;

- ✚ foydalanilayotgan usullar parametrlarining konyunktura tebranishlarini hisobga olishga qodirligi;

- ✚ obyektning qiymatiga ta'sir qilayotgan o'ziga xos xususiyatlarini (joylashgan joyi, miqdori, potensial daromadlilikini) hisob olishga qodirligi.

Natijalarni muvofiqlashtirish muammolari qism-qismlarga bo'lingandan va iyerarxiya ko'rinishida taqdim qilingandan keyin quyidagi izchillikdagi harakatlar bajariladi: mezonlardagi ustuvorliklar juft-jufti bilan taqqoslash orqali aniqlanadi. Buning uchun teskari simmetrik matritsa quriladi, juft-jufti bilan taqqoslash uchun esa quyidagi nisbatlar shkalasidan foydalaniladi:

Baholash parametrlarining muhimligi	"1-9"
Bir xil muhimlik	1.
Sezilarsiz ustunlik	3.
Sezilarli ustunlik	5.
Yaqqol ustunlik	7.
Mutlaq ustunlik	9.
2, 4, 6, 8 – oraliq miqdorlar.	

Kelgusida har bir mezon uchun quyidagi formula bo'yicha o'lchov aniqlanadi:

$$W'_j = \left(\prod_{i=1}^n a_{ij} \right)^{1/n} \quad (1.42)$$

Bu yerda: W'_j - mezon o'lchovi;

P - indekslar ko'paytmasi;

a_{ij} - mezonning (indeksning) muhimligi;

n - mezonlar soni;

Olingan o'lchovlar quyidagi formula bo'yicha me'yorlanadi:

$$w'_j = \frac{\sum_{i=1}^n w'_{ij}}{n} \quad (1.43)$$

Shunday tarzda olingan miqdorlar har bir mezonlarning yakuniy o'lchov qiymatini ifodalaydi. Shundan keyin quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

✦ har bir mezon bo'yicha har bir alternativa uchun ustuvorliklarni aniqlashning tavsiflangan tartib-jarayonlarini amalga oshirish o'tkaziladi, har bir alternativaning o'lchov miqdorlari aniqlanadi;

✦ har bir alternativaning narx belgilovchi omillar o'lchovlarining ko'paytmalari summasiga teng bo'lgan hamda ularning har bir omillar bo'yicha alternativallari o'lchovlariga muvofiq bo'lgan yakuniy o'lchovlarini hisoblash o'tkaziladi;

✦ alternativalar o'lchovlari ko'paytmalari summasiga teng bo'lgan va ularning o'lchovlariga mos keluvchi bozor qiymatini hisoblash o'tkaziladi.

9.2. IMO va NAlarni baholash to'g'risidagi hisobotni tuzish

Baholash natijalari baholash faoliyati to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq tuzilgan va baholovchi tashkilotning baholash obyekti qiymati xususidagi yig'ilgan axborot va hisob-kitoblar asosida tasdiqlangan professional mulohazasini o'z ichiga olgan baholash to'g'risidagi hisobot ko'rinishida rasmiylashtirilishi lozim.

Hisobot milliy baholash standartlari talablariga muvofiqlik to'g'risidagi bayonotni va ulardan har qanday chetga chiqish to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olishi lozim.

Baholash to'g'risidagi hisobotni tuzishda quyidagi qoidalarga rioya etish lozim:

- ✚ baholashni o‘tkazish uchun asos;
- ✚ baholash maqsadi;
- ✚ baholash sanasi;
- ✚ baholanayotgan qiymat turi;
- ✚ eng muhim farazlar va cheklovchi shartlar;
- ✚ baholash natijasi.

Kuzatuv xat firma blankasida rasmiylashtiriladi, baholovchi tashkiloti rahbari tomonidan imzolanadi va muhr bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlanadi.

“Umumiy ma’lumotlar” bo‘limi baholash to‘g‘risidagi hisobotdan foydalanuvchiga o‘tkazilgan baholashning asosiy holatlarini qisqacha shaklda taqdim qilishga mo‘ljallangan. Bo‘limda quyidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi:

- ✚ baholashni o‘tkazish uchun asos;
- ✚ baholash sanasi;
- ✚ baholash to‘g‘risidagi hisobot tuzilgan sana;
- ✚ baholash maqsadi va baholash natijalaridan mo‘ljallangan foydalanish;
- ✚ aniqlanayotgan qiymat turi;
- ✚ baholash obyektining yakuniy qiymati;
- ✚ axborot olish manbalari;
- ✚ baholash bo‘yicha ishlarni o‘tkazishda va NMA va IMOni baholash to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashda foydalanilgan normativ hujjatlar va standartlar;
- ✚ qabul qilingan atamalar;
- ✚ hisoblash bazasi va aniqlanayotgan qiymat turi;
- ✚ baholash obyektini qiymatini aniqlashning ketma-ketligi;
- ✚ ishni bajargan baholovchi(lar) to‘g‘risidagi ma’lumotlar;
- ✚ NMA va IMOning egasi to‘g‘risidagi ma’lumotlar.

“Qabul qilingan farazlar va cheklovchi shartlar” bo‘limi baholash obyektini qiymatini aniqlashga asos bo‘lgan shartlar to‘g‘risidagi axborotdan iboratdir. Ushbu shartlar baholash obyektini va foydalanilayotgan axborotni ishlatish bilan bog‘liq holatlardan

(qonunchilik, miqdor va sifat tavsiflari) kelib chiqib, umumiy qabul qilingan shartlardan farq qilishi mumkin.

“Baholash obyektining tavsifi” bo‘limi baholash obyektining sifat va miqdor jihatlarini tavsiflash uchun mo‘ljallangan va quyidagi axborotni o‘z ichiga oladi:

✚ baholash obyektining to‘liq nomi (obyekt turi: nomoddiy aktiv, intellektual mulk obyekt);

✚ baholanayotgan huquqlar to‘g‘risidagi axborot;

✚ huquqlar egalari va mualliflar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

✚ baholanayotgan obyektning huquqiy muhofazasi to‘g‘risidagi axborot, muhofaza qiluvchi hujjat va uning amal qilish muddati ko‘rsatilgan holda, agarda mavjud bo‘lsa;

✚ baholash obyektidan ishlab chiqarish faoliyatida foydalanishning boshlanishi muddatlari to‘g‘risidagi axborot;

✚ ishlab chiqarishga tayyorligi darajasi to‘g‘risidagi axborot;

✚ baholash obyektining o‘zini hamda uning foydaliligini yanada batafsilroq tushunish imkonini beruvchi baholash obyektining texnik-iqtisodiy tavsiflari;

✚ baholash obyektidan foydalaniladigan texnik (iste‘molchilik), ekspluatatsion, ekologik va iqtisodiy ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan mahsulotlar, xizmatlarning tavsiflari;

✚ baholash obyektini ta‘riflovchi boshqa tavsiflar.

“Baholash obyektini bozorining tahlili” bo‘limi baholash obyektini qiymatiga ta‘sir etadigan bozordagi vaziyat omillarining tahlilidan iborat.

Bozorning haqiqiy vaziyatini tushunish uchun ushbu bo‘limda yalpi ichki mahsulotning hajmi, iqtisodiyotning asosiy tarmoqlari ishlab chiqarishi hajmi, mintaqa iqtisodiyotining tuzilishi, iste‘molchilik narxlarini indeksi, aholining daromadlari darajasi va boshqalar singari ko‘rsatkichlarni ko‘rib chiqish bilan mintaqadagi umumiy iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning qisqacha sharhi nazarda tutilgan bo‘lishi lozim.

Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar bozori rivojlanmagan bo‘lishi mumkin va ko‘pincha baholash obyektini uchun analogni tanlab

olish bunday obyektlar bilan bitimlar to'g'risidagi axborot yopiq bo'lganligi sababli amalda ilojsizdir. Bunday holatlarda NMA va IMODan foydalangan holda ishlab chiqarilgan oxirgi mahsulot bozorini tahlil qilishga yo'l qo'yiladi. Baholanayotgan NMA va IMO ishlatiladigan sanoat tarmog'i, shuningdek rivojlanishi baholashda qo'llanilayotgan alohida ko'rsatkichlarning hisob-kitoblariga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan turdosh tarmoqlar va moliyaviy bozorlar tahlil qilinadi.

NMA va IMOni, NMA va IMODan tashkil topgan mahsulotni yoki NMA va IMODan foydalaniladigan ishlab chiqarishlarni sotish bozorini aniqlashda baholash obyektining funksional belgilari va qo'llanish usuliga ko'ra qo'llanish sohasi va yo'nalishlari, sotish geografiyasi, sotish bozorining hajmi, raqobatlashuvchi tovarlarning sotilish hajmi, baholash objekti uchun eng maqbul yoki kafolatlangan sotish hajmi aniqlanishi zarurdir.

“Baholash usulini tanlashni asoslash” bo'limi quyidagilardan iborat:

✚ baholash yondashuvlari va usullarining qisqacha sharhi;

✚ baholash yondashuvlari va usullarini tanlash va ularning qo'llanilishini asoslash yoki baholashning biron-bir yondashuvidan foydalanish rad etilganligini asoslash.

Aniq NMA va IMOni baholash usullarini tanlash baholovchi tomonidan mustaqil ravishda hisoblashlarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshlang'ich ma'lumotlar bor-yo'qligidan, shuningdek ushbu aniq shartlar uchun ushbu usulning o'rinlilik (qo'llash mumkinligi) mulohazalaridan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

“Hisob-kitoblar qismi” bo'limi xarajat, daromad va qiyosiy yondashuvlar doirasida tegishli hisob-kitoblar keltirilgan qo'llanilgan usullarning tavsifidan iboratdir.

“Baholash obyektining yakuniy qiymatini aniqlash” bo'limi quyidagilardan iborat:

✚ baholashning foydalanilgan yondashuvlari doiralarida olingan natijalarni muvofiqlashtirish tartibi va usullarining qisqacha tavsifi;

✚ natijalar tafovutlarini tekshirish, olingan tafovutlar sababini tahlil qilish;

✚ qo‘llanilgan baholash yondashuvlarining yaroqliligi, aniqligi va asoslilikiga nisbatan ahamiyatlilik mezonlarini tavsiflash;

✚ baholash obyektining yakuniy qiymatini aniqlash.

Hisobotning ilovalarida hisob-kitoblar o‘tkazilishi va baholash obyektining qiymati to‘g‘risidagi xulosalar qilishiga asos qilib olingan hujjatlar va materiallarning nusxalari keltirilishi lozim. Shuningdek, “Ilovalar” bo‘limi quyidagilardan iborat bo‘lishi lozim:

✚ baholash faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaning nusxasi;

✚ baholash to‘g‘risidagi hisobotni tayyorlashda ishtirok etgan baholovchilarning malaka sertifikatlari nusxalari;

✚ baholovchi tashkilotning fuqarolik javobgarligining sug‘urta polisi nusxasi.

Baholash to‘g‘risidagi hisobot baholash obyektining o‘ziga xos xususiyatlari hamda baholash maqsadlariga qarab boshqa bo‘limlar va ma’lumotlardan ham iborat bo‘lishi mumkin.

Baholash to‘g‘risidagi hisobot raqamlangan va baholovchi (baholovchilar) tomonidan betma-bet imzolangan, tikilgan, shuningdek baholovchi tashkilot rahbarining imzosi va muhri bilan (muhr mavjud bo‘lgan taqdirda) tasdiqlangan bo‘lishi lozim.

Tayanch iboralar

Qo‘llanilgan baholash yondashuvlari natijalarini muvofiqlashtirish va yakuniy qiymatni aniqlash. Muvofiqlashtirish usullari: o‘rtacha arifmetik miqdorni aniqlash usuli va o‘rtacha o‘lchangan miqdorni aniqlash usuli. Uch darajali iyerarxiya. Muvofiqlashtirish mezonlari. Baholash to‘g‘risidagi hisobot. Hisobotni tuzish qoidalari. Hisobot talablari.

Nazariy bilimlarni tekshirish uchun savollar

1. Mulk qiymatini baholashning natijaviy hisobotlari huquqiy ekspertizadan qanday o‘tkaziladi?
2. Ekspertiza buyurtmachisi qanday huquqlarga ega?

3. Baholash haqida hisobot ekspertizasi tamoyillari.
4. Baholash haqida hisobotga ekspert xulosasi qaydlari qanday talablarga javob berishi lozim?
5. Baholash haqida hisobot ekspertizasini rasmiylashtirish va mazmuniga qo'yiladigan talablar.
6. Baholash hisobotini ekspertizasida aniqlangan baholovchilarning asosiy xatoliklari turini sanang, baholash hisobotida vazifaning qo'yilishi va baholash obyekti tavsifida qanday xatoliklar bo'lishi mumkin?
7. Baholash hisobotida baholash yondashuvlari bo'yicha xatoliklarni aytib bering?
8. Natijalarni muvofiqlashtirish va rasmiylashtirish belgilaridagi xatoliklarni so'zlab bering?

Testlar:

1. Baholashda – oxirgi hujjat?
 - a) Baholash dalolatnomalari yig'indisi.
 - b) Baholash bayonnomalarining yig'indisi.
 - c) Dalolatnoma.
 - d) Shartnoma.
2. Baholovchi qanday tamoyilga asoslangan holda baholash haqida hisobotda baholash obyekti sanasini ko'rsatadi?
 - a) Qiymat o'zgarishi.
 - b) Foydalilik.
 - c) Mutanosiblik.
 - d) Kutish.
3. Baholovchi tuzgan hisobotlar nusxalarini qancha vaqt saqlashi shart?
 - a) 3
 - b) 5
 - c) 2
 - d) 4
4. Intellektual mulk qiymatini baholash faoliyatining natijasi

- a) Intellektual mulk qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot
- b) dalolatnoma;
- c) buxgalteriya balansi;
- d) Identifikatsiya varaqasi.

5. Intellektual mulk qiymatini baholash to'g'risidagi hisobot qaysi qonun talablariga muvofiq ravishda rasmiylashtiriladi.

- a) Baholash faoliyati to'g'risidagi qonunga asosan.
- b) Mulk to'g'risidagi qonunga asosan.
- c) Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonunga asosan.
- d) Fuqarolik kodeksiga asosan.

6. Agar baholash obyektini baholash bir nechta baholovchi tomonidan o'tkazilgan bo'lsa, baholash to'g'risidagi hisobotni tayyorlash jarayonida ular tomonidan bajarilgan ish baholash to'g'risidagi hisobotda ko'rsatilishi majburiymi?

- a) Majburiy.
- b) Shartli ravishda.
- c) Ko'rsatilishi majburiy emas.
- d) Qisman.

7. Intellektual mulk qiymatini baholash to'g'risidagi hisobotda bahoni aniqlash mezonlari ko'rsatilishi shartmi?

- a) Shart.
- b) Mijoz tomonidan talab qilinganda.
- c) Ko'rsatilishi majburiy emas.
- d) Qisman.

8. Baholash obyektini baholashdan o'tkazishda bozor qiymatidan farqlanuvchi qiymat aniqlangan bo'lsa, baholash obyektining bozor qiymatini aniqlash imkoniyatidan voz kechish sabablari ko'rsatilishi majburiymi?

- a) Majburiy.
- b) Shartli ravishda.
- c) Korsatilishi majburiy emas.
- d) Qisman.

ASOSIY ATAMALAR LUG‘ATI

Intellekt – lotincha so‘z bo‘lib “aql” ma‘nosini bildiradi. Intellektual faoliyat natijalari ijodiy faoliyat hisoblanadi. Bu ko‘p hollarda aqliy mehnat kishilari – yozuvchilar, shoirlar, rassomlar, olimlar, injener texnik xodim va boshqalar faoliyatining mahsullaridir. Bu mahsullar o‘zining yangiligi yoki o‘ziga xosligi, takrorlanmas belgilariga ega bo‘ladi.

Intellektual mulk obyekt – jismoniy yoki yuridik shaxsning intellektual faoliyatning natijalari hamda fuqarolik muomalasi ishtirokchilarining, tovarlar va xizmatlarning xususiy alomatlarini aks ettiruvchi vositalarga bo‘lgan mutlaq huquqi

Nomoddiy aktivlar – tashkilot tomonidan ulardan ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish yoki tovarlarni sotish jarayonida foydalanish maqsadida yoxud ma‘muriy va boshqa funksiyalarni amalga oshirish uchun uzoq muddat mobaynida tutib turiladigan, moddiy-ashyoviy mazmunga ega bo‘lmagan identifikatsiyalanuvchi mol-mulk obyektlari.

Kechiktirilgan yoki muddati cho‘zilgan xarajatlar – tashkiliy xarajatlar (ta‘sis hujjatlarini tuzganlik, firmani ro‘yxatga olish bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatganlik uchun huquqshunoslarga qalam haqi va h.k.) ko‘rinishida namoyon etilgan chiqimlar, lekin barcha ushbu xarajatlar korxonani tashkil etishda amalga oshiriladi.

Firmaning narxi (gudvil) deganda uning ishbilarmonlik nufuzining qiymati tushuniladi. Gudvil faqat ortiqcha foyda mavjud bo‘lgan hollarda ishtirok etadi va u faoliyat ko‘rsatib turgan korxonadan ajratilishi mumkin emas.

Patent uning egasiga mazkur patent tomonidan qamrab olingan predmet, jarayon yoki faoliyat turidan foydalanish, ishlab chiqarish, sotish va nazorat qilish imkonini beruvchi qonunga muvofiq olingan huquq hisoblanadi. Patentlar ma‘lum vaqt oralig‘iga, ilmiy texnika yangiliklarini ishlab chiquvchi yoki tatbiq etuvchi korxonalarga muayyan vaqt mobaynida ushbu faoliyat turi natijalaridan monopoldaromad olish imkonini berish maqsadida beriladi.

Tovar belgilari, savdo markalari va nomlari – belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan va boshqa firmalar tomonidan ruxsat olmasdan

foydalanilishidan qonun asosida himoyalangan korxonalar mahsulotlarining nomlari va korxonalar o'zlarining nomlaridir. Tovar belgilari, savdo markalari va nomlarining ishlab chiqilishiga va ularning himoyasini ta'minlashga oid xarajatlar kapitalashtiriladi.

Franchayzing – bir korxonadan boshqasiga unga tegishli bo'lgan aktivlardan, shu jumladan nomoddiy aktivlardan, xuddi savdo markalari va nomlari kabi foydalanishga oid huquqlarining berilishi, qolaversa, bu kabi berishning majburiy sharti bo'lib, ushbu aktivlardan bevosita o'z maqsadi bo'yicha foydalanish va taqdim etiladigan xizmatlarga (tovarlarga) bo'lgan ma'lum bir sifat standartlariga rioya qilinishi hisoblanadi.

Mualliflik huquqi – bu ilmiy, adabiy, musiqa yoki boshqa asarlarni nashr qilish, ijro etish yoki boshqa turdagi foydalanish huquqidir.

Nou-xau – ishlab chiqarish xo'jalik faoliyati jarayonida foyda keltiruvchi yangi texnologiyalardir. Uni korxonadan ta'sischi kelishuvda aniqlangan qiymat bo'yicha korxonadan ustav kapitaliga ulush hisobida kiritish ham mumkin.

Kompyuterlar uchun dastur mahsulotlari – bu texnik va foydalaniladigan hujjatlar to'plami, boshqaruvning avtomatik hamda ma'lumotlarni qayta ishlash tizimini tuzuvchi texnik va dastur mablag'lari kompleksidir.

Mulk – qiymat, narx, qimmat, naf, foydalilik, farovonlik, manfaat va daromad kabi iqtisodiy kategoriyalar manbasi, fuqarolik huquqlari subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish motivi, omili sifatidagi ne'mat (boyluk).

Mulkiy huquq – ne'matlarining mavjudligi va ularni ishlatish bilan bog'liq odamlar orasidagi sanktsiyalangan munosabatlar.

Mulkiy huquq subyektlari – davlat, yuridik va jismoniy shaxslarning obyektiv huquq normalari asosida yuzaga keladigan mulkni egallash, undan foydalanish va uni tasarruf qilish huquqlari majmuasi.

Mulkiy huquq obyektlari – tabiat va jamiyat boyluklarini ijtimoiy-iqtisodiy o'zlashtirishni tartibga solish bilan bog'liq huquq normalari yig'indisi.

Boshlang'ich narx- sarf qiymat, to'langan soliqlar va rejalashtirilgan foyda miqdorlarining jami summasidan tarkib topuvchi

qiymat sifatida baholanib, bozor sotuviga dastlabki tarzda taklif etiladigan sotuvchi narxi.

Bozor qiymati – raqobatli bozorning konkret sharoitlarida (uning balanslashgan kon'yunkturasini hisobga olgan holda) baholash ob'yektini adolat, halollik va axborot shaffofligi asosida yangi mulkdorga berilishi uchun to'lanishi ehtimol darajasi eng yuqori bo'lgan pul summasi.

Mulk qiymati – mulkning ma'lum vaqt davridagi pul ekvivalentida ifodalangan va bozor narxiga ekvivalentlik darajasi yaqin bo'lgan qiymatining MQBXB tendensiyasiga bog'liq ekspert bahosi bo'lib, uning miqdori konkret baholash maqsadlari va metodologiyasi asosida professional baholovchining adolat nuqtayi nazaridan pragmatik hisob-kitoblarga asoslangan fikri.

Mulk narxi – mulk bozorining ma'lum vaqt davridagi talab va taklifi (obyektiv konyunkturasi) asosida sodir etilgan bitim shartlarini aks ettiruvchi mulk va uni bozorga chiqaruvchisi bozor qiymatiga maksimal ekvivalent bo'lgan pul birligida to'langan yoki unga mos nisbiy miqdor.

Bozor – ma'lum xajm, qiymat, qiymat va narxga ega bo'lgan tovarning erkin savdosi bilan bog'liq tashkillashgan ijtimoiy-iqtisodiy-informatsion-huquqiy mexanizm bilan ta'minlangan munosabatlarni turli omillar ta'siri sharoitida maqsadli amalga oshirilishini ta'minlovchi yaxlit murakkab tizim (mexanizm) sifatida namoyon bo'luvchi tovar bo'yicha talab va taklif funksiyasi.

Mulk bozori – bu tovarlar sifatida qabul qilingan FHOlar bo'yicha obyektiv talab va obyektiv taklif funksiyasi sifatidan namoyon bo'luvchi murakkab tizim (mexanizm) bo'lib, u sotuvchi va xaridor o'rtasida kechadigan “pul(xaridor) -tovar(sotuvchi) - (xaridor va sotuvchi manfaatlarini ularning bozorda o'zaro shartnomaviy kelishilgan natijaviy kopromiss narx asosida personal (shaxsan) qondiruvchi har ikkala tarafning olgan foydasi (yoki ulardan birining ko'rgan zarari)”) sxemasi mazmunida ifodalanuvchi almashinuv jarayoni.

Intellektual mulk qiymatini baholash xizmatlari bozori – mulkdorlarning mulkiy huquqlari qiymatini belgilaydi va boshqarilishiga yordamlashadi, mulk bozori obyektiv narxlar va mulkdorlar jamg'armalari real qiymati shakllanadigan bozor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida” qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi “Baholash faoliyati to‘g‘risida” qonuni.
4. Mulk qiymatini baholashning milliy standartlari (13- MQBMS).
5. Mulk qiymatini baholashning xalqaro standartlari.
6. Shoha‘zamiy Sh.Sh. Mulk, qiymat va narxning nazariy asoslari. Tanlangan ma‘ruzalar to‘plami. – T.: Iqtisod-moliya, 2015. -460 б.
7. Шохазамий Ш.Ш. Мулк назарияси, қиймати ва нархи. - Т.: Fan va texnologiya, 2012.-264 б.
8. Шохазамий Ш.Ш. Трактат о собственности и её справедливой стоимости.-Т.:Iqtisod-moliya, 2014.-304 с.
9. Микерин Г.И., Гребенников В.Г., Нейман Е.И. Методологические основы оценки стоимости имущества. - М.: Интерреклама, 2003.-688 с.
10. Shoha‘zamiy Sh.Sh. Bozor asoslari.-T.: Fan va texnologiya, 2012.-212 b.
11. Азгальдов Г.Г., Карпова Н.Н. Оценка стоимости интеллектуальной собственности и нематериальных активов: Учебное пособие. – М: Международная академия оценки и консалтинга, 2011. – 400 с.
12. Арабян К.К. Методика оценки интеллектуальных активов. – М.: Юнити-Дана, 2010. – 128 с.
13. Валдайцев С.В. Оценка интеллектуальной собственности: Учебник – М.: Экономика, 2011. – 471 с.
14. Джеймс Р.Хитчнер Оценка стоимости нематериальных активов. под научной редакций В.М.Рутгайзера. –М.: Омега-Л “Маросейка” издательство, 2008. – 144 с.
15. Медведева О.В., Шпилевская Е.В. Основы оценки стоимости нематериальных активов. Учебное пособие. – М.: Феникс, 2011. – 224 с.

16. Микерин Г.И., Гребенников В.Г., Нейман Е.И. Методологические основы оценки стоимости имущества. – М.: ИНТЕРРЕКЛАМА, 2003. – 688 с.

17. Эванс Ф. Ч., Бишоп Д. М. Оценка компаний при слияниях и поглощениях: создание стоимости в частных компаниях. – М.: Альпина Бизнес Букс, 2004. – 332 с.

MUNDARIJA

KIRISH	3
1-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK VA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASHNING ASOSIY TUSHUNCHALARI	5
1.1. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlar tushunchasi va mazmuni, tasnifi va tavsifi.....	5
1.2. Intellektual mulk va nomoddiy aktivlarni baholashning o'ziga xos xususiyatlari.....	16
1.3. Intellektual mulk qiymatini baholash xizmatlari bozorini shakllanishi xususiyatlari va shartlari.....	31
2-MAVZU. PATENTNING EKSKLYUZIV HUQUQ SIFATIDAGI AHAMIYATI	41
2.1. Intellektual mulkning muhimligi.....	41
2.2. Eksklyuziv huquq va biznes faoliyati o'rtasidagi munosabatlar.....	43
2.3. Patentlarni va birlashma (mergers and acquisitions)ni eksklyuziv huquqqa ko'ra aniqlanishi.....	44
2.4. Patentlarni litsenziya daromadlarining manbasi sifatida ahamiyati.....	46
2.5. Intellektual mulkni investitsiyalash obyekti sifatida foydalanish.....	47
2.6. IModan moliyaviy kafolat sifatida foydalanish	50
3-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK VA NOMODDIY AKTIVLARNING BAHOLASH OBYEKTINI IDENTIFIKATSIYA QILISH	57
3.1. Intellektual mulk obyektlari va nomoddiy aktivlarni baholashda identifikatsiya qilish tushunchasi.....	57
3.2. Axborotni yig'ish va tahlil qilish.....	60
3.3. Qonuniy-me'yoriy hujjatlar tizimi va bazasini shakllantirish.....	66
4-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA NOMODDIY AKTIVLARNI DAROMADLI YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMI	75
4.1. Daromadli yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari.....	75
4.2. Foydadagi ustunlik usuli.....	78
4.3. Sotish hajmidagi ustunlik usuli.....	79
4.4. Ekspluatatsion xarajatlar tejamkorligi usuli.....	83
4.5. Royaltidan ozod qilish usuli.....	84
4.6. Litsenziatning qo'shimcha foydasidan litsenziarning hissasini ajratib olish usuli.....	88
4.7. Pul oqimlarini diskontlash usuli.....	89

5-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA NOMODDIY AKTIVLARNI XARAJATLI YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMI.....	95
5.1. Xarajatli yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari.....	95
5.2. Xarajatli yondashuvning asosiy uslublari: yaratish qiymati usuli, takror ishlab chiqish xarajatlari qiymati usuli va almashtirish qiymati usuli.....	96
6-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA NOMODDIY AKTIVLARNI QIYOSIY YONDASHUV ASOSIDA BAHOLASH MEXANIZMI.....	106
6.1. Qiyosiy yondashuvning iqtisodiy mazmuni va qo'llash sharoitlari.....	106
6.2. Qiyoslash uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan eng muhim taqqoslash elementlari. Ma'lumotlarni tanlash va izlash xususiyatlari.....	107
6.3. Qiyosiy yondashuvning asosiy uslublari: sotib olish qiymati usuli va sotuvlarni qiyosiy tahlil qilish usuli.....	108
7-MAVZU. NOMODDIY AKTIVLARNING ALOHIDA TURLARINI BAHOLASH XUSUSIYATLARI.....	116
7.1. Tovar belgisi qiymatini baholash.....	116
7.2. Gudvill qiymatini baholash.....	120
7.3. Brend kapitali qiymatini baholash.....	122
7.4. Ixtiro qiymatini baholash.....	129
8-MAVZU. TURLI MAQSADLAR UCHUN INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH XUSUSIYATLARI.....	134
8.1. IMO va NMA ni o'zlashtirish maqsadida baholash metodi.....	134
8.2. IMO va NMA ni litsenziyalash maqsadida baholash metodi.....	137
8.3. M&A (birlashish va o'zlashtirish)bitimlari uchun baholash metodi.....	139
8.4. IMO va NMA ni Investitsiyalash maqsadida baholash metodi.....	141
8.5. Intellektual mulk huquqlarining garov qiymatini baholash metodi.....	143
9-MAVZU. INTELLEKTUAL MULK OBYEKTлари VA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH TO'G'RI SIDAGI HISOBOT.....	154
9.1. Qo'llanilgan baholash yondashuvlari natijalarini muvofiqlashtirish va yakuniy qiymatni aniqlash.....	154
9.2. IMO va NAlarni baholash to'g'risidagi hisobotni tuzish.....	159
ASOSIY ATAMALAR LUG'ATI.....	168
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	171

L.S. ZOYIROV, S.K. QOSIMOVA

INTELLEKTUAL MULK VA NOMODDIY AKTIVLARNI BAHOLASH

O'quv qo'llanma

Muharrir N. Rustamova
Badiiy muharrir K. Boyxo'jayev
Kompyuterda sahifalovchi Z. Ulug'bekova

Nashr lits. AI¹ 305. Bosishga ruxsat etildi 29.08.2019.
Qog'oz bichimi 60x84 1/16. Shartli bosma tabog'i, 10,1.
Hisob-nashr tabog'i 10,5. Adadi 100.
30-buyurtma.

«IQTISOD-MOLIYA» nashriyotida tayyorlandi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60^a.

«HUMOYUNBEK-ISTIQLOL MO'JIZASI»
bosmaxonasida ofset usulida chop etildi.
100000, Toshkent, Amir Temur ko'chasi, 60^a.